

ZAMONAVIY IJROCHILIK VA VOKAL SAN'ATI TEXNIKASI



- ❖ O'zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ “Vokal san’ati” (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi
- ❖ Dotsent Muxammedova Galina

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan
o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

Tuzuvchi: O‘zbekiston Davlat konchervatoriyasi “Akademik
xonandalik va opera tayërlovi” kafedrasida dotsenti
Muxammedova Galina.

Taqrizchilar: Tigran Shiganyan – Flint musiqa instituti
san’atshunoslik fanlari doktora, (AQSH).

B.Lutfullayev – O‘zDSMI “Vokal” kafedrasida
professora.

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “29” yanvarda 1-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	14
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	20
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	108
V.	KEYSLAR BANKI.....	133
VI.	GLOSSARIY.....	129
VII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	132

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Zamonaviy ijrochilik va vokal san’ati texnikasi” modulining maqsadi:

Musiqqa san’atining turli yo‘nalishlari va janrlarida rivojlanish bosqichlarini o‘zlashtirgan holda ushbu san’atning dastlabki va zamonaviy holatini solishtirish orqali uning hozirgi kundagi o‘rnini belgilash orqali faoliyat ko‘rsatayotgan kompozitorlar, dirijyorlar, xonanda va sozandalarning tajribalari misolida yangi zamonaviy shakl va uslublarni amaliyotga tatbiq etish va boshqalarni qo‘llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat.

“Zamonaviy ijrochilik va vokal san’ati texnikasi” modulining vazifalari:

- cholg‘u ijrochiligi san’at tuining o‘rnini ko‘rsatish;
- musiqa ijodkorlari va ijrochilarining zamon talabidan kelib chiqib mahoratini oshirish;
- musiqachilarning qirralik masalalari ko‘rsatish;

- cholg‘u ijrochiligi kasbida muloqot jarayonlarining takomillashuvi, yangi davr muammolari bo‘yicha ma‘lumotlar berish va ularni qo‘llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashni ta‘minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etishdir.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Zamonaviy ijrochilik va vokal san‘ati texnikasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- musiqa san‘atida mualliflik huquqini ta‘minlashning meyoriy-huquqiy asoslarini;
- musiqa san‘atidagi zamonaviy yo‘nalish va uslublar hamda tendensiyalarni **bilishi** lozim.
- musiqa san‘atidagi modernizatsiya va o‘zgarishlarni o‘zlashtirgan holda uning mazmun-mohiyatini talabalarga yetkazish;
- musiqa san‘atida taniqli mahalliy va xorijiy ijodkorlarning asarlari bilan tanishish, tahlil eta olish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.
- zamonaviy tendensiyalarga asoslanib yaratilgan musiqiy asarlarni o‘zlashtirish, konsert-pedagogik repertuarlarni shakllantirishda qo‘llash;
- bastakorlik ijodiyotida, barcha musiqiy ijrochilik yo‘nalishlarida zamonaviy uslublardagi O‘zbekiston va jahon kompozitorlari, an‘anaviy bastakorlik, folklor namunalaridan va xalq ijodi merosidan samarali foydalanish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.
- musiqa sohasida mashg‘ulotlarni yuqori saviyada tashkil etish;
- mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik hamda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish va boshqarish;
- guruhli va yakka tartibdagi mashg‘ulotlar uchun tegishli fanlar bo‘yicha modullarni ishlab chiqish va modul tizimi asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish;
- musiqa san‘ati sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish **kompetensiyasiga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar

“Zamonaviy ijrochilik va vokal san‘ati texnikasi” moduli hozirgi kunda ta‘limning zamonaviy metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari

qo'llanilishi nazarda tutilgan. Ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, shuningdek an'anaviy va zamonaviy dirijyorlik asarlaridan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, ijrochilik malakalarini shakllantirish va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Zamonaviy ijrochilik va vokal san'ati texnikasi” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Ixtisoslik fanlarini o'qitishning zamonaviy metodikasi” “Vokal san'atida barqaror taraqqiyot va nomoddiy madaniy meros”, “Zamonaviy ijrochilik va vokal san'ati texnikasi” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan “Mutaxassislik (turlari bo'yicha)” va uzviy o'zaro bog'liq boshqa fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish, ularning mazmunini yangi, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo'llash va talabalar bilimini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Zamonaviy jahon va milliy vokal san'ati yo'nalishlari. Turli ijrochilik uslublari. Musiqiy – lug'aviy so'zlar.	2	2	
2.	Zamonaviy metroritmik modellar. Yakka, ansambl va xor ko'rinishdagi vokal ijrochiligi. Tovush gigiyenasi asoslari. Ovoz yozish studiyalarining ishlash tamoyillari.	4	2	2
3.	Vokal sanat pedagogikasi muammolari. Xonandaning ijro mahoratiga qo'yiladigan asosiy talablar.	4	2	2
4.	Ovoz hosil qilish jarayonining anatomik va gigiyenik talablari. Artikulyatsiya va diksiya. Ovoz postanovkasi uslub va usullari. Ovoz xosil qilish jarayoni.	4	2	2
5.	Vokal texnikasi asoslari: vokal nutqi, talaffuz ahamiyatlari. Ijro repertuarini tanlashda professional yondashuv.	2		2
6.	Asarlar ustida ishlashda pedagogik mahorat. Vokal janrlari va ularning ijro yo'li.	2		2
7.	Xonandalik maktablarini yaratishda musiqiy ta'lim uzviyligi. Jaz, pop, opera va milliy xonandalik janrlaridagi vokal ijrochiligi.	2		2
Jami:		20	8	12

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Zamonaviy jahon va milliy vokal san‘ati yo‘nalishlari. Turli ijrochilik uslublari. Musiqiy – lug‘aviy so‘zlar.

Zamonaviy jahon va milliy vokal san‘ati yo‘nalishlari. Turli ijrochilik uslublari. Musiqiy – lug‘aviy so‘zlar. Vokal san‘ati rivojlanishining asosiy bosqichlari. Vokal san‘atining rivojlanish bosqichlari.

Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta‘lim jarayoniga tadbiiq etish masalalari.

Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar bastakorlik san‘atining paydo bo‘lishi, kasb sifatida shakllanishi, bastakor kasbiga nisbatan qo‘yiladigan talablar, zamonaviy musiqa san‘atida bastakor va dirijyorlarning o‘rni va unga qo‘yiladigan talablar haqida ma‘lumot oladilar.

2-mavzu: Zamonaviy metroritmik modellar. Yakka, ansambl va xor ko‘rinishdagi vokal ijrochiligi. Tovush gigiyenasi asoslari. Ovoz yozish studiyalarining ishlash tamoyillari.

Zamonaviy metroritmik modellar. Yakka, ansambl va xor ko‘rinishdagi vokal ijrochiligi. Tovush gigiyenasi asoslari. Ovoz yozish studiyalarining ishlash tamoyillari. Vokal san‘atida stilistik yo‘nalishlar. Milliy va zamonaviy kuylash uslublari. Vokal ijrochiligida badihaviylik (improvizatsiya) texnikasi.

Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar xonandalik san‘atining paydo bo‘lishi, kasb sifatida shakllanishi, xonanda kasbiga nisbatan qo‘yiladigan talablar, zamonaviy musiqa san‘atida xonandaning o‘rni va unga qo‘yiladigan talablar haqida ma‘lumot oladilar.

3-mavzu: Vokal sanat pedagogikasi muammolari. Xonandaning ijro mahoratiga qo‘yiladigan asosiy talablar.

Vokal sanat pedagogikasi muammolari. Xonandaning ijro mahoratiga qo‘yiladigan asosiy talablar. Professional va havaskor ijrochilik. Vokal san‘ati pedagogikasida ustoz-shogird tizimi. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta‘lim jarayoniga tadbiiq etish masalalari.

Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar cholg‘ularda ijrochilik san‘ati va dirijyorlik san‘atining paydo bo‘lishi, kasb sifatida shakllanishi, sozanda va dirijyor kasbiga nisbatan qo‘yiladigan talablar, Vokal sanat pedagogikasi, zamonaviy

musiqa san'atida ijro mahoratiga qo'yiladigan asosiy talablar haqida ma'lumot oladilar.

4-mavzu: Ovoz hosil qilish jarayonining anatomik va gigiyenik talablari. Artikulyatsiya va diksiY. Ovoz postanovkasi uslub va usullari. Ovoz xosil qilish jarayoni.

Ovoz hosil qilish jarayonining anatomik va gigiyenik talablari. Artikulyatsiya va diksiY. Ovoz postanovkasi uslub va usullari. Ovoz xosil qilish jarayoni. Vokal san'atining o'ziga xos tomonlari. Uslublar, yangi milliy musiqa maktablarining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Vokalist – katta bilim va tajribaga ega ijodkor, tashkilotchi va boshqaruvchi sifatida. Zamonaviy dirijyorlik san'ati maktablari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

Ma'ruzaviy mashg'ulotlardan so'ng rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlar ma'ruza mashg'ulotlarining asosiy mavzusiga binoan tashkil etiladi. Bunda tinglovchilar mustaqil ravishda, shuningdek pedagog tomonidan taklif etilgan yo'nalish bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Topshiriq yozma, savol-javob, amaliy ijro tarzida yoki boshqa shaklda bajarilishi mumkin.

Amaliy mashg'ulotlar tinglovchilarning taklif etilayotgan mavzuga bo'lgan munosabatini yozma, og'zaki javob yoki amaliy ijro ko'rinishlarida ifoda etishlari uchun imkon yaratishi ko'zda tutilgan. Amaliy mashg'ulotlardagi rejalashtirilgan masalalar pedagog tomonidan maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar, yozma manbalar, qo'shimcha vositalar, shuningdek orkestr yoki xor jamoalari bilan amaliy ishlash orqali tinglovchilarning faolligini oshirish uchun xizmat qilishi kerak.

1-amaliy mashg'ulot: Zamonaviy metroritmik modellar. Yakka, ansambl va xor ko'rinishdagi vokal ijrochiligi. Tovush gigiyenasi asoslari. Ovoz yozish studiyalarining ishlash tamoyillari.

Zamonaviy metroritmik modellar. Yakka, ansambl va xor ko'rinishdagi vokal ijrochiligi. Tovush gigiyenasi asoslari. Ovoz yozish studiyalarining ishlash tamoyillari, shuningdek, vokal san'atining an'anaviy uslub va janrlari haqida ma'lumotlarga tinglovchilar ega bo'ladilar va mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini namoyish etadilar.

**2-amaliy mashg'ulot: Vokal sanat pedagogikasi muammolari.
Xonandaning ijro mahoratiga qo'yiladigan asosiy talablar.**

Professional va havaskor ijrochilik. Vokal san'ati pedagogikasida ustoz-shogird tizimi. Vokal sanat pedagogikasi muammolari. Vokal o'qituvchisi bilishi kerak bo'lgan tamoyillar, pedagogik texnologiyalar va uslubiyotlar, talabalarga qo'yiladigan asosiy talablar. Xorijiy davlatlarda vokal san'ati pedagogikasi tizimi. ularning mazmuni nimalardan iboratligini tinglovchilar bilib oladilar va mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini namoyish etadilar.

3-amaliy mashg'ulot. Ovoz hosil qilish jarayonining anatomik va gigiyenik talablari. Artikulyatsiya va diksiY. Ovoz postanovkasi uslub va usullari. Ovoz xosil qilish jarayoni.

Ovoz hosil qilish jarayonining anatomik va gigiyenik talablari. Artikulyatsiya va diksiY. Ovoz postanovkasi uslub va usullari. Ovoz xosil qilish jarayoni. Vokal san'atining o'ziga xos tomonlari. Uslublar, yangi milliy musiqa maktablarining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Janriy eksperimentlar natijasida stilizatsiya, polistilistika, individual uslublar kabi tushunchalarining paydo bo'lishini tinglovchilar bilib oladilar va mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini namoyish etadilar.

4-amaliy mashg'ulot: Vokal texnikasi asosalari: vokal nutqi, talaffuz ahamiyatlari. Ijro repertuarini tanlashda professional yondashuv.

Vokal texnikasi asosalari: vokal nutqi, talaffuz ahamiyatlari. Ijro repertuarini tanlashda professional yondashuv. Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar xorijiy davlatlarda vokal maktablar tizimlari, ulardagi yutuq va kamchiliklarni, vokal ijrochilik san'atida artistik mahorat va sahna madaniyati, yuqori darajadagi mashhur professional xonandalarning ijodiy faoliyati haqida ma'lumot olganlaridan keyin nazariy mashg'ulot rejasida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha mustaqil ravishda so'nggi davrda vokal san'ati bo'yicha chop etilgan qo'llanma, darslik va ilmiy jurnallardan, INTERNET saytlaridan qo'shimcha ma'lumotlar to'playdilar va mavzu bo'yicha ko'tarilgan masalalar bo'yicha amaliy ko'nikmalarini namoyish etadilar.

**5-amaliy mashg'ulot: Asarlar ustida ishlashda pedagogik mahorat.
Vokal janrlari va ularning ijro yo'li.**

Asarlar ustida ishlashda pedagogik mahorat. Vokal janrlari va ularning ijro yo'li. Ushbu mavzuni o'zlashtirishga yo'naltirilgan mashg'ulot xonanda bilishi va egallashi lozim bo'lgan barcha bilimlarni aniqlashtirish, okal ijrochiligida zamonaviy texnik vositalar, ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan sharoit, talab etiladigan ko'nikmalarni namoyish etish jarayoni, tegishli bilimlarning o'zlashtirilishi va amaliy ijro etilishiga bag'ishlanadi.

6-amaliy mashg'ulot: Xonandalik maktablarini yaratishda musiqiy ta'lim uzviyligi. Jaz, pop, opera va milliy xonandalik janrlaridagi vokal ijrochiligi.

Xonandalik maktablarini yaratishda musiqiy ta'lim uzviyligi. Jaz, pop, opera va milliy xonandalik janrlaridagi vokal ijrochiligi. Mazkur mavzuni o'zlashtirishdan oldin vokal san'atida Tajribali xonandalarning qanday uslublarda ijodiy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishi, ta'sir kuchini o'tkazuvchi uslublar va samarali faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan bilim-tajribalar bo'yicha tinglovchilar mustaqil ravishda (turli xonandalarning tajribalari asosida) ma'lumotlar to'playdilar va tashkil etiladigan amaliy mashg'ulot davrida xonandalikning mahalliy uslublar xususida o'z qarashlarini bayon etadilar. Eng samarali va ilg'or deb topilgan ta'sir vositalarining yanada chuqurroq o'zlashtirilishi uchun baxs-munozaralar tashkil etiladi. Mashg'ulot yakunida jamoga ta'sir vositalarining eng namunali deb topilganlari umumlashtirilib, ta'lim tizimiga tatbiq etish masalalari muhokama etiladi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).


**II. MODULNI O‘QITISHDA
FOYDALANILADIGAN
INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

1. “VENN DIAGRAMMASI” GRAFIK ORGANAYZERI (GO)

Ta’lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo‘lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

2. “Keys-stadi” texnologiyasi

Keys-stadi (ingliz tilida —case|| – metod, —study|| – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi ta’lim oluvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U

ta'lim oluvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi.


Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardir: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

3. "Konseptual jadval" GO

Ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda ta'lim oluvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida GODan quyidagicha foydalaniladi:



4. "Baliq skeleti" GO

Ta'lim oluvchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo'llashda ta'lim oluvchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

5. “Insert” GO

Yangi mavzu bo'yicha o'quvchi (ta'lim oluvchi) larning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash, ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

6. “Klaster” GO

Klaster (g'uncha, to'plam, bog'lam) grafik organayzeri puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

7. “Munosabat” metodi

Texnologiya ta'lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o'z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o'rganilayotgan muammo bo'yicha muayyan masalalarni hal etish, ma'lum jarayon (voqelik, hodisa) ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llarini topish asosida ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqq olish ko'nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ta'lim oluvchilarga o'zlarida ijobiy fazilatlarni ko'proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

8. “Nilufar guli” GO

Texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo'lib, nilufar guli ko'rinishiga ega. Asos, unga birikkan to'qqizta -gulbarg (kvadrat, to'rtburchak yoki aylana) larni o'z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

9. “Reja” metodi

Metod ta'lim oluvchilar tomonidan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llash ta'lim oluvchilardan o'rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o'zlashtirish, asosiy g'oyalarni umumlashtirish, ma'lum tizimga solish layoqatiga ega bo'lishni taqozo etadi.

Metod ta'lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo'llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta'lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma'naviy-ma'rifiy ishning yo'nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.





10. "T-jadval" GO

Grafik organayzer tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko'ra batafsil yoritish maqsadida qo'llaniladi. Ko'p hollarda grafik organayzer mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

11. "SWOT-tahlil" strategiyasi

Strategiya muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Ta'lim oluvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to'rt jhati tahlil qilinadi:

S		Kuchli (ustun) jihatlari (hal etilayotgan muammoning afzalliklarini yoritish)
W		Kuchsiz (zaif) jihatlari (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarining
O		Imkoniyatlarni chamalash (belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo'llarini izlash)
T		Tahdidni o'rganish (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillarining

11. “FSMU” strategiyasi

Grafik organayzer ta’lim oluvchilarda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta’lim oluvchilarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:

№	Tushunchalar	(F)	(S)	(M)	(U)
1.	Ta’lim metodlari				
2.	Ta’lim vositalari				
3.	Ta’limni tashxis qilish				

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu: Zamonaviy jahon va milliy vokal san'ati yo'nalishlari. Turli ijrochilik uslublari. Musiqiy – lug'aviy so'zlar.

Reja:

- 1.1. Zamonaviy jahon va milliy vokal san'ati yo'nalishlari va turli ijrochilik uslublari
- 1.2. Musiqiy lug'aviy so'zlar
- 1.3. Vokal san'ati rivojlanishining asosiy bosqichlari

Tayanch so'zlar: Vokal san'ati, estrada, djaz, an'anaviy uslublar, maqom ijrochiligi, kuylash texnikasi. akademik vokal ijrochiligi

1.1. Zamonaviy jahon va milliy vokal san'ati yo'nalishlari

Vokal san'ati yo'nalishlari ko'p asrlar mobaynida, bosqichma-bosqich shakllanib kelgan. Xususan, Osiyo mamlakatlarida xalq qo'shiqchiligi, Yevropada cherkov vokal aytmilari, Afrika, Avstraliya, Amerika mamlakatlarida kuylash san'ati o'zgacha o'ziga xoslik bilan rivoj topgan.

Vokal san'atida yo'nalishlar estrada-jaz ijrochilik yo'lida ham shakllangan. "Jaz" va "estrada" atamasiga doir tushunchalar hozirgi davrda barcha ma'lum. G'arbiy, Markaziy, Janubiy Afrika xalqlari musiqa madaniyati, Afrika xabashlari mehnat va marosim musiqasi, XVI- XVIII asrlar Shimoliy va Janubiy Amerika musiqa madaniyati, XIX asr AQSH arxaik (qadimiy) ijodiyoti asosida jaz uslubi shakllandi.

Jaz musiqasining folklor asoslari. Jaz musiqasining folklor asoslangan. Mumtoz (klassik) jaz musiqasi rivojining asosiy tamoyillari va uslublari mavjud. Yangi Orlean jaz uslubi, Chikago jaz uslubi. Sving jaz uslubi endilikda hammaga ma'lum.

Jaz namoyondalari. Mumtoz (klassik) jaz musiqasining ham taniqli namoyondalari yetishib chiqdi. Zamonaviy (modern) jaz musiqasi uslub va yo'nalishlari ham shakllandi. Modern jaz musiqasi taniqli namoyondalari nomlari endilikda musiqa tarixi sahifalaridan munosib o'rin egalladi.

O'zbek an'anaviy ashula ijrochiligi. O'zbek an'anaviy ashula ijrochiligida uch xil usul mavjud. Binnigi, gulligi, ishkami atamalarining ma'nolari va ta'riflari shu xil kuylash usullarini belgilaydi. Binnigi va gulligi usulida aytadigan ijrochilar,

ishkami uslubida ijro etadigan ashulachilar nomlari elu yurtga tanish. Ishkamning xanaqoyi gumbazli turi va uning ta'rifi tadqiqotlar obyekti bo'lgan.

Mashhur xonandalarning qisqacha ijodiy faoliyati. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan Ota Jalol Nosir o'g'li 1845-1928 yillarda ijodiy faoliyat olib borgan. Unga Ustozi Kulliy deb nom berilgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1852-1936 yillarda yashab ijod qilib, xonanda, sozanda, bastakor sifatida mashhur bo'lgan. U xonandalikni asosan dutor jo'rligida amalga oshirgan. Mulla To'ychi Toshmuhamedov 1868- 1943 yillarda yashab, Farg'ona-Toshkent yo'llarining mashhur ijrochisi hisoblangan. Qurboniyoz Avazmatov 1868-1961 yillarda, Abdulla Fayzullayev 1869-1944 yillarda, Levi Boboxonov 1873-1926 yillarda o'z ijodiy faoliyatini olib borganlar va san'atimiz rivojiga beqiyos xizmat qilganlar.

Yangi davr maqom ijrochiligi an'analari. Bugungi kunda O'zbekisonda maqomotning uch turi – Buxoro maqomlari, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga doir ijrochilik an'alarining madaniy merosimizdan birday o'rin egallagan. Y.Rajabiy va F.Sodiqovlarning badiiy an'analari ijodiy davom ettirilayapti. Xorazm maqomlariga xos ko'hna badiiy an'alar Xorazm viloyatining Hojixon Boltayev nomidagi maqom ansambli tomonidan qayta tiklanmoqda. Shuningdek, Farg'ona-Toshkent maqom ijro yo'llariga doir an'alar ansambllar faoliyatida davom ettirilmoqda. Maqom ijrochilarining Respublika tanlovlari noyob musiqiy madaniy merosimiz keyingi avlodlarga o'tib borishiga katta turtki bo'lmoqda.

Jazning jahon madaniyatidagi o'rni. Jaz - jahon musiqa madaniyati kesimida alohida o'ringa ega katta ahamiyot kasb etmoqda. Rossiyada jaz musiqasining shakllanish bosqichlari kuzatildi va XX asr ikkinchi yarmida estrada – jaz musiqasi yuksaklarga ko'tarildi.

O'zbekistonda jaz musiqasi. Jaz O'zbekiston musiqa madaniyati kesimida ham bugungi kunda o'z muxlislariga ega. O'zbek kompozitorlari ijodida simfojaz uslubi paydo bo'lganligini musiqashunls-olimlar keyingi davrlarda e'tirof etishmoqda. XX asr ikkinchi yarmida jaz va ommaviy musiqa ijobiy va ayrim hollarda salbiy ta'sir kuchi sifatida ham tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. "Ommaviy madaniyat"ning bir ko'rinishi sifatida yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan ta'siri OAVlarida tez-tez e'tirof etilmoqda.

Jaz va Rokning ijtimoiy hayotga ta'siri. XX asr AQSH ijtimoiy

– qo'shiq folklorida siyosiy qo'shiq janri sifatida shakllanib, XX asr ikkinchi yarmida yoshlar harakati va ijtimoiy-norozilik qo'shiqlari yaratilishiga turtki bo'ldi. XX asr musiqa madaniyatida estrada musiqasi, Rok yo'nalishining shakllanishi va

rivoji asosan professional kompozitorlar ijodida namoyon bo‘lmoqda. Rok musiqasi uslub va yo‘nalishlarining tavsifi ensiklopediyalar sahifasidan ham o‘rin olgan.

O‘zbekistonda akademik vokal ijrochiligi. O‘zbekistonda akademik xonandalik ta‘limi shakllandi, vokal pedagogikasining rivojlanishi dunyoga mashhur bo‘lganini katta sahnalarga chiqayotgan yosh avlod vakillari mahoratida ko‘rinib turibdi, albatta. O‘zbekistonning buyuk opera xonandalari: M.Qori-Yoqubov, X.Nosirova, N.Axmedova, S.Qobulova, S.Yarashev, A.Azimov, N.Xoshimov, Q.Muhitdinovlar san‘at maktablarini bugungi kunda M.Razzoqova, N.Sultonov, A.Rajabov, R.Usmonov kabilar davom ettirmoqdalar.

1.2. Musiqiy lug‘aviy so‘zlar

MUSIQA (yun. mousiche — muzalar san‘ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag‘ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanat turi. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi mu-ayyan musiqiybadiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (mas, ko‘tarinkilik, shodlik, zavklanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va b.)ni o‘zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, Musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (kat‘iyatlik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik va b.)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari — Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari — Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabiy, tasavvuf arboblari — Imom G‘azoliy, Kalobodiy Buxoriy va b. tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta‘sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo‘lgan protsessual — muayyan jarayonli tabiati bilan bog‘liqsir. Musiqa asarlari mazmunida badiiy g‘oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o‘zaro munosabatlari (taqqoslanish, to‘qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko‘ra M. mazmuni ham turli — epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo‘lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo‘lgan lirika M. ning «botiniy» tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo‘lib, bunda ma‘lum xalq, jamiyat va tari-xiy davrga xos ruhiy tarovat, sur‘at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma‘naviy ma‘rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaktida inson faoliyatining ko‘pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o‘zaro etik va estetik ta‘sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini

shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

Nutq, tovushli signal berish va b. tovushli—ma'noli jarayonlar singari, musiqa ham muayyan ma'lumotlarni sadolar vositasida ifodalash imkoni-yatiga ega. Jumladan, tovushlarning baland-pastligi, ingichka-yo'g'onligi, uzunqisqaligi, kuchliligi va b. vositalar yordamida odamning ichki holatini ifodalash imkoniyati jihatidan Musiqa nutqqa (nutq intonatsiyalariga) o'xshaydi. Ammo, san'at turi sifatida Musiqa fakat ungagina xos bo'lgan xususiyatlar (mas, badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlashi, mazmun va shakl badiiy qiymat sifatida kasb etilishi, ayniqsa, Musiqa tovushlarining muayyan musika tizimlarida tashkil etilishi) bilan nutkdan farq qiladi. Xar bir alohida olingan Musiqa tovushi birlamchi ifodaviy imkoniyatga ega bo'lsada Musiqa tovushlarining baland-pastlik munosabatlari lad tuzilmalarida, muvaqqat nisbatlari esa — musiqiy ritm va metrda o'z aksini topadi. Dunyoning aksariyat xalqlari Musiqa madaniyati, jumladan, o'zbek musiqa folklori, an'anaviy musiqa va bastakorlik ijodiyotida lad asosini turli ko'rinishdagi diatonika tashkil etadi. Kompozitorlik Musiqada (ayniqsa, 20 – a. da rivoj toptan yo'nalishlarda) diatonika b-n birga xromatika ham keng o'rin olgan.

Musiqada asosiy badiiy vosita — kuy (melodiya)dir. Musiqaning ogzaki an'anadagi (monodiya) uslublarida kuy badiiy obrazning yagona va tugal musiqiy ifodasi hisoblanadi. Ko'p ovozi kompozitorlik yo'nalishlarda garmoniya, polifoniya unsurlari ham muhim o'rin egallaydi. Musiqa asaridagi kuy (mavzu)lar rivoji uning kompozitsiyasni (shakl)ni tashkil etadi. Musiqa shakli asar mazmunining moddiy tajassumi va vujudga kelish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Musiqa asarlari shakliga muntazam takrorlanuvchi tarkib va unsurlar xos bo'lib, bular badiiy mazmundagi o'zgaruvchanlik, harakatchanlik kabi xususiyatlarga ma'lum darajada ziddir. O'zaro aloqa va birlik doirasidagi bunday dialektik ziddiyatlar Musiqa asarini yaratish va ijro etish jarayonida hamisha xilma-xil ravishda o'z yechimini topadi. Turli xalqlar Musiqa madaniyati va an'alarida Musiqaning barkaror va beqaror unsurlarining o'zaro munosabatlari ham o'zgachadir. Mac, an'anaviylik mezoniga asoslangan og'zaki yo'nalishdagi Musiqa uslublarida muayyan badiiy mazmun, estetik qoidalar bilan birga Musiqa asarlari shakliga badixago'ylik xususiyatlari, nomusiqaviy (asarning ijro etish vaqti, joyi, sharoiti kabi) holatlar o'z ta'sirini o'tkazadi. Individual badiiy obrazlarni ifodalashga qaratilgan yozma an'anadagi kompozitorlik san'ati asarlari esa ko'proq aynan musiqiy rivojlanish qoidalariga, ya'ni tugallangan, yaxlit va barqaror shakllarga asoslanadi. Shuning uchun, kompozitorlik musikada mazkur shakllarni ifodalashga hamda obyektiv holatda saqlashda asosiy omil bo'lgan nota yozuvi mu-him o'rin tutadi.

Musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa egadir. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashklari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun Musiqa asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va b. sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Ashula, dastgoh, cholg'u kuy, maqom yo'llari, konsert, miniatyura, romans va b. da estetik ta'sir o'tkazish vazifalari asosiy o'rin tutadi. Janrlar, o'z navbatida, diniy mussha, yoshlar musikasi, maishiy musiq, ommaviy mussha, harbiy musika, kamer musiq, simfonik mussha, xor musikasi kabi Musiqa turlariga birlashadi. Tarixiy, milliy, mahalliy, shaxsiy (individual) Musiqa uslublari ham musiqiy tafakkur tarzi, ohang, ritm, shakl kabi musiqiy unsurlarni o'ziga qamrab olib, muayyan bir davr yoki milliy madaniyatga mansub bo'lgan turli janrdagi asarlar umumiyatini aks ettiradi (q. Avangardizm, Barokko, Klassitsizm, Og'zaki an'anadagi musika, Romantizm, Sentimentalizm).

Bastakor va kompozitorpar badiiy obrazlarni kengroq qamrashga intilishib, musiq va boshqa san'at turlari qorishmasi (sintezi)dan foydalani-shadi. Aniq tushunchaga ega bo'lgan so'z, sahna harakati, kino tasviri va b. unsurlar bilan qorishiq Musiqa asarining ifodaviy imkoniyatlari kengayadi (q. Vokal musikasi, Kino musikasi, Rake musikasi, Teatr musikasi). Musiqa, shuningdek, boshqa san'at turi va janrlarida ham muxim rol o'ynaydi. Mac, opera janrida, o'zbek musiqali dramasi va komediyasida xonandalik, xor san'ati xamda orkestr musiqaschnk drama b-n boglaydi. Balet va b. raqs shakllari ham uzining badiiy obrazlarini Musiqa yordamida ifodalaydi.

Insonning Musiqa faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash (uquv). Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli uzgacha kurinishga ega bo'ladi. Ijod bosqichida badiiy g'oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyokarashi, estetik tasav-vurlari, shaxsiy tajriba va maxrratiga mos ravishda uzgartiriladi. Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni uzlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shunday qilib, Musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega buladi.

Turli (kompozitorlik va og'zaki an'anadagi) uslublarda mussha ijrochiligi ahamiyati turlichadir. Professional yunalishdagi madaniyat tizimida Musiqa ko'pincha badiiy asarlarni ijro etadigan san'atkorlar faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun Musiqa ijrochi (sozanda, xonanda)larining aksariyati kompozitor va bastakorlarning haqiqiy hamkorlaridir. Ular ustoz-shogird munosabatlari jarayonida uzlashtirgan yoki nota yozuvi yordamida o'rgangan

asarlarni jonli ravishda tinglovchilar oldida talqin etadilar. Musiqiy folklor tizimida Musiqa namunalari omma ongining badiiy mahsuloti sifatida yuzaga kelib, havaskor qo‘shiqchi, sozanda yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Musiqa ijrochiligi mussha cholg‘ulari hamda inson ovozk vositasida amalga oshiriladi. Bular yakka tarzda, ansambl, xor, orkestr kabi birikma shakllarida namoyon buladi.

Musiqa ijodiyoti, ijrochiligi va tinglanishi Musiqa faoliyati ning boshka turlari — mas, musiqa tarbiyasi, musiqa ta’limi, i. t. (Musiqashunoslik), musiqiy tanqid va boshkalar bilan birga jamiyat Musiqa madaniyat i tizimini tashkil etadi.

Musiqa tarixi. Musiqaning paydo bo‘lishi masalasida turli ilmiy farazlar vujudga kelgan: hissiyotga to‘lgan nutq oxangi (G. Spenser), qushlarning sayrashi va hayvonlarning uz juftlarini chaqirishi (CH. Darvin), ibtidoiy odamlarning mehnat usullari (K. Byuxer) va ularning chaqiriq tovushlari (K. Shtumpf), jodu-sehrlash marosimlari (J. Kombarye) Musiqaning ilk manbalari hisoblanadi. Sharq muta-fakkirlari ham Musiqaning vujudga kelish muammosi haqida ilmiy mulohazalar qoldirishgan. Musiqa tarixini Forobiy inson nutqining shakllanish jarayoni va hissiyotlari b-n bevosita bog‘liq holda, Ibn Xaldun (14-a.) esa — ijtimoiy tizimlarning shakllanish krnuniyatlariga asoslangan xrla tushuntirishgan.

Zamonaviy musiqashunoslik fani arxeologiya va etn. ma’lumotlaridan kelib chiqib, Musiqa san’atini ibtidoiy jamiyatda insonning amaliy faoliyati jarayonida boshqa san’at turlari (rake, she’riyat va q. k.) bilan krrishma (sinkretik) holda paydo bulishini asoslab beradi. Bunda Musiqa ijtimoiy muloqot vositasi, mehnat va marosim jarayonlarini tashkil etish vositasi bulib xizmat qiladi va, ayni vaqtda, jamiyatga zarur axlokiyma’naviy xususiyatlarni tarbiyalash maqsadlarini kuzlaydi. Ibtidoiy davrning oxirgi bosqichida dastlabki qorishma san’at majmuasidan bir qancha san’at turlari, jumladan, Musiqa ham ajralib chiqadi. Ushbu davrga mansub afsonalarda Musiqa tabiatga, yovvoyi hayvonlarni o‘rgatishda ta’sir kursatish, insonni turli kasalliklardan davolovchi kuch sifatida ta’riflanadi (q. Alikambar, Ibtidoiy san’at, Mavsum ko‘shiklari, Marosim qo‘shiqlari).

Quldorlik va ilk feodal tuzumiga asoslangan qad. dunyo davlatlari — Misr, Shumer, Bobil, O‘rta Osiyo (taxm. mil. av. 1ming yillik davri), Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Rim madani-yatlarida kasbiy musiqachilar maktablari shakllangan. Ular maxsus (bastakorlik, musiqa ilmi kabi fandagi) bilim va qoidalarga asoslanib ijod qilgan. Natijada aytim, cholg‘u, raqs, doston va b. janrlar paydo bulgan.

Turli xil Musiqa asboblari (chang, ud, tanbur, lira, kifara, puflama va urma asboblari) takomillashtirilib, ular barqaror tovushqator va shakllarga ega bo‘lgan. Musiqaning ushbu davrda asosan og‘zaki an’anada rivojlanishiga qaramay, ayni vaqtda, uning ilk yozuv (iyeroglif, harfiy va b.) tizimi ixtiro etilgan, Musiqa estetikasi va nazariyasi ta’limotlari shakllangan: Xitoyda — Konfusiy,

Yunonistonda — Pifagor, Geraklit, Demokrit, Aristotel, Platon, Aristoksen va b., Oʻrta Osiyoda — Borbad.

Oʻrta asr Gʻarbiy Yevropada professional cherkov (bir ovozli grigorian xorali, keyinchalik koʻp ovozli xor va vokalcholgʻu janrlari — orga-num, kondukt va b.), dunyoviy (Fran-siyada — trubadurlar, truverlar; Germaniyada — minnezingerlar sanʼati) hamda xalq Mxi rivoj topadi. 12-a. da Fransiyada Bibi Maryam ibodatxonasida birinchi kompozitorlik maktabi (Notr-Dam maktabi), 14-a. da Fransiya va Italiyada «Are nova» uslubi yuzaga kelgan. Gvido d Aretsso ixtiro etgan toʻrt chizikli nota yozuvi tovush balandligi va nagʻmalar uzunligini aniq qayd etishga imkon yaratgan.

Ushbu davrda Oʻrta va Yaqin Sharq (Arab xalifaligi)da erkin rechitativ va parda tuzilmalariga asoslangan musulmon kasbiy Musiqa (azon, tartil, tajvid) janrlari shakllangan. Ular boshka Musiqa turlaridan mustaqil ravishda rivojlanib, keyinchalik Oʻn ikki makom tizimining shakllanishiga ham maʼlum darajada taʼsir koʻrsatgan. 8 — 13-a. lar musulmon Shark, xalqlari ogʻzaki anʼanadagi kasbiy Musiqasi doston (M. nazariyasida) yoki parda (sheʼriyat va Musiqa amaliyotida) tizimlari asosida shakllangan. Oʻrta Osiyo, Eron va arab xalqlari Musiqasida muttasil davom etgan oʻzaro taʼsir va aloqa jarayonlari natijasida ushbu xalqlar uchun umumiy boʻlgan vokal (savt, gʻino, amal, mulammo, qavl va b.) va cholgʻu (ravoshin, peshrav kabi) turlari vujudga kelgan. Mashhur bastakor, xonanda va sozandalar Ibrohim Mavsiliy, Ishoq Mavsiliy, Ziryob, Mansur Zalzal, Ibn Surayj, Ibn Axvas as-Soʻgʻdiy, Safiuddin al-Urmaviy va b. ijod qilgan. Musiqa ilmida ham muhim yutuqlarga erishilgan. Yunon Musiqa nazariyasi hamda mahalliy xalqlar Musiqa anʼanalariga asoslangan musiqiy estetika va ilmiynazariy taʼlimotlar dastlab mat. fanlari doirasida (al-Kindiy, Forobiy, Ibn Sino), keyinchalik mustaqil fan sifatida (Urmaviy) shakllangan. Ishoq Mavsiliy va Kindiy Sharqda ilk bor musiqa (harfiy) yozuvini ixtiro etishgan. Urmaviy esa ushbu yozuvni parda tizimiga moslashtirgan.

Uygʻonish davri Yevropa madaniyatida taraqqiy etgan insonparvarlik gʻoyalari va dunyoviy mazmunga asoslangan Musiqa sanʼatida badiiy-estetik maqsadlar asosiy vazifa darajasiga koʻtarildi, cholgʻu (lyutnya, viola) va vokal (madrigal) ijrochiligi rivoj topgan. Professional Musiqada polifoniya uslubi, jumladan, a kapella xor ijrochiligi (motet, messa va b. janrlar) oʻz choʻqqisiga koʻtarildi. Yangi kompozitorlik (Angliyada — D. Dansteybl, Niderland maktabi, Rimda — Palestrina, Vene-siyada — A. va J. Gabriyeli) maktablari shakllandi.

17—18-a. ning 1-yarmida yangi janrlar — opera (Italiyada — K. Monteverdi, A. Skarlatti; Fransiyada — J. B. Lyulli, J. B. Ramo; Angliyada — G. Pyorsell), oratoriya (G. F. Gendel), kantata (G. Shyuts, I. S. Bax), konsert (A.

Korelli, A. Vivaldi, I. S. Bax, Gendel), kamer ansambl, sonata (A. Korelli, D. Skarlatti), syuita va b. janrlar rivoj topgan. Organ (J. Freskobaldi, Bax, Gendel), klavesin (U. Byord, G. Pyorsell, F. Kuperen, J. Ramo) uchun asarlar yaratilgan. Ushbu davrda zamonaviy kamonli cholgʻu asboblari (skripka, alt, violonchel) ning buyuk ustalari A. va N. Amati, J. Gvarneri, A. Stradivari, fortepiano ixtirochisi B. Kristofori ijod etishgan, opera teatrlari, filarmoniyalar, musiqa nashriyotlari, musiqa taʼlimi (konser-vatoriyalar) rivoj topgan. 18-a. oʻrtalari — 19-a. ning boshida Yevropa Musiqasi Maʼrifatchilik davri hamda Buyuk Fransiya inqilobi gʻoyalari taʼsiri ostida rivojlangan (fransuz kompozitorlari K. Glyuk, L. Kerubini, J. F. Lesyuerlarning opera ijodi, Vena klassik maktabi vakillari ijodi, simfonizm musiqatafakkuri). 19-a. da rus (M. Glinka, «Qudratli tuda» vakillari, P. Chaykovskiy), polyak (F. Shopen, S. Monyushko), chek (B. Smetana, D. Dvorjak), venger (F. Erkel, F. List), norveg (E. Grig), ispan (I. Albenis, E. Granados), fin (Y. Sibelius) yangi milliy kompozitorlik maktablari shakllangan, yetakchi ijodiy oqim sifatida romantizm karor topgan (K. M. Veber, F. Shubert, R. Shuman, F. Mendelson, G. Berlioz, N. Paganini vab.). 20-a. M. tarixida alohida oʻrin tutadi. Musiqa madaniyatining barcha jabhalarida tub oʻzgarishlar yuz bergan. Ijodida yangi-yangi uslub va yoʻnalishlar (musiqiy avangardizm, modernizm) rivoj topgan. 20-a. da yuz bergan ilmiytexnik va informatsion inqiloblar (radio, televideniye, gramplastinka va magnit yozuvlarini ixtiro etish) natijasida Musiqaning tinglovchilarga yetkazish va eshitish sohalarida yangi imkoniyatlar paydo boʻldi. Buning natijasida ommabop musiqa madaniyati rivoj topdi. Kompozitorlik ijodida sof musiqiy (simfoniya, konsert, kamer-cholgʻu musiqa kabi) janrlar oʻrniga vokal Musiqasi, teatr Musiqasi, kino Musiqasi kabi «aralash» turlar yetakchilik qila boshladi. Kompozitorlik ijodi bilan birga anʼanaviy Musiqa ijodi ham yangi, zamonaviy sharoitlarga moslashib rivoj topdi. Jumladan, shark, mamlakatlari mumtoz Musiqa janrlari (mas, hind ragalari, pokiston qavalli, ozarbayjon mugʻom, oʻzbek va tojik maqomlari va h. k.) uzining milliy doiralaridan chiqib jahon sahnalarida ijro etila boshladi, kompozitorlik ham ommaviy Musiqa yoʻnalishlariga oʻz taʼsirini oʻtkazdi.

Oʻzbekistonda Musiqa, asosan, xalq va ogʻzaki anʼanadagi professional Musiqa sifatida qadimdan rivojlanib kelgan. Xalq Musiqa sidalapar, terma, yama, qoʻshiqlar turlari xillari (marosim, maishiy, mehnat, oʻyin, raqs, lirik, nasihatombuz va b.), ogʻzaki anʼanadagi oʻzbek professional Musiqasida esa doston, katta ashula, ashula, maqom, cholgʻu yoʻllari kabi janrlar mavjud. Oʻzbek Musiqa merosida 4 asosiy mahalliy uslubni farqlash mumkin (q. Buxoro-Samarqand musika uslubi, Xorazm musika uslubi, Fargʻona — Toshkent musika uslubi, Surxondaryo-Qashqadaryo muesa uslubi). 20-a. da oʻzbek va b. Oʻrta Osiyo xalqlari Musiqa

merosini yozib olish va o'rganish bo'yicha muhim ishlar bajarildi, yuzlab nota to'plamlari va i. t. lar nashr etildi. Bastakor, xrfiz va sozandalar o'zbek Musiqa merosi durdonalari (Shashmakom, Xorazm makomlari, Faryuna-Toshkent makom yo'llari va b.) ni keng targ'ib qilibgina qolmay, yangi cholg'u kuy va ashulalar yaratdilar, dastlabki musiqali drama va komediya asarlarining muallif yoki hammuallifi bo'lishdi. 1930—40 y. larda O'zbekistonda avvallari bo'lmagan yangi (opera, balet, simfonik Musiqa, kamer Musiqa, konsert kabi) Musiqa janrlari yuzaga keldi. Ular, ayniqsa, 1950—60 y. lardan boshlab O'zbekiston kompozitorlari ijodida keng rivoj topdi, shuningdek, ommaviy Musiqaning estrada musiqasi, yoshlar musiqasi kabi yo'nalishlari ham keng yoyilgan.

Musiqa ta'limi tizimi O'zR Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufida bulib, 311 bolalar musiqqa maktablari, 3 maxsus akademik litsey, 30 ga yaqin san'at, Musiqa hamda madaniyat kollejlari, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent davlat madaniyat in-ti, Musiqa Uyg'ur nomidagi san'at in-ti va b. oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi.

Hozirda O'zbekistonda Musiqa faoliyati asosan ijrochi jamoalar (turli orkestr, xor va ansambllar), «O'zbeknavo», Uzteleradiokompaniyasi tarkibidagi ijrochi guruxlar va yakkaxonlar, hamda mustaqil ravishda ijrochilik bilan shug'ullanayotgan ayrim xonanda va sozandalar tomonidan amalga oshirilmoqda.

(Musiqa san'atiga, shuningdek vokal yo'nalishi uchun lug'aviy so'zlar ushbu majmuaning oxirida keltirilgan)

1.3. Vokal san'ati rivojlanishining asosiy bosqichlari

Vokal san'ati rivojlanishining asosiy bosqichlari asosan, Qadimgi davr va o'rta asr xonandalik san'ati an'alaridan boshlanadi. Qadimgi davr va o'rta asr xonandalik an'analari xususida (jumladan, qadimgi Yunoniston, qadimgi Misr, Kichik Osiyo davlatlari, O'rta va Yaqin Sharq, shuningdek boshqa regionlarda) G.Abert, K.Zaks, J.Kombarye, V.Bagadurov, K.Mazurin, I.Nazarenko, K.Kuznetsov, M.Lvov va boshqa mualliflar tadqiqotlarida qimmatli, ilmiy diqqatga sazovor ma'lumotlar keltirilgan.

Sharq xalqlari san'ati nafaqat qadim tarixga ega, balki xalqning temperamenti, mentaliteti, psixologik xususiyatlari, uning qo'shiqchilik va qo'shiq kuylashga hissiy, ma'naviy jihatdan moyilligi, vokal-nutq madaniyatining xarakteri va mazmuni, adabiy-so'z lug'atining boyligi hamda uni xonandalikka mutanosib, qulay yoki noqulay tovushlarning mavjudligi kabi o'ziga xos jihatlarga ega.

Mintaqaning geografik joylashuvi, insonlarning ijtimoiy hayot sharoitlari va aniqrog'i tovush hosil qiluvchi apparatning tuzilishi muhim rol o'ynaydi.

Umuman, professional qo‘shiqchilikning rivojlanishi badiiy daraja, musiqiy-she‘riy madaniyatning janr-uslub xilma-xilligi, xalq, saroy va diniy musiqa ijrochiligi an‘analari, qo‘shiqchining ijtimoiy maqomi va professional qo‘shiqchilik maktablarining faoliyat yuritish sharoitiga bog‘liqdir.

XVI – XVII asr akademik xonandaligining Yevropa milliy maktablari shakllanishidagi yʻrni. Operaning vatani Italiya, ilhom parisi esa, dunyoga beqiyos haykaltaroshlik, rassomlik, adabiy ijod mahsullarini bergan, shaxs qadr-qimmatini kuylagan italyan Renessansidir. Davrning estetik ideali antik va saroy san‘ati, inson o‘y-xayollari, faoliyati, go‘zalligini aks ettiradi. Aql-idrok, uyg‘unlik, kuch-qudrat birlashib mukammallik tushunchasini ifodalaydi.

Xonandalik juda uzun evolyusiya yo‘lidan o‘tib, cherkov, saroy va xalq ijrochiligini eng sara jihatlarini olib, sayqallashtirgan holda diniy-axloqiy izlanishlarni, inson ichki dunyosining turli vaziyat va sharoitlardagi holatini yoritishga harakat qiladi. Bu xususiyat esa musiqani teatrona obrazlilikka yaqinlashtiradi.

Xonandalik san‘atining rivojiga ta‘sir ko‘rsatgan bir qancha omillar:

- Italyan qo‘shiqlari (barkarola, tarantella, sitsiliana, lirik qo‘shiq va boshqalar) o‘zining intonatsion, metroritmik, janr-uslubiy xilma-xilligi;

- o‘zining melodik – intonatsion, metro – ritmik, janr – uslubiy xilma – xilligi bilan mashhur italyan qo‘shiqlari («barkarolla», «tarantella», «lirik qo‘shiq», «yig‘i» va boshqalar); italyan xalqi musiqiy hayotining ajralmas qismi bo‘lmish xonandalikka bo‘lgan umumxalq muhabbati; nafaqat kuyning boyligi va matnning mazmuniga, balki kuy va ovozning go‘zalligi va badiiy bo‘yoqlariga bo‘lgan muhabbat;

- Xonandalikka juda mos va qulay bo‘lgan italyan tilining fonetik xususiyatlari (aniq artikulyatsiya, unilarning o‘zgarmas talaffuzi, murakkab tovushlar jamlanmalarining yo‘qligi, rezonatorni shakllanishiga tanglayning ko‘tarilishiga olib keladigan sonorlarning juftlanishi) kuylash jarayonida katta yordam bergan.

- Musiqiy so‘zga asosiy urg‘u beradigan, solistlar va musiqiy ansambl, xor jamoasi ijro etadigan uncha katta bo‘lmagan vokal nomerlari bor (may tomoshalari), xalq musiqiy-sahnaviy tomoshalari;

- Orkestr, balet, xor va yakkaxonlar ishtirokidagi diniy pastoral drama va komediyalar;

- Oddiydan murakkabga, ritm jihatidan bir xil sekin va «bosqichma-bosqich» rivojlanadigan unison kuydan polifonik to‘ldirishgacha (IX – XI a.), yuqori ovozning improvizatsiyasi (XII a.) qo‘shiqchidan maxsus malakalarni talab

qiladigan har bir vokal qatorini boyitadigan trel, forshlag, grupetto (XIV a.) largacha rivojlangan katolik cherkov qo'shiqlari;

- IX asrda paydo bo'lgan diniy sig'inishning ayrim qismlarini teatrlashtirish, liturgik drama sekin-asta yorqin musiqiy-sahnaviy ko'rinishga ega bo'la boshlashi, yakkaxonlikka turli xil cholg'ular jo'rliqi qo'shila boshlashi;

- XIV asrda mashhurlikka erishgan lyutna, viola, arfa, kichik organ jo'rliqidagi saroy musiqasi.

XV asrda nafaqat Italiyada balki Yevropaning barcha katolik davlatlarida Niderlandiya maktabining ko'povozli kontrapunkt keng tarqaladi. Cherkov musiqasi va kuy yo'lining rivojiga asoslangan holda ijrochilar oldiga bir qator professional talablar ko'ya boshladi. Ular ovoz hosil qilish va nafas, dinamika, tovush bo'yoqlari bilan bog'liq edi.

XVII – XVIII asrlarda keng rivoj topgan italyan operasi va ayniqsa kastratlar ijodida yuqori darajadagi mahoratga erishgan bel canto italyan opera jamoalari faoliyatini boshlagan Yevropa monarxlari saroylari va yirik feodal zodagonlar sahnalarida unib o'sdi. Yevropaning rivojlangan mamlakatlaridan taklif kilingan kompozitor, kapelmeyster, qo'shiqchi va cholg'uchilari tomonidan boshqariladigan jamoalar nafaqat opera san'atining ommaviylashuviga, balki xalqona asosdagi musiqiy teatr janrlarining paydo bo'lishiga hissa qo'shgan.

Davrning eng sara qo'shiqchilari qatorida – sopranolar Faustina Gasse Bordoni (1700 – 1781), Francheska Kudzoni (1700 – 1770), Lukretsiya Aguyari (1743 – 1783), Madlen Sofi Arnold (1744 – 1802); tenorlar Anton Raaf (1704 – 1797), Domeniko Ronkoni (1772 – 1839), Manuel del Popolo Visente Garsia (1775 – 1832); baritonlar Iogan Mixael Fogl (1759 – 1840); baslar Lyudvig Fisher (1745 – 1825), Anton Krutitskiy (1754 – 1803) vokal san'ati tarixida chuqur iz qoldirganlar.

Hozirgi kunda Vokal san'ati o'zining betakror ifodasi, boy imkoniyatlari, psixologik – hissiy ta'siri bilan hozirgi kunda ham insonlar qalbidan chuqur o'rin egallamoqda. Xonandalik san'ati faqatgina tarixiy ildizga emas, balki o'ziga xos chizgilar, nutq madaniyati, badiiy adabiyoti, ijrochilik an'analari, hamda kuylashga bo'lgan ishtiyoq va uni qabul qila olish kabi xususiyatlarga ega.

Kuylash – inson ichki his-tuyg'ularini to'liq ochib, namoyon etib beradigan yagona ifoda vositasidir. Ko'rinib turibdiki, har bir davrning, har bir millatning o'ziga xos kuylash (vokal) maktabi va an'analari mavjud.

Bugungi kunga kelib vokal san'ati rivojlanib, badiiy ijro darajasini shakllanib ulgurganiga qaramay, hozirda ham klassik bel canto ana'alariga tayangan holda yuksalib kelmoqda.

Zamonaviy opera ijrochisi – faqatgina aktyor – xonanda emas, balki professional darajadagi inson ichki tuyg'ularini namoyon etib bera oladigan, muallif

va postanovkachilar fikrlariga tayanib qolmasdan o'zining dunyoqarashi, madaniyati bilan o'z faoliyatini yorqin ko'rsatib bera oladigan ijodkor hamdir.

Xonandalik san'ati tarixini o'rganish jarayonida bu sohani naqadar keng qamrovli va chuqur ildizga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Bu ishni to'liq o'rganib, yoritib berish uchun kelajakda yana ham ko'proq izlanishlar va tadqiqotlar olib borilishi lozim.

Nazorat savollari

1. Vokal san'at sohasi faoliyati deganda nimani tushunasiz?
2. Faoliyatni rejalashtirish haqida nimalarni bilasiz?
3. Sohani to'g'ri tashkil etish yo'llarini aytib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

7. Gozenpud A. Muzikalniy teatr v Rossii. Ot istokov do Glinki. - L., 1959.
8. Gozenpud A. Russkiy operniy teatr XIX veka: 1879-1889.- L., 1973.
10. Gozenpud A. Russkiy operniy teatr (1917-1941). Ocherk istorii. - L., 1963.
11. Dmitriyev L. Osnovi vokalnoy metodiki.- M., 1963.
12. Dolivo A. Zametki ob istokax russkoy klassicheskoy i sovetskoy vokalnoy shkoli // O muzikalnom ispolnitelstve. - M., 1954.
13. Durilin S. Rixard Vagner i RossiY. - M., 1913.
14. Zdanovich A. Nekotoriye voprosi vokalnoy metodiki. - M., 1965.
15. Zdanovich A. Nekotoriye voprosi vospitaniya pevsa i yego golosa: Diss ... kand. iskusstv. - Saratov, 1950.
16. Kantarovich A. Kultura vokalnogo slova. - M., 1957.
17. Kaplan E. Jizn v muzikalnom teatre. - L., 1969.
18. Karasev A. Metodika peniY. - V 2 ch. SPB, 1914.
19. Komissarskaya M. Sovremennaya sovetskaya opera. - M., 1971.
20. Kochetov N. Vokalnaya texnika i yeyo znachenije. - M., 1930.
21. Kuznetsov K. Muzikalno-istoricheskije portreti. - M.: Muzgiz, 1937.
22. Levik M. Istoriya zarubejnoj muziki. - M., 1963.
23. Lemeshev Livanova T. Istoriya zapadno-yevropeyskoy muziki do 1789 goda. - t. 1. - M.: Muzika, 1983.

2-mavzu: Zamonaviy metroritmik modellar. Yakka, ansambl va xor ko‘rinishdagi vokal ijrochiligi. Tovush gigiyenasi asoslari. Ovoz yozish studiyalarining ishlash tamoyillari.

Reja:

- 2.1. Zamonaviy metroritmik modellar haqida tushuncha.
- 2.2. Yakka, ansambl va xor ko‘rinishdagi vokal ijrochiligi. Tovush gigiyenasi asoslari.
- 2.3. Ovoz yozish studiyalarining ishlash tamoyillari.
- 2.4. Vokal san‘atida stilistik yo‘nalishlar. Milliy va zamonaviy kuylash uslublari
- 2.5. Vokal ijrochiligida badiyhaviylik (improvizatsiya) texnikasi

***Tayanch iboralar:** metroritmik modellar, tovush gigiyenasi, yakka ko‘rinishidagi vokal ijrochiligi, ansambl ko‘rinishidagi vokal ijrochiligi, xor ko‘rinishidagi vokal ijrochiligi, stilistik yo‘nalishlar, badiyhaviylik.*

2.1. Zamonaviy metroritmik modellar haqida tushuncha.

Musiqani ijro etishda ham, uni qabul qilishda ham har xil harakatlar yuzaga keladi. Badanni chayqash, qo‘l bilan yoki oyoq bilan kuchli urishni urish, ovoz bilan qo‘shiq kuylash - bularning barchasi metrik va ritmik pulsatsiya ajralib turadigan musiqiy tajribaning motorli tabiatining namoyonidir.

Metroritmik sezgilar qo‘llab-quvvatlovchi va qo‘llab-quvvatlamaydigan tovushlarning uzluksiz almashinuvi bilan bog‘liq. Kuchli va kuchsiz zarbalarning bunday o‘zgarishi hayot va dam olish davrlarining davriy almashinuvi bilan bog‘liq bo‘lgan hayotning umumiy jarayonlarining aksidir. Hayotda taranglik har doim gevşeme bilan kuzatiladi, faollikning ko‘tarilishi uning pasayishiga olib keladi. Tirik organning ish tsikli ishlaydigan mushaklar yoki hujayralar dam olayotgan faol davr va harakatsizlik davridan iborat. Yuragimiz dam olish bilan shunday uradi, o‘pkamiz shunday ishlaydi, uxlash va bedorlik shunday o‘zgaradi. "Fazo va vaqt materiya bilan to‘la, abadiy ritm qonunlariga bo‘ysunadi", - degan mashhur frantsuz ritm o‘qituvchisi E. Jak-Dalkroz.

Ritmik hislar turli xil davomiyliklarning almashinishini o‘z ichiga oladi, ular o‘zlarining mavjudligi bilan o‘lchangan metrik harakatni kichikroq impulslar bilan to‘ldirganday tuyuladi. Keyinchalik, ritm haqida gapirganda, biz musiqachilarning kundalik amaliyotida bo‘lgani kabi, umuman metro-ritmik hislarni yodda tutamiz. Uning ko‘p qirraliligi tufayli musiqa ixlosmandlari orasida ritm tuyg‘usi baland

ovozda eshitishdan ko'ra ancha keng tarqalgan. Biroq, ritmning tabiiy sezgisi etarli bo'lmagan taqdirda, u o'zini rivojlanish uchun katta qiyinchiliklar bilan qarz beradi.

Musiqiy asbobni tartibsiz ijro etishning kamida uchta sababi bor.

1. Ijrochining markaziy asab tizimidagi qo'zg'alish jarayonlarida umumiy muvozanatning yo'qligi. Bunday qonunbuzarlikning ko'rsatkichlaridan biri bu harflarning uslubi bo'yicha bir xil imloga ega bo'lmaganligi va bir-biri bilan noto'g'ri yozishmalarda bo'lganligi sababli, raqsga tushganda, xatning qo'lyozmasi bo'lishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan jarayonlarni buzgan holda, tana va uning alohida qismlari harakatlari betartiblik, keraksiz aniqlik, burchaklilik xususiyatiga ega bo'ladi.

2. Qo'l va barmoqlarda muvofiqlashtirishning etishmasligi, ulardagi asab tolalari bo'ylab ritmik impulslar oqimini to'sqinliksiz va to'sqinlik qilmaydigan keraksiz mushak qisqichlari mavjudligi.

3. O'ynashda intizomning etishmasligi va musiqiy va auditoriya chiqishlarining ritmik asoslarining zaifligi. "Ko'p pianistlarning o'ynashi mast odamning yurishiga o'xshaydi", dedi G. Noyxaus shogirdlariga. Ritm tuyg'usi orkestrda va ansamblda o'ynash mahoratiga ega bo'lgan musiqachilar orasida ancha yaxshi rivojlangan, bundan ham yomoni - ba'zi pianistlar orasida, ayniqsa fortepianoda "his-tuyg'ular g'alayoni" ga rioya qilmasdan musiqa ijrochilari orasida. ritm. Ritmning o'zi kuchli ta'sirchan hissiy vosita bo'lishi mumkin. "Har qanday insonning ishtiyoqi, holati, tajribasi, - dedi Stanislavskiy, - o'ziga xos temp-ritmga ega".

Ritm tuyg'usini rivojlantirish bir vaqtning o'zida ikkala tomondan ham ketishi mumkin.

Tashqi tomondan, bu sizning ishlashingizni dirijyor, o'qituvchi yoki metronomaning urish harakati bilan o'rnatilgan metronom ritmiga moslashtirish qobiliyatidir.

Ichkaridan - tuyg'u orqali musiqa asarining ritmik chizig'iga kirib, uning so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan va faqat sezilishi mumkin bo'lgan jonli pulsini tushungan holda.

Musiqachining eng muhim kasbiy mahoratlaridan biri bu metrli aniq va ritmik bir tekis ijro etishdir. Metro-ritmik pulsatsiyaning bir xilligi yosh musiqachining har bir texnik mashg'ulotiga singib ketishi kerak va agar bu erda beparvolikka yo'l qo'yilsa, havaskorlikning istalmagan teginishini o'yinga kiritish xavfi mavjud. Ritm tuyg'usini rivojlantirishga arifmetik og'zaki hisoblash, aksent bilan o'ynash, ijro paytida dirijyor to'lqini hissi yordam beradi, buning yordamida uzoqroq va katta hajmdagi metro-ritmik konstruksiyalar tushuniladi va tushuniladi.

"Hisoblash bebahodir, - ta'kidladi Hoffmann, - chunki u ritm tuyg'usini hamma narsadan yaxshiroq rivojlantiradi va kuchaytiradi". Dirijyor - bu musiqa o'qituvchilari tomonidan keng qo'llaniladigan yana bir usuldir. "Men talabalarga, - deb yozgan Noyxaus, - musiqa stendiga yozuvlar qo'yishni va asarni boshidan oxirigacha boshqarishni qat'iy tavsiya qilaman - go'yo boshqasi xayoliy pianist chalayotgandek va dirijyor unga o'z irodasi bilan ilhom berayotgandek... ”

Tsyppingning tavsiyasiga binoan talabalarning odatdagi nogironligi bo'lgan tempdagi nuqsonlarni (tezlashish, sekinlashuv, umuman harakatda beqarorlik) bartaraf etish mumkin: talaba biron bir asarni ijro etishda sun'iy to'xtab, baland ovozda va aniq hisoblaydi. ikki yoki uchta bo'sh bar, so'ngra o'yinni qayta boshlaydi. Ritm tuyg'usini rivojlantirishning boshqa usullari qatorida bir vaqtning o'zida kuyni kuylash bilan metro-ritmik tuzilmalarni qo'l bilan qarsak chalish o'zini isbotladi; dirijyorning imo-ishorasi shaklida o'qituvchi tomonidan boshqariladigan harakatlar shu jumladandir.

2.2. Yakka, ansambl va xor ko'rinishdagi vokal ijrochiligi. Tovush gigiyenasi asoslari

Vokal ta'limi – musiqa san'atining, xususan, badiiy ijodning o'ziga xos turi bo'lib, eng avvalo, kuylash mahoratini yuksak darajada o'zlashtirishga asoslanadi hamda o'zining yorqin ifodalangan xususiyati, o'qitilishining ko'proq individual xarakterga egaligi, hissiyotlar va badiiy obrazlar dunyosiga, insonning ma'naviyestetik sohalariga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Musiqa san'ati inson tafakkurining alohida mahsuli bo'lib, uning mazmun va mohiyati asar bilan bevosita muloqotda, ya'ni uning jaranglovchi ohangini o'zlashtirish jarayonidagina namoyon bo'ladi. Musiqa mazmunini (musiqiy obrazni) eshita bilish va hissiy kechinmalari asosida o'zlashtirish – musiqa idrokidir. Musiqani idrok qilish – mukammal psixologik jarayon. Uning o'zagida eshitish qobiliyati, musiqa mazmunini badiiy obrazlarda aks etishini tushunish, asarning janr xususiyatlarini o'zlashtirish, badiiy fikrlash va tahlil qilish yotadi. Musiqiy asar olamiga “kirib borish”, musiqa kayfiyatini his etish, g'oyasini tushunib yetish tinglovchining o'ziga xos ijodiy faoliyati tufayli ro'y beradi. Musiqa uning o'zigagina xos bo'lgan ifoda vositalarning – ladogarmonik tuzilish, tembr, temp, metroritm, dinamikalarning kompleks ta'siri ostida idrok qilinarkan, bu ifoda vositalari asarning kayfiyati, go'zalligi, mazmuni va g'oyasini tinglovchiga yetkazib beradi. Ammo musiqani tushunish, ya'ni uni nafaqat hissiy qabul qilish, balki ong bilan ham tushunish, musiqa nimani ifodalayotganligi va qanday ifodalayotganligini his etish, musiqa bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj sezish insondan badiiy saviya, musiqiy, hayotiy

tajriba talab etadi. Shuning uchun musiqashunoslar musiqa tinglash aqlning kuchli faoliyati va o'ziga xos ijoddur deb ta'kidlaydilar. Musiqani ongli idrok etish va bilish o'z navbatida asarni badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishini ta'min etadi. Shuni unutmaslik lozimki, diqqat, qiziqish va ongli ravishda o'rganilgan vokal asari ohangi va tinglangan musiqa kuyi, garchi u vaqti-vaqti bilan takrorlanib turilmasa ham, xotirada uzoq vaqt muhrlanib qoladi. Bunda ijrochilik malakalari badiiy vazifalarga, ya'ni musiqiy asar obrazi, kayfiyatining yorqin, ifodali yoritilishiga qaratilgan bo'lishi talab etiladi. Bunda musiqiy asarning badiiy ijrosiga erishish maqsad bo'lib, malaka va ko'nikmalarni egallash shu maqsadga yetishishda vositadir.

Bu tamoyillar ijrochida musiqiy qobiliyatlarni, musiqaga qiziqishni, did va musiqa madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Musiqiy qobiliyatlar, ularning turlari, maxsus (ijrochilik, bastakorlik) va umumiy musiqiy qobiliyatlar, ularning rivojlanish shart-sharoitlari masalalari ko'plab psixolog (B.Teplov, V.Myasishev, B.Yavorskiy, V.Petrushin va h.z.), pedagoglar (L.Barenboym, V.Beloborodova, Y.Aliyev, N.Vetlugina) musiqashunoslar (B.Asafyev, A.Alekseyev va b.) tomonidan keng o'rganib chiqilgan. Mutaxassislar musiqiy eshituv, ritm hissi, musiqiy xotirani musiqiy qobiliyatlarning asosiy ko'rinishlari deb belgilaydilar. Musiqiy eshituv qobiliyati – bu tovushning baland-pastligi, kuchi, tembri va davomiyligini his etishdir. Musiqiy ritm tuyg'usi – musiqadagi vaqt-o'lchovli harakatni, uning ifodaviyligini his etish, aniq ijro etish qobiliyatidir. Musiqiy xotira – bu musiqiy asarni tez va uzoq vaqt yodda eslab qolish qobiliyati. Bu qobiliyatlar umumlashma nom bilan musiqiy pedagogika amaliyotida musiqiylik deb ham yuritiladi. Ammo musiqiylik 3 ta qobiliyat bilan cheklanmaydi. Musiqiylikning asosini musiqadagi ifodaviy mazmun, obrazni tushuna olish, unga hissiy munosabat ko'rsata olish qobiliyatlari ham hosil qiladi. Shu nuqtai nazardan zamonaviy vokal ta'limi metodikasi talabalarda musiqa va musiqa haqidagi bilimlar, yirik shakldagi musiqa asarlarini hissiy ongli idrok etish malakalarini shakllantirish, hissiy va musiqiy tajribalarni boyitish, dunyoqarashni kengaytirish kabi vazifalarga alohida e'tibor qaratishni taqazo etadi. Mazkur malaka va ko'nikmalarning shakllanishi bo'lajak aktyor ongining muayyan rivojlanishi jarayonini talab etadi. Talabning musiqa idroki qobiliyati bu darajaga yetishi uchun u musiqiy bilim, malaka va ko'nikmalarni ongli ravishda o'zlashtirishi lozim. Ammo bu o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Buning uchun vokal mashg'ulotlarida tizimlilik va davomiylik, badiiylik va texnikaning birligi, tafovutli taqqoslash kabi tamoyillarini qo'llagan holda talabning o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirishi, bilish jarayonining faolligini vujudga keltirish lozim. Musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy-estetik zavqlanish uchun mazkur asarni idrok etishga talaba –

aktyorning, eng avvalo, diqqat-e'tiborini jalb eta bilish va unda qiziqish uyg'ota bilish shart. Buning uchun talabalar repertuariga kiritilgan asarlar badiiy jihatdan yetuk, yorqin obrazli, qiziqarli hamda yoshlarga mazmunan yaqin, ularning ichki ehtiyojlariga javob bera oladigan bo'lishi lozim. Talabada musiqiy idrokni rivojlantirishda sahnaviy musiqa asarlari – opera, operetta, musiqali drama va komediya muhim o'rin tutadi.

Ansambllarni tashkil etish va uni boshqarish uchun rahbar o'zbek xalq cholg'u asboblarning tarixi, ularning ijro imkoniyatlari, diapazoni, shtrixlari, ansambldagi vazifasi va o'rnini yaxshi bilishidan tashqari, xalq cholg'ularidan birortasini mukammal egallagan bo'lishi foydadan xoli bo'lmaydi. Rahbar ansambl a'zolariga o'rgatadigan asarini xalq cholg'u asbobida chalib berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mashg'ulot boshlashdan oldin cholg'ularning soziga e'tibor qaratish lozim. Cholg'u asboblarni kamerton yoki nay cholg'usiga sozlash tavsiya etiladi. Har bir cholg'u o'z shakli va konstruksiyasiga ega, hamda ijro uslublari turlichadir. Ijrochining texnikasini shakllantirish asosida qo'l va barmoqlar harakati yotadi. Masalan, chang cholg'usida ijro texnikasini shakllantirishda barmoqlar tezkorligi ustida ishlashning keragi yo'q. Doira ijrochiligida esa, aksincha, qo'l harakatlari boshqa ko'rinishda bo'ladi. Mizrobli cholg'ular ijrochiligida chap qo'l barmoqlarining harakati gorizontali ko'rinishda, kamonli cholg'ular ijrochiligida esa vertikal ko'rinish kasb etadi. Har bir cholg'uning ijro imkoniyatlari, uning ijrodagi o'rnini haqida ansambl a'zolari tasavvurga ega bo'lishlari asar ijrosida katta samara beradi. Ansambl qatnashchilarining to'g'ri joylashishini, o'tirishini, musiqa asbobini to'g'ri ushlashini, chiroyli tovush hosil qilishini, shtrixlar, dinamik belgilarga e'tibor qilishini kuzatish va o'z navbatida xatolarni tuzatib borish rahbarning asosiy vazifalaridan biridir. Rahbar jamoa qatnashchilarining ma'naviy-ma'rifiy, estetik tarbiyasiga katta e'tibor berishi, odob - axloq qoidalari asosida o'z qobiliyatlarini takomillashtirib borishlarini kuzatib, ularga ko'maklashib bormog'i darkor. Qatnashchilarning umumiy sonidan qat'i nazar, intizomning mustahkam bo'lishi uchun ba'zi qatnashchilar mashg'ulotga kelmagan bo'lsa ham, jamoa o'z mashqlarini belgilangan vaqtda, boshlashi yaxshi samara beradi. Rahbar ansamblga o'rgatadigan asarini mukammal bilishi, uning yaratilish tarixi va boshqa kerakli ma'lumotlar, jumladan, o'lchovi, usuli, dinamik belgilari, asarnig bastakori haqida tushuncha berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ma'lumotlar qatnashchilarga chalinayotgan asar haqida tasavvur hosil qilishiga yordam beradi.

Shuningdek, rahbar ijrochilik mahoratiga aloqador vazifalarni aniq belgilab berib, uning bajarilishini qat'iy talab qilishi lozim. Berilgan vazifalarning bajarilishini to'g'ri talab qilish, ijodiy birlik, muvaffaqiyatli ijro garovidir. Rahbar ansambl qatnashchilari bilan muomala qilishda, albatta, o'z uslubini topishi kerak.

Mashg'ulot vaqtida ijrochilardan birortasi adashib ketib noto'g'ri chalsa, ansamblni to'xtatib qo'yib unga tanbeh berish noo'rin, balki ijro vaqtida ishora yoki so'z bilan uning diqqatini jalb qilishi va qilgan xatosini yaxshi muomala bilan tushuntirishi lozim. Asarning yaxshi ijrosi har bir cholg'uchining kayfiyatiga ham 17 bog'liq bo'ladi. Ansambl ishtirokchilaridan birortasining kayfiyati yomon bo'lsa, qolgan ishtirokchilarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Asar tanlashda ham rahbar ansambl ishtirokchilarining qobiliyatlarini inobatga olsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'lumki, har bir cholg'uchi o'ziga xos, bir-biriga o'xshamaydigan musiqiy his-tuygularga ega. Rahbar ana shu his-tuyg'ulardan ham foydalanishi mumkin. Asar haqida, asarning qaysi bolaligi, taktida qochirim, bezak, nola ishlatish lozimligi to'g'risida qatnashchilar fikrini bilib, yagona bir qarorga kelishi va ansambl qatnashchilariga bu qarorga kelish sabablarini tushuntira bilishi lozim.

Xor – bu qo'shiqni, musiqani cholg'u jo'rligida yoki jo'rsiz, ya'ni a capella ijro etuvchi jamoa. Xor san'ati tarixi asosan Yevropada vujudga keldi va bunda akademik yo'nalishda kuylandi. Yevropa xor san'atining O'zbekiston hududida paydo bo'lishi va rivojlanishi unisonlikdan ko'povozli xor san'atiga zamin yaratdi. Mamlakatimiz musiqaga ixtisoslashgan ta'lim muassasalarida "Xor sinfi", ya'ni jamoa qo'shiqchiligi fanlarini o'rganishga hozirda katta e'tibor berilmoqda. "Xor sinfi" fani talabalarga semestrlarda qo'shiq, jo'rsiz, yirik janrlar shaklida yozilgan o'zbek, qardosh, chet el kompozitorlarining nodir vokal-xor asarlari bilan tanishtirish hamda professional uslubda kuylash malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mutaxassislik fanlari orasida "Xor sinfi" fani asosiy fan bo'lib dars jarayonida talabalarning nafaqat vokal-xor ijrochilik qobiliyati rivojlantirib boriladi, balki ularni ma'naviy, badiiy-estetik tarbiyalaydi. "Xor sinfi" fanining asosiy maqsadi xor ijrochiligi nazariy asosi, vokal-xor ko'nikmasi, soz va garmonik akkordlar sofligi, nafas malakalari, guruhlararo ovozlari uyg'unligi, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik malakalari kabilardan iborat bo'ladi. Yosh avlodning musiqiy-estetik tarbiyasi bilan shug'ullanish, shu tariqa talabalarning bevosita musiqiy qobiliyatini rivojlantirish ham fanning maqsadlaridir. Hozirgi davr ta'lim tizimida yuksak malakali, kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli kadrlarni tayyorlashdan iborat. Ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash, ma'naviy-madaniy qadriyatlarni mustahkamlash, yosh avlodni milliy meros, tarixiy an'analarga hurmat, Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Aynan xor fani ushbu talablarni bajarishga yo'naltiriladi. "Xor sinfi" fanidan darslarda talaba quyidagilarni o'zlashtiradi: – to'g'ri tovush hosil qilishni; – vokal-xor san'ati tarixi haqidagi bilimni; – nafas va zanjir nafasda kuylash malakalarini; – ovoz mashqlarini ijro

etishni; kuylash yo‘llari: – legato, non legato va stakkato; ritmik to‘g‘ri kuylashni; – talaffuz ustida ishlashni; – dinamik nyuanslarda kuylashni; – musiqiy jummalarning garmonik akkordlarini his etishni; – umumiy xor ansamblida kuylashni; – jamoa bo‘lib kuylash holatlarini; – musiqiy tovush sozi va sofligi; – a kapella asarlarini kuylashni; – xor sozini tinglay bilishni, jo‘rli asarlarni kuylashni; – musiqiy asarlarni intonatsion sof ijro etishni; – asarlar mualliflari haqida ma‘lumotlarni bilishni; – akademik xor yo‘nalishidagi asarlarning tonalligini aniqlashni; – xonandalar xor ijrochiligining o‘zaro ta‘sirini; – ijro mahoratini oshirish usullarini; – ko‘p ovozli ansamblarda kuylashni; – yakka va jamoa ijrochiligining o‘zaro uyg‘unligini; – yakkaxon va xor ijrochisi sifatida kuylashni; – sahna madaniyatiga rioya qilishni; fonotekadan va audio yozuvlardan samarali foydalanishni; – xor jamoasi rahbari sifatida jamoani boshqarishni; – rahbar ko‘rsatmasiga amal qilishni; – asarlarning badiiy-musiqiy obrazlari ustida ishlash kabilarni o‘rganadi. Talabalarda xorda to‘g‘ri tovush hosil qila bilish, kuylash, unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz ijro eta bilish, diksiya, dirijyorning qo‘l harakatlarini tushunib kuylash kabi ko‘nikmalar takomillashtirib boriladi.

Xor ijrochiligida a capella, motet, madrigal, messa, syuita, kantata va oratopiya singari qator janrlari mavjud. Acapella – italyancha so‘z bo‘lib, cholg‘u asboblari jo‘rligisiz xor bo‘lib kuylash ma‘nosini anglatadi, bu xor ijrochiligining eng yuqori cho‘qqisi hisoblanadi. Xor kuylash san‘ati – a capella uslubi yuksalishi XV – XVI asrlarda polifoniyachi – kompozitorlar (J.Palestrina, O.Lasso, K.Janeken) ijodiyoti bilan bog‘liq.

2.3. Ovoz yozish studiyalarining ishlash tamoyillari.

Zamonaviy studiyalar, qoidaga ko‘ra, o‘zida quyidagilarga ega: studiya xonasi (musiqa va ovozni ijrosi va yozib olish uchun, unda mikrofon va ijrochilar joylashadi); nazorat xonasi, unda ovozni yozish va unga ishlov beruvchi asosiy texnik vositalar o‘rnatiladi (miksher pultlari, nazorat agregatlari, ishchi kompyuter stansiyasi va boshqalar) va unda ovoz rejissyori ish joyi joylashadi; texnik apparatxonasi, unda ba‘zi bir texnik vositalar, ya‘ni kuchaytirgichlar jamlanmasi va boshqalar joylashtiriladi. Barcha studiyalarni quyidagi sinflarga bo‘lish mumkin:

- qo‘llanishi bo‘yicha - ovoz yozish studiyasi, radioeshittirish va televizion ovoz studiyalari, tonal va kinostudiya va boshkalar:

- ovoz yozish ko‘rinishi bo‘yicha — katta musiqali, kamer, adabiy — dramatik, suhandon;

- ijrochilar soni bo‘yicha, ya‘ni hajmi bo‘yicha — katta, o‘rta, kichik va boshqalar.

Boshqa parametrlari bo'yicha ham studiyalar sinflarga bo'linishi mumkin. Musiqani yozish uchun studiyaning obyektiv akustik parametrlari konsert zallariga qo'yilgan talablariga asosan tanlanadi. Birinchi ovoz yozish studiyalari radiouyi va telemarkazlarda konsert zallari kabi qurilgan, unda sinfonik orkestrlarni yozish imkoniyati bo'lgan. Studiyalarda barcha talablar bajarilishi shart, ya'ni turli chastotalar diapazonida optimal reverberatsiya vaqti, ovoz maydonining bir xillik strukturasi, talab etilgan shovqin sathi, hamda musqali va ovoz dasturlarini eshitishdagi zarur boshqa obyektiv parametrlar.

Ko'picha bitta studiya ovoz, turli janrdagi musiqa yozish uchun foydalaniladi, shuning uchun akustik sharoitni shularga moslashtirish imkoniyati nazarga olinishi kerak.

Zarur parametrlarni ta'minlash uchun, eng avvalo optimal reverberatsiya vaqti uchun, studiyani razmeriga, formasiga cheklovlar qo'yiladi. Ushbu talablar 1-jadvalda keltirilgan.

Studiya	Maydoni m²	Balandli gi	Optimal reverberatsiya vaqti	Ijrochilar soni
Ochiq konsert dasturlari uchun tomoshabinlar bilan	1000	14	2-2,2	250-500
Katta musiqali simfonik orkestr va xorlar uchun tomoshabinlar bilan	1000	13	2	250
Katta musiqali simfonik orkestr va xorlar uchun tomoshabinlarsiz	750	12	2	150
O'rta musiqali simfonik orkestrlar uchun	350-450	8,5-10	1.5-1,7	40-65
Estrada va jaz musiqasi uchun	350-450	9,5-10	0,9-1,1	35-60
Kichik musiqali katta bo'lmagan orkestr va xorlar uchun	250-300	8-8,3	0,9-1,1	30-35

Kamernaya studiya	150	6	1	10-15
Katta adabiy - dramatik	150-200	6-6,4	0,8-1	20-30
O'rta adabiy - dramatik	100	5	0,5-0,7	10-15
Suhandon	26-30	3,2-3,5	0,4	2-4

Studiyaning ovozlash tirish tizimini tanlashda quyidagilarga ahamiyat berish zarur:

- studiyaning belgilanishi;
- studiyaning chiziqli o'lchamlari.

Shulardan kelib chiqqan holda studiya ko'p maqsadli va o'lchamlari yetarlicha katta. Bu markazlashtirilgan tizimning qo'llash mumkinligini bildiradi. Bunda bir xil tovush maydoni hosil qilish maqsadida o'tkir xarakteristika yo'nalganligiga ega bo'lgan tovush kolonkalarini olish va ularni akustik markazidan yetarlicha balandlikda o'rnatish kerak. Ammo biz ko'rayotgan misolda berilgan to'g'ri tovush maydon sathi notekisligi $DN_{To'G'ri} = 6 \text{ dB}$ va ko'rish va eshitish obrazlari mosligini

ta'minlash zarurati bo'lganligi uchun ikki qator kam quvvatli tovush kolonkalaridan iborat taqsimlangan ovozlash tirish tizimini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Hisoblangan o'rnatish qadami, zaruriy tovush maydoni sathi, uning belgilangan notekisligi, yangroqlik uzviyligi, nutq aniqligini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun kolonkalar zanjiri qadamini 4m tanlab olamiz. Har bir tovush kolonka zanjiri zalning yarmini ta'minlaydi.

Studiyaning boshqa nuqtalarida tovush bosimi bu qiymatdan farqli bo'ladi.

2.4. Vokal san'atida stilistik yo'nalishlar. Milliy va zamonaviy kuylash uslublari

Vokal san'atida stilistik yo'nalishlar akademik ijrochilik yo'lida ham shakllangan. G'arbiy Yevropa, Fransiya, Nemis, Rus, O'zbekiston vokal san'ati o'z tarixiga ega.

G'arbiy Yevropa vokal san'ati tarixi. G'arbiy Yevropa vokal san'atining tarixi Italiyalik milliy vokal maktabi. Ilk opera mualliflari. XVI-XVIII asrlarda Italiyadagi florensiyalik, neapoletan, venetsian opera va vokal maktablari. XV-XX asrlarda italyan vokal pedagogikasi. A.Skarlatti - Bel canto asoschisi. J.Verdining ijodi-

milliy opera maktabining cho‘qqisi. Buyuk xonandalar: V.Arkili, J.Rubini, J.Pasta, A.Patti, F.Tamanyo, M.Kallas, R.Tebaldi, Mario del Monako va boshqalar.

Fransiya vokal san’ati tarixi. Fransuz milliy vokal maktabining tuzilishi va rivojlanishi. J.Lyulli lirik tragediyalarning yaratuvchisi. Operada rechitativ o‘rni. X.Glyukning opera reformasi. Uning qo‘shiqchilarga talablari. Katta fransuz operasining shakllanishi asoslari. F.Ober, D.Meyerber-yangi janr yaratuvchilari. Fransuz vokal pedagogikasi. Fransuz opera ijrochilari: A.Nurri, J.Dyupre, M.Malibran, P.Viardo.

Nemis milliy vokal maktabi. Nemis opera yaratilishi va uning rivojlanishi. G.Shyuts - birinchi nemis opera bastakori. Gamburg operasi, Realistik opera dramaturgiya yaratilishida V.Motsart ijodining ahamiyati. K.M.Veber ijodida nemis milliy operasining tasdiqlanishi. Nemis vokal pedagogikasining asoschisi; pedagogika rivojlanishi. Nemis buyuk opera xonandalari: A.Lange, I. Xofer, I.Shikoneder, A.Godlib.

Rus vokal san’ati tarixi. Rus operasining yaratilishi va rivojlanishi. Milliy opera teatri yaratilishining muhim asoslari. M.Glinka-kompozitor, pedagog, ijrochi, rus opera va vokal maktablarining ilk asoschisi. Glinka operalarini sahnaga qo‘yilishi va rus opera qo‘shiqchilarini o‘sishida ularning ahamiyati.O.Petrov, A.Vorobyova- Petrova, M.Stepanova, S.Gulak-Artemovskiy-Glinka operalarining ilk ijrochilari. Kamer-vokal janrida Dargomijskiy ijodining ahamiyati. P.Chaykovskiy va Moguchaya kuchka bastakorlarining opera va vokal ijodi. S.Mamontov rejissyor-novator va uning opera teatrining roli. Peterburg va Moskvada konservatoriyalar ochilishi. Birinchi ustozlar: G.Nissen-Soloman, I.Pryanishnikov, A.Dodonov, U.Mazetti. Rus vokal pedagogikasining rivojlanishi. Buyuk rus opera xonandalari: N.Figner, F.Shalyapin, L.Sobinov, A.Nejdanova, V.Barsova, I.Arkipova, YE.Obrazsova, T.Milashkina, V.Atlantov va boshqalar.

O‘zbekiston vokal san’ati tarixi. O‘zbek operasi tashkil etishining asoslari. O‘zbek opera va vokal san’atining rivojlanishi. Milliy vokal ma’daniyati. Shoshmaqom-milliy professional san’ati yodgorligi. M.Qori- Yoqubov va Tamara Xonim ijodi. M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning ilk

«Bo‘ron» o‘zbek operasi. K.Zokirov, X.Nasirova, M.Mullajanov, M.Qori-Yoqubov shu operaning birinchi ijrochilari. A.Navoiy nomidagi davlat teatri qurilishi (1947). Rus va o‘zbek bastakorlari operalarining o‘zbek tilida sahnaga qo‘yilishi. O‘zbek opear ijrochilarining vokal mahorati tiklanishida ularning ahamiyati. O‘zbek operasi taraqqiyotida va uning propagandasida S.Yudakovning Maysaraning ishi spektaklining ahamiyati. M.Ashrafiy-atoqli bastakor, dirijyor,jamoa arbobi. O‘zbek opera san’atida uning ijodining ahamiyati. “Dilorom” operasi. S.Qobulova, S.Yarashev, K.Zokirov- shu operaning ilk ijrochilari.

Samarqandda (1964-1991) opera teatrining mavjudligi. O‘zbek operasi rivojlanishida teatrning ahamiyati. Mustaqillik davri mobaynida M.Burxonovning Alisher Navoiy, A.Ikromovning Buyuk Temur, M.Bafoyevning Al-Farg‘oniy va boshqa operalarning yaratilishi.

Vokal san‘atida stilistik yo‘nalishlar estrada-jaz ijrochilik yo‘lida ham shakllangan. “Jaz” va “estrada” atamasiga doir tushunchalar hozirgi davrda barcha ma‘lum. G‘arbiy, Markaziy, Janubiy Afrika xalqlari musiqa madaniyati, Afrika xabashlari mehnat va marosim musiqasi, XVI- XVIII asrlar Shimoliy va Janubiy Amerika musiqa madaniyati, XIX asr AQSH arxaik (qadimiy) ijodiyoti asosida jaz uslubi shakllandi.

Jaz musiqasining folklor asoslari. Jaz musiqasining folklor asoslangan. Mumtoz (klassik) jaz musiqasi rivojining asosiy tamoyillari va uslublari mavjud. Yangi Orlean jaz uslubi, Chikago jaz uslubi. Sving jaz uslubi endilikda hammaga ma‘lum.

Jaz namoyandalari. Mumtoz (klassik) jaz musiqasining ham taniqli namoyandalari yetishib chiqdi. Zamonaviy (modern) jaz musiqasi uslub va yo‘nalishlari ham shakllandi. Modern jaz musiqasi taniqli namoyandalari nomlari endilikda musiqa tarixi sahifalaridan munosib o‘rin egalladi.

Jazning jahon madaniyatidagi o‘rni. Jaz - jahon musiqa madaniyati kesimida alohida o‘ringa ega katta ahamiyot kasb etmoqda. Rossiyada jaz musiqasining shakllanish bosqichlari kuzatildi va XX asr ikkinchi yarmida estrada – jaz musiqasi yuksaklarga ko‘tarildi.

O‘zbekistonda jaz musiqasi. Jaz O‘zbekiston musiqa madaniyati kesimida ham bugungi kunda o‘z muxlislariga ega. O‘zbek kompozitorlari ijodida simfojaz uslubi paydo bo‘lganligini musiqashunls-olimlar keyingi davrlarda e‘tirof etishmoqda. XX asr ikkinchi yarmida jaz va ommaviy musiqa ijobiy va ayrim hollarda salbiy ta’sir kuchi sifatida ham tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. “Ommaviy madaniyat”ning bir ko‘rinishi sifatida yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayotgan ta’siri OAVlarida tez-tez e‘tirof etilmoqda.

Jaz va Rokning ijtimoiy hayotga ta’siri. XX asr AQSH ijtimoiy – qo‘shiq folklorida siyosiy qo‘shiq janri sifatida shakllanib, XX asr ikkinchi yarmida yoshlar harakati va ijtimoiy-norozilik qo‘shiqlari yaratilishiga turtki bo‘ldi. XX asr musiqa madaniyatida estrada musiqasi, Rok yo‘nalishining shakllanishi va rivoji asosan professional kompozitorlar ijodida namoyon bo‘lmoqda. Rok musiqasi uslub va yo‘nalishlarining tavsifi ensiklopediyalar sahifasidan ham o‘rin olgan.

O‘zbek musiqa madaniyatida ommaviy janrlar. Kompozitorlarimizning ommaviy janrlarda yaratayotgan asarlari “ommaviy madaniyat” namunalariga qarshi qo‘yilib, yoshlarni kelakka, porloq hayotga ishonch ruhida tarbiyalamoqda. XX asr

boshlarida, aniqrog‘i 1920-1930 yillarda o‘zbek musiqa madaniyatining bir yo‘nilishi sifatida o‘zbek qo‘shiqchilik san‘ati tez sur‘atlarda rivojlandi. 1920-1940 yillar o‘zbek qo‘shiqchilik san‘ati, 1940-1950 yillar o‘zbek qo‘shiqchilik san‘ati yangi- yangi ijod namunalari bilan alohida-alohida xalqimiz qulog‘iga singdi. Bunda mashhur Estrada-simfonik orkestrining faoliyati katta e‘tirofqa sazovordir. Botir Zokirov o‘zbek estrada musiqa maktabi asoschisi sifatida tan olindi. O‘zbek qo‘shiqchilik san‘atida simfojazga asoslangan professional asarlar yaratildi. 1960-1980 yillar estrada xonandalari ijodi yangicha ijro uslublariga qarab burildi. Bunda aranjirovka san‘atining ta’siri katta bo‘ldi. Estrada qo‘shiqi o‘zbek kompozitorlari ijodidan munosib shrin oldi. 1980 yillarda “Yalla” kabi vokal-cholg‘u ansambllari paydo bo‘ldi. 1990-2016 yillarda o‘zbek estrada musiqasi o‘zbek estrada musiqasi shou-biznes tizimida ham o‘z shrniga ega bo‘ldi.

2.5. Vokal ijrochiligida badihaviylik (improvizatsiya) texnikasi

Sharq musiqasining yirik olim va tadqiqotchilari, xususan, I.Yeolyan, N.Shaxnazarova, T.G‘ofurbekov, Samxa al-Holiy, YU Plaxov, shuningdek, B.Nettl, T.Djani-zade va boshqalarning fundamental asarlari asosida sharqona ijrochilik amaliyotidagi musiqiy asarning yaratilish jarayonida badihaviylikning roli va ahamiyati belgilab beriladi, Muayyan davrning uslubiy meyorlari sabab yuzaga kelgan har qanday badihaning kanonik unsurlari ajratib ko‘rsatiladi. Bu borada sharqona musiqiy ijrochilikning muhim turini tavsiflovchi «og‘zaki-konsert» ijrochiligi asos soluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Musiqa san‘atining og‘zaki shaklda joriy etilishi badiha madaniyatining rivojlanishiga turtki bo‘lib, Sharq musiqachilari tafakkurining o‘ziga xosligini aks ettiradi va «Ustozshogird» tizimining ta’lim jarayoniga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yakka va ansambl amaliyotida badihaning ahamiyati ulkan, zero bunda ansambl ijro jarayonida yuzaga keladigan bellashuv dialogiga qarab, ijrochilarni badihaga ko‘proq jalb etadi. Hozirgi paytda ansambl ichidagi bellashuv, konsert ijrochiligi jarayonidagi asosiy rollardan birini o‘ynamoqda, unda ijrochilar bir-birlari bilan, va o‘z-o‘zi bilan bellashuvdialogga kirishadi. Zamonaviy konsert ijodiyotining shakllanishiga nafaqat Sharq, balki G‘arb badiha madaniyati ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Aytish joizki, G‘arb madaniyatining alohida holatlari konsert janrining asosiga aylandi. Sharq va G‘arb ijrochilik san‘atida umumiy jihatlarning mavjudligi shubha uyg‘otmaydi, buni jamiyatda kechgan integratsion jarayonlar natijasida yuz bergan musiqiy an‘analarning o‘zaro ta’siri bilan, va shubhasiz, yangiliklarni tezda o‘ziga singdiruvchi musiqa san‘atining og‘zaki shaklda joriy bo‘lish spetsifikasi bilan izohlash mumkin. Aynan shu vaziyat, nazarimizda, XX

asrda konsert janrlarining shakllanishi uchun muhim shart-sharoitlardan biri bo'lgan, ya'ni, unga (konsert janriga) o'zbek milliy musiqa ijodiyoti sharoitlarida to'laqonli va mustaqil hayot qurish imkonini bergan.

Nazorat savollar

1. Musiqa asari bayoni va rivojidadagi eng baland nuqta qanday ataladi?
2. Opera, musiqali drama, operettalardagi qahramonlarning ruhiy kechinmalari va intilishlarini ochib beruvchi musiqiy monolog qanday nomlanadi?
3. Bir necha band va naqoratlari bilan yozilgan musiqiy asar nima deb ataladi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Umarov D. Estrada yakka xonandaligi. O'quv qo'llanma. – T.; “Akademiya”. 2018.
2. Razzakova M. Akademik xonandalik ijrochiligi. O'quv qo'llanma. – T.: “Musiqa”. 2018.
3. Nazaykinskiy YE. Janr i stil v muzike – M, 2018.
4. Kogoutek S. Texnika kompozitsii v muzike XX veka M., 2015.
5. Uzbekskaaya muzika na stike stoletiy (XX-XXI vv.), problemi (kollektivnaya monografiya). T.; “Musiqa”. 2018.
6. Rahimov SH. Musiqa san'atiga o'rgatish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.: “Musiqa”. 2009. – 224 b.
7. Soy S. Rabota s konsertmeystrom (v klasse solnogo peniya) Uchebniye posobiye. T.: “Musiqa”. 2018. – 130 str.
8. Xamidova M.A., Xasanov R. Ijrochilik san'ati tarixi. O'quv qo'llanma. T.; “Musiqa”. 2018. – 124 b.

3-mavzu: Vokal sanat pedagogikasi muammolari. Xonandaning ijro mahoratiga qo'yiladigan asosiy talablar.

Reja:

- 3.1. Vokal san'ati pedagogikasi muammolari.
- 3.2. Xonandaning ijro mahoratiga qo'yiladigan asosiy talablar. Professional va havaskor ijrochilik
- 3.3. Vokal san'ati pedagogikasida ustoz-shogird tizimi.
- 3.4. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta'lim jarayoniga tadbiq etish masalalari

***Tayanch iboralar:** vokal pedagogikasi, professional ijrochilik, havaskor ijrochilik, ustoz-shogird tizimi, xorijiy adabiyotlar, san'at, xorij musiqa maktablari.*

3.1. Vokal san'ati pedagogikasi muammolari.

Barkamol avlodni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yosh xonanda va sozandalarni boy madaniy merosimiz, asrlar davomidagi an'analarimiz va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalash yosh iste'dodli xonandalarni kashf etish, ustoz hofizlarning betakror ijrochilik uslubini ular misolida yanada rivojlantirish maqsadini ko'zlovchi tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda. Bularning hammasi o'zbek musiqa madaniyatining rivoj topishiga qaratilgan. Ma'lumki inson komilligi va uning estetik tarbiyasida musiqa, qo'shiq, xususan vokal san'atining ahamiyati katta.

Mazkur san'at asarlari insonni ezgulikka, vatanparvarlikka, do'stlik va qardoshlikka chorlaydi. Bir guruh xorijlik mutaxassislar musiqa, xususan, vokal asarlaridan nafaqat estetik tarbiya vositasi sifatida, balki inson ruhiyati bilan ishlashda va yosh davrlar psixologiyasining o'ziga xosligini normallashtirishda asosiy omil sifatida foydalanishgan. Jumladan, amerikalik tadqiqotchi K. Dunphy boshchiligidagi bir guruh olimlar keksalar orasida depressiyaning oldini olish va davolashda samaradorlikka erishish maqsadida vokal asarlaridan foydalanishgan.

Milliy vokal san'ati bugungi kunda rivojlanib, olamga dong taratmoqda. Atoqli kompozitorlarimizdan Mutavakkil Burhonov, Ikrom Akbarov, Manas Leviyev, Sulaymon Yudakov, Doni Zokirov, Sharif Ramazanov, Enmark Solihov kabilarning yaratgan o'lmas asarlar va ularni yuksak mahorat ila ijro etgan betakror xonandalar – jahon xalqlari qo'shiqlarini bulbulona kuylovchi Xalq artisti Tamara xonim, betakror ovoz egasi va ijro ustasi O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov, Nazira Ahmedova, Saodat Qabulovanning uzoq yillik samarali izlanishlari tufayli

vokal san'atining milliy shakli vujudga keldi. Bunda kompozitorlik ijodi va Yevropacha kuylash uslublari milliy ohang va an'anaviy xonandalik yo'llari bilan tabiatan payvasta bo'ldi.

Mazkur sharaflı an'anani barkamol va izlanuvchan ijodlari bilan davom ettirayotgan keyingi avlod kompozitorlari Dilorom Omonullayeva, Nadim Norxo'jayev, Alisher Ikromov, Alisher Rasulov, Doni Ilyosov va kuylashning yangi-yangi qirralarini kashf etayotgan xonandalarimiz O'zbekiston xalq artistlari Farrux Zokirov, Yulduz Usmonova, Nasiba Abdullayeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Kumush Razzoqova, Sevara Nazarxon va boshqalarning ijodiy izlanishlari natijasida aytish mumkinki, hozirda vokal ijrochiligimizning milliy maktabi shakllanib, kun sayin yanada rivojlanib borayotgani yaqqol sezilmoqda. Shu bilan birgalikda O'zbekiston ta'lim tizimida vokal san'atini o'qitishning o'ziga xos metodikasi yaratildi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida "Vokal" fani 5111000 – Kasb ta'limi (5151600– Xalq ijodiyoti (vokal ijrochiligi) va – Xalq ijodiyoti (vokal jamoalariga rahbarlik) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'tiladigan asosiy fanlardan biridir.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga Vokal fani musiqiy qobiliyatni yanada rivojlantirish va kuylash mahorati san'ati ko'nikmalarini o'rgatishga asoslanadi. Kelgusida sahna bilan bog'liq barcha qonun-qoidalar: ovozni to'g'ri qo'yilishi, nafas, erkinlik, kuylash apparati gigiyenasi bilan tanishish, vokal texnikasining barcha turlari har bir ijrochi talaba uchun zarur.

Talabalarning ovoz imkoniyatlarini nafaqat vokal hamda badiiy jihatdan rivojlantirish, ularga kuylash texnikasini o'rgatish ishlari bilan organik tarzda qo'shib olib boriladi. Shuningdek, vokal malakalarini egallash, vokal pedagogikasining tizimlilik, izchillik, oddiydan murakkabga, yakka yondoshish kabi qator didaktik prinsiplariga asoslanadi. Vokal fanining asosiy maqsadi: vokal san'ati vositasida bo'lajak aktyor yoki xonandaning estetik va badiiy didlarini tarbiyalash, ularni ovoz qo'yish malakalari bilan qurollantirish, badiiy ijrochilik mahoratini o'stirish, ularni o'zbek va jahon kompozitorlarining yaratgan nodir asarlari bilan tanishtirish, professional uslubda kuylash malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – vatanparvarlik ruhda tarbiyalangan va o'zining yuqori saviyasi, axloqiy komilligi bilan zamonaviy talablarga javob beruvchi malakali xonanda va aktyorlarni yetishtirishdan iboratdir.

Vokal o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr – yakka ijroning nazariy asoslari va xususiyatlarini, tovush hosil qilish va ohangdoshlik, asar matninito'g'ri talaffuz etish, diksiya, asar mazmuniga mos badiiy-musiqiy ijro, ritmni his etish, xonandalikda dinamika, asar talqinida

frazirovka, o'z ijrosini sozanda-jo'rnavoz bilan uyg'unlashtirish, konsert ijrochiligi repertuaridan axloqiy-ma'naviy hamda vatanparvarlik tarbiyasida foydalanish, akademik va an'anaviy bastakorlar ijodi, xalq qo'shiqlari, akademik va an'anaviy ijrochilikdagi klassik va hududiy uslublar, katta ashula, mavrigilar, operalardan ariyalar, klassik kompozitorlarning asarlarini kuylash, o'zbek musiqiy asarlarini bosqichmabosqich o'rgatish, o'zbek qo'shiqchilik madaniyatida paydo bo'lgan zamonaviy ijro usullarini o'zlashtirish, O'zbekiston hamda jahon kompozitorlari tomonidan yozilgan musiqiy drama va komediya janridagi xil repertuardan foydalanish, vokal nafas yo'llarini o'zlashtirish, ohangdor tovush tashkil qilish uslublarining spektakllardan ariya, romans va boshqa vokal namunalarini olib, boy, xilma- asosiy belgilarini egallash haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. Fanni o'zlashtirish natijasida qo'shiqlarning tasnifini, taniqli xonandalarning repertuarini, ovoz sozlash mashqlarini, ovoz tarbiyasini, baland va past ovozda kuylashni, mahalliy ijro uslublarini, o'z ovozi cholg'uga moslashtirishni, milliy qochirim va nolalarni ijro etishni, repertuar tanlashni, konsertlarga tayyorlanishni, ijroni boshqalar ijrosiga uyg'unlashtirishni, jo'rovovlikda kuylashni bilishi va ulardan foydalana olishi kerak.

Vokal fanini o'qitish jarayonida amaliy va yakka mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha quyidagilar inobatga olinishi lozim:

- ijrochilik holatini o'zlashtirish;
- nafas olish va nafas chiqarish uslublarini o'zlashtirish;
- yoqimli va mayin tovush hosil qilish;
- so'zlar va bo'g'inlarni aniq va ravon talaffuz etish;
- tovush yo'nalishi bobidagi san'at malakalarini o'zlashtirish
- qo'shiqning tabiati va mazmunidan kelib chiqqan holda bo'limlarga ajratib o'rganish;

- qo'shiq kuyini alohida, garmoniyasini alohida o'rganish;
- qo'shiqni bir butun musiqiy asar sifatida o'rganish va o'zlashtirish.

Shuningdek, vokal ijrochiligi tarixi, vokal va o'zbek milliy mumtoz merosidan o'rin olgan asarlar bilan bir qatorda bastakor hamda kompozitorlar yaratgan asarlar, qo'shiq aytish jarayonida gavdani tik holda tutish, hatto o'tirib ijro qilgandagi holatlar, to'g'ri nafas olish, uni to'g'ri sarflash usullari, ijrodagi nafas olish bilan jismoniy nafas olishning farqi ham chuqur o'rganilishi kerak.

Qo'shiq aytish davomida artikulyatsiya apparatining ahamiyati nechog'li katta ekanligi ma'lum. Shu sababli uning erkin ishlatilishi, unli va undosh tovushlarning to'g'ri talaffuz etilishi muhim ahamiyatga ega.

Fanni o'zlashtirish jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etish ham ahamiyatli bo'lib, bu jarayon talabani o'quv mashg'uloti davomida egallagan bilim,

ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim mazmuni shundan iboratki, talabalar o'zlari tanlagan kasblari bo'yicha chop etilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, mutaxassis va mashhur xonandalarning ilmiy maqolalarini va tajribalarini o'zlashtirishlari maqsadga muvofiq. Talaba o'rgana boshlagan qo'shig'ining muallifi, ijodiy faoliyati, uning o'ziga xos jihatlari va o'zbek milliy musiqa madaniyatida tutgan o'rni haqida o'qib, bilib olishi zarur.

So'ngra qo'shiqning so'zlari, uning mazmunini anglab yetmog'i lozim. Keyinchalik qo'shiqning avval kuyini, so'ngra garmoniyasi va fortepiano partiyasini o'rganishi kerak. Shundagina talaba qo'shiqning tabiati, mazmuni va xarakterini idrok etishi mumkin bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlagina, bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish fan o'qituvchisi va oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talabalar mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir. O'qishning boshlang'ich bosqichlarida mustaqil ishni tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq.

Ayniqsa, birinchi kurs talabalari ta'limning navbatdagi turi – oliy ta'lim talablariga ko'nikishi qiyin kechadi. Chunki ular ta'lim olish jarayonida o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma'lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib, tartibga solish, o'z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to'g'ri baholash ular uchun katta muammo bo'ladi. Eng asosiysi, ular mustaqil ta'lim olishga ruhan tayyor bo'lishmaydi.

Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi.

Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil

ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab, o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Talabalar mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning yakka ijrochilik xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi ish shakllaridan foydalanishlari tavsiya etiladi:

–vokal fani bo'yicha bilimlarini kengaytirish, ijro yo'llarini mukammal o'rganish;

– vokal ijrochiligiga oid manbalarni to'plash va ularni ijro qilishga erishish;

– yakka ijrochilik ko'nikmasini mustahkamlash bo'yicha ish olib borish;

– hududiy musiqiy uslublar bo'yicha asarlarni janrlar asosida to'plash;

– vazn asoslari, nota va she'r matni ustida ish olib borish.

Talabalar mustaqil ishini takomillashtirish va samarali tashkil etishda quyidagi usullarga tayanish lozim:

– tizimli yondoshish;

–barcha bosqichlarni muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;

–qat'iy nazorat o'rnatish;

–tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

Talabalar mustaqil ishini baholash amaldagi **“Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom”**ga asosan olib boriladi.

Vokal san'ati ashula aytish bilan chegaralanmay, xonandalarga musiqiy ta'lim berish va tarbiyalashning ommaviy turi ekanligi bugungi kunda barchaga ayondir.

Ular orasida quyidagilarni ta'kidlab o'tish joizdir:

– Vokal san’ati musiqa ijrochiligining bir muncha qulay turi. Bu qulaylik insonga tabiat tomonidan in’om etilgan va doim rivojlanishda bo’lgan ovoz “tabiiy cholg’u” bilan bog’liq.

– Qo’shiqchilik ko’nikmasini tarbiyalashning o’zi ayni paytda, inson tuyg’usini va his-hayajonini tarbiyalashdir. Zotan, qo’shiqchilik iste’dodi o’zining chuqur emotsional asosiga egadir.

– Ma’lumki, vokal san’ati so’z bilan bog’liq, bu o’z navbatida vokal asarlarining bir muncha aniq tushunish uchun zamin yaratadi. Asarning mazmuni esa she’riy matn va musiqaviy ifoda vositasida ochib beriladi. Musiqaviy ifoda uning g’oyaviy emotsional ahamiyatini oshirishda muhim omilga aylanadi.

– Xorda ashula aytish jarayonida jamoa xarakterini ko’rsatib o’tish juda muhim. Xor san’atining o’ziga xos xususiyati, o’zbek xalq pedagogikasining jamoani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek muhim tamoyillariga, ayniqsa, yaqin. Musiqaning emotsional (his-hayajon) ruhi esa insonparvarlik va ma’naviy-tarbiyaviy jarayoniga katta ta’sirchanlik baxsh etadi.

– Xorda kuylash musiqaviy nutqqa ega bo’lishga, xor ishtirokchilarining musiqaviy qobiliyatlarini yanada aniq va chuqurroq namoyon etishga yordam beradi

“Vokal” fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o’z mohiyatiga ko’ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to’laqonli rivojlanishlarini ko’zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog’liq o’qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimining quyidagi belgilarini o’zida mujassam etmog’i lozim:

- jarayonning mantiqiyligi;
- uning barcha bo’g’inlarini o’zaro bog’langanligi;
- yaxlitligi.

Faoliyatga yo’naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatini aktivlashtirish va intensivlashtirish, o’quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo’naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o’quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o’z-o’zini faollashtirishi va o’z-o’zini ko’rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashning mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash. Yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallashtirish), muammoli ta'lim, keys-stadi, muz yorar, dialogik yondoshuv, o'zi-o'zini nazorat, loyihalash va h.k. usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari. Dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv, guruh va yakka.

O'qitish vositalari. O'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy majmua) bilan bir qatorda kompyuter va axborot texnologiyalari.

Boshqarish usullari va vositalari. O'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va talabaning birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash. O'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida ijodiy dastur yordamida talabalarning bilimlari baholanadi.

Shuningdek, zamonaviy san'at ta'limida "Vokal" fani o'qituvchisi quyidagi fazilatlariga, qolaversa, majburiyatlarga ega bo'lishi lozim:

- eng avvalo, shaxs sifatida shakllanganligi;
- siyosiy yetukligi;
- yuksak ma'naviyat, odob-axloq, estetika qonuniyatlari bilan qurollanmogi va bu borada talabalarga o'rnak bo'lishi;
- o'z sohasini chuqur o'zlashtirganligi;
- o'z ustida muntazam ishlashi;
- dars mashg'ulotlarini aniq va sodda, ravon va mazmunli olib borishi;
- dars jarayonida tanlangan asarning tarixi, ijrochilari, ijrodagi o'ziga xoslik kabilarni to'laqonli tushuntirib va ko'rsatib berish qobiliyatiga ega bo'lishi;

–talabalarni bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishi; mustaqil ravishda ta’limni davom ettirishga yo‘naltirish, mustaqil fikrlarga o‘rgatish;

– har bir talabaning individual mahoratini inobatga olib, ularning qiziqishi va ishtiyoqlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

–mustaqil ravishda vokal asarlarini tahlil qila olishi, bu borada mustaqil taqriz yoza olishi;

– muntazam ravishda matbuot va internet xabarlarini bilan tanishib borishi;

–axborot texnologiyalari va biror xorijiy tilni mukammal bilishi lozim.

Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarni o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Har bir ta’lim sohasida o‘qitish jarayonida o‘qituvchilar umum-didaktik va maxsus musiqa pedagogikasiga oid prinsiplarga asoslanadi. Vokal pedagogikasida ham shunday asosiy prinsiplar mavjud:

Ta’limda tadrijiylik va muntazamlik prinsipi. Bu umumpedagogik prinsip bo‘lib, u ta’lim jarayonida soddadan-murakkabga asoslanadi. Dastlabki mashg‘ulotlarda ovozni diapazonning o‘rta qismida, ya’ni bemalol olindigan notalardan boshlab rivojlantirish kerak. Diapazonni kengaytirish asta-sekin olib boriladi. Vokal mashqlarni oddiy, oson, kichik diapazonda, kuychan va qulaylardan foydalanish maqsadga muvofiq. Repertuar tanlashda, ruhiy kechinmada ham (lirik asarlardan dramatik asarlarga o‘tishda) tadrijiylik zarur. Talabalar bilan mashg‘ulotlarda ovozning sifati, toblanishi, tebranishi, jarangdorligini nazarda tutish kerak. Eng muhimi - ovozning zo‘riqishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Musiqiy-badiiy va vokal texnik rivojlanish prinsiplarining birligi. Vokal-texnik ko‘nikmalarni shakllantirish – o‘qituvchining asosiy vazifasidir. Sababi ovozni boshqara olmaydigan xonanda kompozitor asarlaridagi g‘oyani yoritib bera olmaydi. Shu bilan birga chiroyli professional ovozga ega bo‘lgan xonanda ifoda, dramatik hissiyotlarsiz ijro bilan badiiy maqsadga erisha olmasligi va tinglovchilarni o‘ziga jalb qila olmasligi aniq. Xonandani qoida bo‘yicha tarbiyalash uchun bir vaqtning o‘zida ikki muammoni hal qilish talab qilinadi: ijro etish apparatini qurish, ya’ni xonandaning professional ovozini hosil qilish va kuylash malakasini shakllantirish lozim. Bu ikki masala bir vaqtda bir-biriga bog‘liq holda amalga oshirilishi kerak. Har qanday, hattoki eng sodda ko‘nikmani ham elementar ijro vazifasi bilan bog‘lash zarur. «Avval ovozni rivojlantirish, ana shundan so‘ng ijro mahoratini egallash kerak» deb o‘ylagan xonanda katta xatoga yo‘l qo‘yadi. Busiz aktyor-xonandani tarbiyalash mumkin emas. Shu tufayli bu ikki masalaga eng

birinchi qadamdan boshlab e'tibor berilishi zarur. Ijro etilayotgan asar oson bo'lmasa ham, o'quvchiga texnik vazifalarni berish bilan birga, albatta uning oldiga ijrochilik maqsadlarini qo'yish lozim. Albatta, dastlabki mashqlarda ham o'quvchi, ham o'qituvchining e'tibori ko'proq vokal-texnik ko'nikmalarni rivojlantirishiga qaratilgan bo'ladi, keyinchalik esa talabning ijrochilik, ifodalilik, aktyorlik sifatlarini tarbiyalash muammolari birinchi o'ringa o'tadi.

Har bir o'quvchiga alohida yondashuv prinsipi. Xonanda bu –o'ziga xos musiqiy asbob. Hammasi juda alohidalikni talab qiladi. O'zgaruvsiz (dogmatik) ko'rsatmalar vokal pedagogikasiga zarar yetkazadi. Har bir o'quvchining imkoniyat darajasi o'ziga xos bo'ladi, chunki uning ovozi kuchi va chidamliligi shaxsiy xarakteriga va jismoniy tuzilishiga bog'liq. Ayniqsa, uning ruhiy xususiyatlarini bilish va ularga ahamiyat berish kerak. O'quvchi har tomonlama betakror – uning ovoz xususiyatlari (tembri, diapazoni, kuchi, chidamliligi, jarangdorligi va boshqalar), ovoz apparatining fiziologik tuzilishi, psixologik xususiyatlari (xarakter, temperament, iroda, xotira, diqqat, tafakkur, idrok va boshqalar) turlichadir. Shu sababli darslarni yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda o'tkazish zarur. Bir hil mashq berilsa ham har bir o'quvchi oldida ushbu mashq ijrosida aynan uning ovozigacha tegishli vazifa qo'yiladi.

O'z-o'zini muntazam ravishda mukammallashtirish tamoyili. Talabning mustaqil ravishda ishlashi nihoyatda muhim. Agar o'quvchi o'z ustida mustaqil shug'ullanmasa, pedagog mashg'ulotlar davomida berayotgan bilimlarining uncha foydasi bo'lmaydi. Xonanda – ijodkor. O'qishni tugallaganidan keyin ham u faqat butun ijodiy umri davomida izlanishi, yangilikka intilishi, muntazam fidokorona mehnat qilishi bilan mahorat cho'qqisiga ko'tarilishi mumkin. Ta'limning so'nggi jarayonlarida talabning mustaqil tayyorlanishiga katta ahamiyat beriladi va buning uchun o'quv rejalarida alohida soatlar ajratiladi. Xozirgi zamonda infomatsion texnologiyalar keskin rivojlanmoqda va xonanda ulardan albatta foydalanish kerak.

Prinsip bu – asosiy g'oya, ya'ni biron faoliyatda asoslanadigan umumiy qoida, nizomlar. Har bir o'qituvchi ushbu prinsiplarga tayangan holda o'z uslubi yaratadi. **Uslub** deganida g'oyani tadqiq qiladigan, o'rganadigan yo'llar, ya'ni aniq vazifani yechish uchun harakatlar tizimi bo'lib, o'quvchi turli ko'nikmalarni o'zlashtirishi uchun o'qituvchi va o'quvchining birlashgan faoliyati.

Vokal pedagogikasida quyidagi uslublar mavjud:

Cholg'uli uslub. Bu uslubdan ko'proq XVI-XVIII asrlarda foydalanganlar. Ovozni sozlash mashqlari xuddi skripka yoki fortepiano maktablarida kabi foydalanilgan. Birinchi mashqdanoq butun diapazonda eng past notadan eng baland notagacha ovoz ustida ish olib borilgan.

Empirik (amaliyotga asoslangan) uslub. Ushbu uslub qadimgi italyan maktabida keng tarqalgan. XVI-XVIII asrlarda vokal pedagoglari albatta, mahoratli xonanda bo'lishlari shart edi. Ularning asosiy shiori «Men kuylaganimdek kuyla», bo'lgan. Lekin shu uslubdan haligacha ba'zi o'qituvchilar foydalanadi. Odatda bunday holatlarda o'qituvchilar chiqarilayotgan ovozga hech qanday izoh bermasdan o'quvchidan faqat o'zi aytganidek qaytarishni so'raydi.

Konsentrik uslub. Ushbu uslubning asoschisi – XIX asr buyuk rus kompozitori, vokal o'qituvchisi va xonanda Mixail Glinka hisoblanadi. U aytganidek, ovozni qulay va chiroyli kuylanadigan notalardan boshlab diapazonni tepa va pastga rivojlantirish kerak.

Primar (qulay) ton uslubi. Bu uslubning asoschisi XIX asr nemis pedagogi Fridrix Shmitt. Uning fikricha primar (birinchi, eng qulay) ton diapazonning o'rta qismida joylashgan. To'g'ri shakllangan ovoz diapazonning bemalol kengayishiga olib boradi. Shu nuqtai nazardan primar ton uslubi konsentrik uslubga o'xshab ketadi.

Amalda pedagogik uslublar juda ko'p va bir-biridan farq qiladi. Buyuk italyan xonandasi Enriko Karuzoning fikricha, «Xonanda qancha ko'p bo'lsa, shuncha uslub bo'lishi lozim». Har bir o'qituvchi to'rtta asosiy prinsipiga asoslanib o'z uslubidan foydalanishi mumkin.

3.2. Xonandaning ijro mahoratiga qo'yiladigan asosiy talablar.

Vokal-texnik ko'nikmalarni shakllantirish – o'qituvchining asosiy vazifasidir. Sababi ovozini boshqara olmaydigan xonanda kompozitor asarlaridagi g'oyani yoritib bera olmaydi. Shu bilan birga chiroyli professional ovozga ega bo'lgan xonanda ifoda, dramatik hissiyotlarsiz ijro bilan badiiy maqsadga erisha olmasligi va tinglovchilarni o'ziga jalb qila olmasligi aniq. Xonandani qoida bo'yicha tarbiyalash uchun bir vaqtning o'zida ikki muammoni hal qilish talab qilinadi: ijro etish apparatini qurish, ya'ni xonandaning professional ovozini hosil qilish va kuylash malakasini shakllantirish lozim. Bu ikki masala bir vaqtda bir-biriga bog'liq holda amalga oshirilishi kerak. Har qanday, hattoki eng sodda ko'nikmani ham elementar ijro vazifasi bilan bog'lash zarur. «Avval ovozni rivojlantirish, ana shundan so'ng ijro mahoratini egallash kerak» deb o'ylagan xonanda katta xatoga yo'l qo'yadi.

Busiz aktyor-xonandani tarbiyalash mumkin emas. Shu tufayli bu ikki masalaga eng birinchi qadamdan boshlab e'tibor berilishi zarur. Ijro etilayotgan asar oson bo'lmasa ham, o'quvchiga texnik vazifalarni berish bilan birga, albatta uning oldiga ijrochilik maqsadlarini qo'yish lozim. Albatta, dastlabki mashqlarda ham

o'quvchi, ham o'qituvchining e'tibori ko'proq vokal-texnik ko'nikmalarni rivojlantirishiga qaratilgan bo'ladi, keyinchalik esa talabaning ijrochilik, ifodalilik, aktyorlik sifatlarini tarbiyalash muammolari birinchi o'ringa o'tadi.

Xonandalik san'atining mustaqil, badiiy va estetik shakllangan, keng tarqalgan mashhur jabhasi sifatida tinglovchiga bo'lgan hissiy ta'siri, tunganmas ifoda vositalari tufayli umuminsoniy madaniyat tizimida alohida o'rin tutadi. U shakllanish jihatidan tarkibini jamlash va takomillashtirish, tovush hosil qilishning shakli va sifatini rivojlantirish tarixi yo'lida misli ko'rilmagan darajaga ko'tarilib, har taraflama umumlashtirilgan izlanish va o'rganishga loyiq katta manbalarga ega bo'ldi.

Ma'lumki, ovoz ustida tinimsiz ishlash, ijrochilik mahoratini yuksaltirishsiz kutilgan badiiy natijalarga erishib bo'lmaydi. Professional ijodkorlik esa: akademik xonandalik san'ati tarixi, nazariyasi va amaliyotini bilmasdan, o'tgan asrlar malakalari va izlanishlarini anglamay turib, alohida uslub, maktablar tajribasi va xususiyatlarini tahlilisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Har bir yangi tarixiy bosqich xonandalik san'ati rivojiga o'z talablarini qo'ygan bo'lib, jamoaning gumanitar, estetik dunyoqarashi, janr – uslub yo'nalishlari, shuningdek, iqtidorli kompozitor va ijrochilar, musiqiy did va fikr uyg'unligi kabi bir qator belgilar bilan boyitilib, o'z davrining ruhiy, axloqiy mezoni sifatida taraqqiy etgan.

Xonandalik tushunchasining maqsad va vazifalari, hamda badiiy talablari o'ziga xoslikni kasb etadi. Bu tasodif emas: inson ovozing tasviriy va ifodaviy vositalari shunchalik boyki, tinimsiz o'zgarish va rivojlanish orqali o'zining cheksiz imkoniyatlari va bo'yoqlarini namoyish etib, hozirgi kunda ham betakrorlik, badiiy-texnik mahorat, umuminsoniy va milliy madaniyatga bo'lgan ta'siri, izchilligi, davrga xos tamoyillari nuqtai nazaridan o'ziga nisbatan qizgin qiziqishlar uyg'otib kelmoqda.

Oldin qanday kuylashgan, xozir qanday kuylashadi, avvalgi talablardan meros bo'lib nimalar qolgan, hozirgi talablar kandaydir? Nega qo'shiqchi ovozi hayajonga soladi, quvonch yoshlarini chaqiradi, ba'zan esa asabga tegadi, e'tirozlarga sabab bo'ladi? «Xonandalik maktabi», «chiroyli ovoz», «eski klassik italyan, nemis, fransuz, rus maktablari nimani bildiradi? Vokal amaliyoti va pedagogikasida nimalar o'zgardi, oxirgi asrlarda bu o'zgarishlar nimalar bilan belgilanadi?»

“San'at” so'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib, “yaratish” degan ma'noni anglatadi. San'at so'zi ko'p qirrali so'z bo'lib, ko'plab san'at turlarini o'z ichiga

oladi. Masalan, kino, teatr, musiqa, tasviriy va amaliy san'at va boshqalar. San'at – bu biror bir janr orqali o'zi yaratgan san'at asarini izhor qilish. San'at insonni ezgulikka va ijod qilishga, nafosat olamiga yetaklaydi, ulug'laydi, yangidan yangi asarlar yaratishga undaydi

Bugungi ijrolarda sahna madaniyatining yetishmayotganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, xonandalik, sahnada o'zini tutish madaniyati yoki sozandalarning stulda o'tirish madaniyatida ham kamchiliklar (aslida oyoqni juft holatda tutish, chap oyoq biroz oldinda, o'ng oyoq biroz orqada, gavdani to'g'ri tutish va h.k.) sezilmoqda.

San'atga ilk bor qadam qo'yayotgan yosh ijrochilar eng avvalo san'atni chuqur o'rganmog'i kerak. Har bir qo'shiqchi yoki sozanda eng avvalo yuqorida aytib o'tganimizdek, maqom san'tini chuqur egallamog'i, ustoz san'atkorlar ijro namunalarini bilmog'i zarur. Bundan tashqari ijro paytida sahnada turli xil taqinchoqlar (uzuk, zanjir va h.k.) bilan chiqishlar ham tinglovchi-tomoshabinlarni chalg'itadi.

Qanday qo'shiq ijro qilinishidan qat'i nazar, tanlangan kiyim qo'shiqqa mos bo'lishi kerak. Ijro etiladigan so'zlarning aniq talaffuziga e'tibor qaratilishi kerak. Bugungi kunda qaysi janrda ijro etilmasin, xonanda va sozandalar, eng avvalo shoirlar, bastakorlar, kompozitorlar bilan hamkorlikda ijod qilgan taqdiridagina yuqori natijalarga erishadilar.

Vokal - cholg'u, estrada yo'nalishida esa, asarning mukammal (professional) darajada ijro etilishini ta'minlashda cholg'u sozlarining yetarli bo'lishi va rang-barangligiga e'tibor qaratilgandagina undan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bugungi kunda ijod qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. O'zbek mumtoz san'atimiz nafaqat O'rta Osiyoda, balki chet ellarda ham o'zining dovrug'ini taratib kelmoqda. Shunday ekan, bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri – durdona bo'lgan o'zbek mumtoz san'atini qanday bo'lsa, shundayligicha yosh avlodga yetkazish, yosh, iste'dodli san'atkorlarni kashf qilish va ularni san'atga bo'lgan mehrlarini oshirish va tarbiyalashdan iborat.

Ayniqsa, ustoz-shogird an'analariga tayangan holda, bugungi kunda ustoz san'atkorlarning ijro yo'llarini, ular yaratib qoldirgan mumtoz asarlarni va ijro yo'llaridagi ayrim (qochirim va nolalarni) ijro uslublarini yosh, iste'dodli xonanda va sozandalarga o'rgatish bugungi kundagi ustozlarning va shu murakkab ijrolarni qanday bo'lsa, shundayligicha o'zlashtirib, ijro qilib borish yosh ijrochilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Zero, san'at yo'lida tinmay izlanib, mumtoz san'atimizni mukammal darajada egallab borayotgan ko'plab iste'dodlar orasidan xalqimiz sevgan san'atkorlar:

Yunus Rajabiy, Lutfixon Sarimsoqova,

Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboyeva,
Tamaraxonim, Kommuna Ismoilova,
Ortiqxo'ja Imomxo'jayev, Turg'un Alimatov,
Faxriddin Sodiqov, G'anijon Toshmatov,
Berta Davidova, Saodat Qobulova,
Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov,
Botir Zokirov, Muyassar Razzoqova va boshqa ko'plab shu kabi san'at
ustalaridek buyuk san'atkorlar yetishib chiqsa ajab emas.

3.3. Vokal san'ati pedagogikasida ustoz-shogird tizimi.

Musiqqa san'ati sohasidagi munosabatlar, ta'lim shakllari, turlari, uslub va vositalari, musiqqa va uning tarbiyaviy ahamiyatga oid ta'limotlari, g'oyalari va qarashlaridan zamonaviy talqinda foydalanish ustoz-shogird an'alarini ifoda etish masalalari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi Sharq mutaffakkirlari, shuningdek pedagog olimlar D.Kabalevskiy, N.Vetlugina, rus musiqashunos olimlari V.Uspenskiy, YE.Romanovskaya, E.Gliyer, T.Solomonovlar tomonidan o'rganilgan.

Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, o'qitish va tarbiyalash mazmuniga milliy qadriyat va an'analarni singdirish, ularni ilg'or g'oyalar bilan boyitishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan bebaho ma'naviy meros, unitilgan qadriyatlarni qayta tiklash, milliy o'zlikni anglash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy an'ana va qadriyatlar qaytadan mustahkam qaror topishi natijasida o'qituvchi-ustoz faoliyati bo'lajak yuqori malakali mutahassis kadrlarni tayyorlashda nafaqat fan asoslari yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda, balki auditoriyadan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda, ularning iqtidori, qiziqishi va intilishlarini inobatga olgan holda ilmiytadqiqot ishlariga jalb etishda, ularda yuksak ma'naviyatlilikni shakllantirishda "ustoz-shogird" an'alaridan foydalanish ehtiyojga aylanib bormoqda.

Darhaqiqat yuqori malakali muttassis kadrlar tayyorlashda "ustozshogird" tizimining ahamiyati beqiyosdir. Mazkur tizim asosida zamonaviy milliy kadrlarni yetishtirishda ustozning shogird bilan, yaqin, samimiy, oqilona munosabatlarini jonlantirishga qaratilayotgan jiddiy e'tibor diqqatga sazovor.

Shuningdek, mazkur tizim bu ikki ta'lim subyektlari orasida nafaqat ilm-fan ma'lumotlarini o'zaro almashish, balki yuqoridagi xulosa: qaysi fazilat va sifatlar asosida ilmiy tadqiqotlar olib borishga kirishish, olingan bilimlarni amaliyotga

qanday tadbiriq etish, qaysi maqsad va g'oyalar amaliyotiga yo'naltirish va boshqa shu kabi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalari bilan uyg'unlikda olib borishni ko'zda tutmoqda. Demak, bugungi "ustoz-shogird" munosabatlarida ustoz – murabbiylarning o'z izdoshlariga faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmasligiga ahamiyat qaratilayotgani o'ziga xos va muhim xususiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Hatto, tizimning tashkil etilishi va uni yanada takomillashtirishga berilayotgan e'tibor markazida – shogirdlarning ma'naviy kamolotiga g'amhurlik qiltinayotgani alohida fenomendir. Global munosabatlar rivojlanib, turli ahborotlar bilan bir qatorda, rang-barang g'oya va qarashlar shiddat bilan ommaviylashib borayotgan hozirgi davrda, yoshlar ma'naviy kamolotiga e'tibor berish har qachongidan dolzarblashib, "ustoz-shogird" tizimi oldiga ham bir qator vazifalarni qo'yishi tabiiydir.

Har qanday yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularning chuqur bilimga ega bo'lishi – ma'naviy kamolot bilan uyg'unlikda olib borishni taqozo etadi. Yoshlarda kasbiy mahoratni tarbiyalash, ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini oshirish, izlanish, ijod qilish, bir so'z bilan aytganda har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirishda o'ziga xos tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mavjudligi bilan "ustoz-shogird" an'analari katta ahamiyat kasb etadi.

"Ustoz-shogird" an'alarining yana bir xarakterli jihati shundaki, unda shogirdning o'z imkoniyatlariga ishonch, vaziyatni to'g'ri baholash hamda irodaviy sifatleri shakllanadi, eng asosiysi uning ijtimoiy faolligi ustozlar nazoratida bo'ladi. Ustozning eng buyuk burchi – yurt ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan, aql-idrokli, fahm-farosatli va qobiliyatli shogirdlar tayyorlashdan iborat. Ustoz yaxshi shogird tayyorlash uchun avvalo uning o'zi kasbiy salohiyatli, ma'naviy barkamol, keng dunyoqarash va sog'lom fikrga ega bo'lmog'i lozim.

Qadimdan "ustoz-shogird" an'alarida ustoz nafaqat shogirdiga yo'lyo'riq, ko'rsatma beribgina qolmay, o'z navbatida ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o'zidan keyin ish tajribasi, bilim va mahoratini avloddanavlodga o'tishiga imkoniyat yaratgan. "Ustoz-shogird" munosabatlari muayyan dastur, reja asosida olib borilishi maqsadga muvofiq.

Bu borada shogird bilan olib boriladigan ish shakllarida ustoz quyidagilarga rioya qilishi lozim:

- shogirdga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ularni zamon talablariga, jamiyat qonun-qoidalariga mos bilimlar bilan qurollantirish;
- yagona maqsad sari intilishga, ishning natijasini ko'ra bilishga o'rgatish;
- shogirdning ruhiyati, ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsata olish va o'z o'rnida talabchan bo'lish; - o'zini va o'zgalarni hurmat qilishga odatlantirish;

- muvaffaqiyatni ko‘zlagan holda olg‘a odimlash;
- ijobiy qaytuvchan aloqani o‘rnatish;
- tarbiyada turli xil usullardan foydalanishga e‘tibor qaratish;
- tarbiya jarayonida ustozning har tomonlama: ma‘naviy, axloqiy, kasbiy jihatdan namuna bo‘lishi;

- burch, mas‘uliyat, javobgarlik hissini shakllantirib borish va hokazo.

Yuqori malakali har tomonlama yetuk mutahassis kadrlar tayyorlashga qaratilgan “ustoz-shogird” an‘analarida quyidagi pedagogik tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- onglilik va faollik, ya‘ni egallayotgan u yoki bu faoliyatning o‘ziga xos jihatlari, mohiyatini ongli tarzda to‘liq anglab yetish, uning istiqboli va ravnaqida faollik bilan harakat qilish;

- ta‘lim-tarbiyaning turmush, hayot bilan chambarchas bog‘liqligini inobatga olish;

- o‘qitish, tarbiyalash mazmuni va shogirdlik bosqichlari izchillik bilan belgilab qo‘yilgan aniq mantiqiy tartibga ega bo‘lishi;

- ilm-fanning sir-asrorlarini egallashda puxtalik;

- shogirdning yoshi va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

- mutaqqillikka, ijodiy izlanishga yo‘naltirib borishda nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog‘liqligini hisobga olish;

Yuqorida ta‘kidlanganidek ta‘lim-tarbiya tizimida “ustoz-shogird” munosabatlarin shakllantirish va rivojlantirish ta‘lim-tarbiyaning yanada samaradorligini oshishiga yordam beradi, yuqori malakali shogird tayyorlashdan ko‘zlangan samarani beradi. Pedagogik ta‘limot g‘oyalariga ko‘ra amaliy ko‘nikma va malakalar bevosita mashqlantirish, ya‘ni muayyan faoliyatni amalga bevosita bajarish orqali shakllanadi.

“Ustoz-shogird” an‘anasi esa talaba-yoshlarda bevosita ishlash, ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, mavjud iqtidorlarini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Bu kabi holatlar yoshlarni nafaqat mehnat va ishlab chiqarish faoliyatiga mas‘uliyat bilan yondashish, balki o‘zgalar mehnatini qadrlash, halol mehnat qilish, mehnat samaradorligidan g‘ururlanish kabi ma‘naviy-axloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi. Farzand tarbiyasida sharqona, qadimiy ajdodlar urf-odatlarini, an‘analari, axloq-odob qoidalariga amal qilishda xalqimizning milliy tarbiya tizimidan unumli foydalanishga alohida e‘tibor berish va bu borada ustozlar o‘z kuchi, aql-zakovotini ayamaskliklari lozim.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, hozirgi keng qamrovli demokratik islohotlar muhitida kelajak avlodning vatan ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘sha

oladigan yuqori malakali kadrlar qilib tarbiyalash davr talabiga aylandi. Bu borada ta'lim-tarbiya tizimida "Ustoz-shogird" an'analari imkoniyatlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

3.4. Xorijiy adabiyotlar tahlili, ta'lim jarayoniga tadbqiq etish masalalari

Vokal san'atida stilistik yo'nalishlar akademik ijrochilik yo'lida ham shakllangan. G'arbiy Yevropa, Fransiya, Nemis, Rus, O'zbekiston vokal san'ati o'z tarixiga ega.

G'arbiy Yevropa vokal san'ati tarixi. G'arbiy Yevropa vokal san'atining tarixi Italiyalik milliy vokal maktabi. Ilk opera mualliflari. XVI-XVIII asrlarda Italiyadagi florensiyalik, neapoletan, venetsian opera va vokal maktablari. XV-XX asrlarda italyan vokal pedagogikasi. A.Skarlatti - Bel canto asoschisi. J.Verdining ijodi-milliy opera maktabining cho'qqisi. Buyuk xonandalar: V.Arkili, J.Rubini, J.Pasta, A.Patti, F.Tamanyo, M.Kallas, R.Tebaldi, Mario del Monako va boshqalar.

Fransiya vokal san'ati tarixi. Fransuz milliy vokal maktabining tuzilishi va rivojlanishi. J.Lyulli lirik tragediyalarning yaratuvchisi. Operada rechitativ o'rni. X.Glyukning opera reformasi. Uning qo'shiqchilarga talablari. Katta fransuz operasining shakllanishi asoslari. F.Ober, D.Meyerber-yangi janr yaratuvchilari. Fransuz vokal pedagogikasi. Fransuz opera ijrochilari: A.Nurri, J.Dyupre, M.Malibran, P.Viardo.

Nemis milliy vokal maktabi. Nemis opera yaratilishi va uning rivojlanishi. G.Shyuts - birinchi nemis opera bastakori. Gamburg operasi, Realistik opera dramaturgiya yaratilishida V.Motsart ijodining ahamiyati. K.M.Veber ijodida nemis milliy operasining tasdiqlanishi. Nemis vokal pedagogikasining asoschisi; pedagogika rivojlanishi. Nemis buyuk opera xonandalari: A.Lange, I. Xofer, I.Shikoneder, A.Godlib.

Rus vokal san'ati tarixi. Rus operasining yaratilishi va rivojlanishi. Milliy opera teatri yaratilishining muhim asoslari. M.Glinka-kompozitor, pedagog, ijrochi, rus opera va vokal maktablarining ilk asoschisi. Glinka operalarini sahnaga qo'yilishi va rus opera qo'shiqchilarini o'sishida ularning ahamiyati. O.Petrov, A.Vorobyova-Petrova, M.Stepanova, S.Gulak-Artemovskiy-Glinka operalarining ilk ijrochilari. Kamer-vokal janrida Dargomijskiy ijodining ahamiyati. P.Chaykovskiy va Moguchaya kuchka bastakorlarining opera va vokal ijodi. S.Mamontov rejissyor-novator va uning opera teatrining roli. Peterburg va Moskvada konservatoriyalar ochilishi.

Birinchi ustozlar: G.Nissen-Soloman, I.Pryanishnikov, A.Dodonov, U.Mazetti. Rus vokal pedagogikasining rivojlanishi. Buyuk rus opera xonandalari: N.Figner, F.Shalyapin, L.Sobinov, A.Nejdanova, V.Barsova, I.Arkipova, YE.Obrazsova, T.Milashkina, V.Atlantov va boshqalar.

O‘zbekiston vokal san’ati tarixi. O‘zbek operasi tashkil etishining asoslari. O‘zbek opera va vokal san’atining rivojlanishi. Milliy vokal ma’daniyati. Shoshmaqom-milliy professional san’ati yodgorligi. M.Qori- Yoqubov va Tamara Xonim ijodi. M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning ilk «Bo‘ron» o‘zbek operasi. K.Zokirov, X.Nasirova, M.Mullajanov, M.Qori- Yoqubov shu operaning birinchi ijrochilari. A.Navoiy nomidagi davlat teatri qurilishi (1947). Rus va o‘zbek bastakorlari operalarining o‘zbek tilida sahnaga qo‘yilishi. O‘zbek opear ijrochilarining vokal mahorati tiklanishida ularning ahamiyati. O‘zbek operasi taraqqiyotida va uning propagandasida S.Yudakovning Maysaraning ishi spektaklining ahamiyati. M.Ashrafiy-atoqli bastakor, dirijyor, jamoa arbobi. O‘zbek opera san’atida uning ijodining ahamiyati. “Dilorom” operasi. S.Qobulova, S.Yarashev, K.Zokirov- shu operaning ilk ijrochilari. Samarqandda (1964-1991) opera teatrining mavjudligi. O‘zbek operasi rivojlanishida teatrning ahamiyati. Mustaqillik davri mobaynida M.Burxonovning Alisher Navoiy, A.Ikromovning Buyuk Temur, M.Bafoyevning Al-Farg‘oniy va boshqa operalarning yaratilishi.

O‘zbekistonda jaz musiqasi. Jaz O‘zbekiston musiqasi madaniyati kesimida ham bugungi kunda o‘z muxlislariga ega. O‘zbek kompozitorlari ijodida simfojaz uslubi paydo bo‘lganligini musiqashunls-olimlar keyingi davrlarda e’tirof etishmoqda. XX asr ikkinchi yarmida jaz va ommaviy musiqasi ijobiy va ayrim hollarda salbiy ta’sir kuchi sifatida ham tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. “Ommaviy madaniyat”ning bir ko‘rinishi sifatida yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayotgan ta’siri OAVlarida tez-tez e’tirof etilmoqda.

Jaz va Rokning ijtimoiy hayotga ta’siri. XX asr AQSH ijtimoiy – qo‘shiq folklorida siyosiy qo‘shiq janri sifatida shakllanib, XX asr ikkinchi yarmida yoshlar harakati va ijtimoiy-norozilik qo‘shiqlari yaratilishiga turtki bo‘ldi. XX asr musiqasi madaniyatida estrada musiqasi, Rok yo‘nalishining shakllanishi va rivoji asosan professional kompozitorlar ijodida namoyon bo‘lmoqda. Rok musiqasi uslub va yo‘nalishlarining tavsifi ensiklopediyalar sahifasidan ham o‘rin olgan.

O‘zbek musiqasi madaniyatida ommaviy janrlar. Kompozitorlarimizning ommaviy janrlarda yaratayotgan asarlari “ommaviy madaniyat” namunalariga qarshi qo‘yilib, yoshlarni kelakka, porloq hayotga ishonch ruhida tarbiyalamoqda. XX asr boshlarida, aniqrog‘i 1920-1930 yillarda o‘zbek musiqasi madaniyatining bir yo‘nilishi sifatida o‘zbek qo‘shiqchilik san’ati tez

sur'atlarda rivojlandi. 1920-1940 yillar o'zbek qo'shiqchilik san'ati, 1940-1950 yillar o'zbek qo'shiqchilik san'ati yangi- yangi ijod namunalari bilan alohida-alohida xalqimiz qulog'iga singdi. Bunda mashhur Estrada-simfonik orkestrining faoliyati katta e'tirofga sazovordir. Botir Zokirov o'zbek estrada musiqa maktabi asoschisi sifatida tan olindi. O'zbek qo'shiqchilik san'atida simfojazga asoslangan professional asarlar yaratildi. 1960-1980 yillar estrada xonandalari ijodi yangicha ijro uslublariga qarab burildi. Bunda aranjirovka san'atining ta'siri katta bo'ldi. Estrada qo'shig'i o'zbek kompozitorlari ijodidan munosib o'rin oldi. 1980 yillarda "Yalla" kabi vokal-cholg'u ansambllari paydo bo'ldi. 1990-2016 yillarda o'zbek estrada musiqasi o'zbek estrada musiqasi shou-biznes tizimida ham o'z shrniga ega bo'ldi.

O'zbekistonda akademik vokal ijrochiligi. O'zbekistonda akademik xonandalik ta'limi shakllandi, vokal pedagogikasining rivojlanishi dunyoga mashhur bo'lganini katta sahnalarga chiqayotgan yosh avlod vakillari mahoratida ko'rinib turibdi, albatta. O'zbekistonning buyuk opera xonandalari: M.Qori-Yoqubov, X.Nosirova, N.Axmedova, S.Qobulova, S.Yarashev, A.Azimov, N.Xoshimov, Q.Muhitdinovlar san'at maktablarini bugungi kunda M.Razzoqova, N.Sultonov, A.Rajabov, R.Usmonov kabilar davom ettirmoqdalar.

Nazorat savollari

1. Yakkaxon xonanda uchun mo'ljallangan kamer musiqiy-she'riy asar qaysi?
2. O'zbek operasi san'ati darg'alari kimlar?
3. Meyordagi tovush balandligidan chekinish yoki noaniq kuylash qanday nomlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Y.Rajabiy. «O'zbek xalq musiqasi I, II, III, IV, V». – T., 1958.
2. Turli mualliflar. Nota adabiyotlari. 1956-2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda
3. Razzoqova M.Q. Akademik xonandalik asoslariga kirish. – Toshkent: 2014, Sharq. – B. 200.
4. D.Amanullayeva. «Estrada xonandaligi». Magistrlar uchun darslik (qo'lyozma). – T., 2014.
5. D.Amanullayeva. Vokalizlar (qo'lyozma). – T., 2014.

4-mavzu: Ovoz hosil qilish jarayonining anatomik va gigiyenik talablari. Artikulyatsiya va diksiy. Ovoz postanovkasi uslub va usullari. Ovoz xosil qilish jarayoni.

Reja:

- 4.1. Ovoz hosil qilish anatomik va gigiyenik talablari.
- 4.2. Artikulyatsiya va diksiy. Ovoz postanovkasi uslub va usullari. Ovoz hosil qilish jarayoni.
- 4.3. Vokal san'atining o'ziga xos tomonlari.
- 4.4. Uslublar, yangi milliy musiqa maktablarining paydo bo'lishi, kasb sifatida shakllanishi, sozanda va dirijyor kasbiga nisbatan qo'yiladigan talablar.
- 4.5. Vokalist-katta bilim va tajribaga ega ijodkor, tashkilotchi va boshqaruvchi sifatida.
- 4.6. Zamonaviy dirijyorlik san'ati maktablari.

***Tayanch iboralar:** anatomik va gigiyenik talablar, ovoz postanovkasi, artikulyatsiya, diksiya, zamonaviy dirijyorlik, vokal uslublari,, vokalist, san'at, ovoz postanovkalari.*

4.1. Ovoz hosil qilish anatomik va gigiyenik talablari.

Xonandalik faoliyati barcha mehnat kabi ishlash va hordiq chiqarishda o'zining meyoriga amal qilishini, ularni vaqt bo'yicha to'g'ri taqsimlashni talab etadi. Xonanda – bu eng avvalo sog'lom, ruhiyati tetik, asablari baqquvat, muskul faoliyati yaxshi va ichki a'zolari sog'lom inson. Ishga layoqatliligini tiklash uchun 7-8 soatlik uyqu zarur. To'g'ri ovqatlanish juda muhim. Xonanda so'lak pardalarini qitiqlovchi o'tkir taomlardan qochishi, shuningdek o'ta issiq yoki o'ta sovuq ichimliklar iste'molidan o'zini tuta bilishi kerak. Tunda to'yib ovqatlanmasligi muhimdir. Har kanday artist u o'zining tashqi ko'rinishiga e'tibor berishi lozim, negaki u sahna ko'rinishini o'zida mujassamlashtirishi kerak. Organizmni chiniqtirish katta ahamiyat kasb etib, xonanda doimo sog'lom, sahnaga chiqishga tayyor bo'lishi shart. Shamollash kabi tez uchraydigan kasalliklar xonandaning ish meyorini uzoq muddatga buzib yuboradi.

Ashula aytishni o'rganayotganlar, o'zini san'atga baxshida etganlar spirtli ichimliklar iste'moli va chekishdan saqlanishi shart.

Xonanda har kuni ashula aytishga tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun u ma'lum gigiyenik qoidalarga rioya qilishi lozim. Tovush apparatini toliqishdan asray bilishi, ko'p gapirmaslik, ortiqcha kuylamaslik, yuqori notalarni suiste'mol

qilmaslik kerak. Hech qachon tayyorgarlik ko'rmay turib ashula aytish kerak emas. Mashg'ulotlarni shunday taqsimlash lozimki, to'xtamasdan ashula aytish bir soatdan ortmasligi shart.

Ashulachilik ovozlardagi mavjud bo'lgan nuqsonlarini bartaraf etish yo'llari. Ovoz gigiyenasi va xonanda tartibi.

Ko'plab xonandalar ovoz tembrida tabiatan yoki avvalgi o'qish natijasida yo'l qo'ygan kamchiliklarga ega. Bir muncha tez uchrab turadigan tabiiy tembrdan qochish holatiga to'xtalib o'tamiz. Bu eng avvalo vibrato buzilishi bilan bog'liq kamchiliklar bo'lib, u tremolyatsiya, ovozning o'ynab ketishi va tekis (shuttak) ovozdir.

Termolyatsiyada vibrato juda tez va uning amplitudasi kichkina. Avvalo, bu hiqildoq ishidagi ortiqcha zoriqishlar bilan bog'liq. Bu zoriqishlarni yengish jarayoni uzoq muddatli va hamma vaqt ham kerakli samara bermaydi, shuningdek vibrato chastotasidagi nurlarni bartaraf etish, uning chuqurligidagi nuqsonlariga nisbatan bir muncha qiyin kechadi.

Juda kamyob va chuqur vibrato **ovozning «chayqalishi»**, o'ynab ketishi bilan ajralib turadi. Odatda u xonandalarning muskul zoriqishi oqibatida o'zlarining tabiiy tonusini yuqotishiga, keksayib borayotganlarda asab-muskul tizimidagi umumiy tonus pasayishi oqibatiga olib keladi. Ovoz chayqalishining jadallashishida – bu yo'ldosh holat hisoblanib, uning sababi jadallashishga yashiringan bo'ladi. Xuddi mana shu holatga o'quvchi diqqatini tortish kerak.

Shuttak sifatli, tekis ovozda vibrato mavjud emas. Uning sababi bitta – hiqildoqning zo'riqishi, siqiligi. O'kuvchi diqqatini tabiiy jarangdorlikni izlashga qaratish kerak. Ammo vibrato ishlab chiqarishga qiyinchilik tug'diruvchi qattiq ovozlar ham uchrab turadi. Bunday hollarda umuman ravonlik ustida va qisman ovozning titrab chiqishi ustida ishlash lozim.

Zo'riqib kuylash – bu shunchaki kattiq aytish emas, balki tovush apparatining ortiqcha faollik bilan ishlatishdir. Jadal kuylash natijasida asta-sekin tembr o'chirilib, vibrato buzilib, tovush qattiq tebrana boshlaydi. Uni tuzatish juda qiyin kechadi. Jadallashgan jarangdorlik zararini aniq tushunib yetgandagina biror bir natijaga erishish mumkin. Kuch va qattiq kuylash bir xil tushuncha emasligini tushunib yetmoq zarur. Zo'riqtirilgan tovush xonanda tomonidan katta kuch sarflanganiga qaramay tembrni yo'qota borib, sezilarli darajada kam parvozli bo'ladi. Repertuarni o'zgartirish eng yaxshi vosita hisoblanib, bu xonandaning bir muncha tinch yoki elastiklik va nafislikni talab etuvchi tez asarlarni ijro etishga o'tishi bilan bog'liqdir. His-tuyg'uni qo'zqatuvchi, qattiq (baqirib) aytishga undovchi asarlarni tavsiya etish taklif etilmaydi. Jadallikka qarshi kurashishning eng

yaxshi vositasi – ravonlik ustida ishlash. U eshitish apparatini ortiqcha keskinlikdan xalos etadi.

Burunli tovush ashula aytish paytida yumshoq tanglayning tushishi va tovushning burun-xalqum bilan erkin munosabatda bo‘lishiga bog‘liq.

Bunday hollarda o‘quvchi diqqat-e’tiborini yumshoq tanglayni ko‘tartilishga qaratmog‘i lozim.

Tomoq, siqiq tovush milliy kadrlar uchun juda xarakterli, negaki undan an’anaviy ijro uslubida kuylashda foydalaniladi. Siqiq tovushga hiqildoqning noto‘g‘ri ishlashi sabab bo‘ladi, unda tovush boylamlarining jipslashishi juda kuchli va qattiq. Bu bilan kurashishning eng yaxshi vositasi oldin nafas hujumi hisoblanadi, biroq uni suiste’mol qilish kerak emas, aks holda u tovushning sof intonatsiyasini buzib qo‘yishi mumkin.

Ovozdagi bo‘g‘iqlik eng avvalo ovoz boylamlarining nosog‘lom holati bilan bog‘liq. Biroq tovushdagi bo‘g‘iqlik ovoz apparati ishining muvofiqlashtirilmaganidan, hiqildoq muskullarining sust ishlashidan ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda nafas olishni to‘xtatib turish, jarangli va portlovchi undoshlarning qattiq hujumidan foydalanish yaxshi samara beradi.

Odatda soxta intonatsiya ovoz apparati ishi va nafas olishning muvofiqlashtirilmaganidan kelib chiqadi. Yosh xonandalarda intonatsiyaning buzilishi ko‘pincha, nafas olishga to‘g‘ri yondosha olmagan oqibatida yuzaga keladi. Keksaya boshlagan xonandalarda intonatsiyaning pasayishi muskullar umumiy holatining pasayishi bilan bog‘liq.


Kuylashda ro‘y beradigan ko‘pgina kamchilik nutqdagi nuqsonlar bilan bog‘liq. Bunday hollarda logopedda davolanish lozim, negaki noto‘g‘ri talaffuz etish xonandaga badiiy asarlarni yuqori darajada ijro etish imkonini bermaydi.

Xonandalik faoliyati barcha mehnat kabi ishlash va hordiq chiqarishda o‘zining meyoriga amal qilishini, ularni vaqt bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlashni talab etadi. Xonanda – bu eng avvalo sog‘lom, ruhiyati tetik, asablari baqquvat, muskul faoliyati yaxshi va ichki a‘zolari sog‘lom inson. Ishga layoqatligini tiklash uchun 7-8 soatlik uyqu zarur. To‘g‘ri ovqatlanish juda muhim. Xonanda so‘lak pardalarini qitiqlovchi o‘tkir taomlardan qochishi, shuningdek o‘ta issiq yoki o‘ta sovuq ichimliklar iste’molidan o‘zini tuta bilishi kerak. Tunda to‘yib ovqatlanmasligi muhimdir. Har kaday artist u o‘zining tashqi ko‘rinishiga e’tibor berishi lozim, negaki u sahna ko‘rinishini o‘zida mujassamlashtirishi kerak. Organizmni chiniqtirish katta ahamiyat kasb etib, xonanda doimo sog‘lom, sahnaga chiqishga tayyor bo‘lishi shart. Shamollash kabi tez uchraydigan kasalliklar xonandaning ish meyorini uzoq muddatga buzib yuboradi.

Ashula aytishni o'rganayotganlar, o'zini san'atga baxshida etganlar spirtli ichimliklar iste'moli va chekishdan saqlanishi shart.

Xonanda har kuni ashula aytishga tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun u ma'lum gigiyenik qoidalarga rioya qilishi lozim. Tovush apparatini toliqishdan asray bilishi, ko'p gapirmaslik, ortiqcha kuylamaslik, yuqori notalarni suiste'mol qilmaslik kerak. Hech qachon tayyorgarlik ko'rmay turib ashula aytish kerak emas. Mashg'ulotlarni shunday taqsimlash lozimki, to'xtamasdan ashula aytish bir soatdan ortmasligi shart.

Ovoz hosil qiluvchi organlarga quyidagilar kiradi: hiqildoq, og'iz va burun bo'shliqlari, kekirdak va o'pka holati.




5-rasm. Ovoz apparatining tuzilishi:

1 – peshana bo'shlig'i; 2 – yuqori chuqurcha (rakovina); 3 – o'rta chuqurcha (rakovina); 4 – ostki rakovina; 5 – qattiq tanglay; 6 – yumshoq tanglay; 7 – til osti suyagi; 8 – hiqildoq qopqog'i; 9 – qalqonsimon tog'ay; 10 – haqiqiy tovush boylamlari; 11 – kekirdak; 12 – asosiy bo'shliq; 13 – Yevstaxiy trubaning xalqum teshigi; 14 – tanglay bodom bezlari (mandalinas); 11, 15 – bo'yin umurtqasi; 16 – uzuksimon tog'ay; 17 – ovqat o'tish yo'li.

Undan tashqari, ovoz hosil qilishda markaziy nerv sistemasi ham qatnashadi, u ashulachilik jarayonini boshqaradi. Hiqildoq kekirdak (traxeya) va xalqum orasida joylashgan. U uch xil faoliyatini bajaradi: nafas olish, himoya qilish va ovoz chiqarish. Hiqildoq tikkasiga kesilgan holda qum soatga o'xshaydi (6-rasm).

Hiqildoq ichidan shilimshiq parda bilan qoplangan va to'rtta tomoq tog'ayidan



iborat: qalqonsimon, ikkita cho'michsimon va uzuksimon tog'aylar. Ular o'zaro bog'langan va mushaklar bilan ta'minlangan, tomoq tog'aylari yoshiga qarab asta-sekin qattiqlashib suyakka aylanib boradi. Bo'g'izning yuqori bo'limi – ustki boylam bo'shlig'i soxta tovush boylamigacha cho'zilgan. Morganlar oshqozoni nomini olgan, ikki tomonlama chuqurlashgan

qism yolg'on tovush boylamidan haqiqiy tovush boylamigacha cho'zilgan.


6-rasm.

Loringoskop yordamida ko'rilgan hiqildoqqa

kirish va hiqildoq bo'shlig'ining ko'rinishi: 1 – hiqildoq qopqog'i; 2 – hiqildoqning orqa tomoni; 3 – haqiqiy tovush boylamlari; 4 – nafas olish paytida ko'rinadigan kekirdak doirachalari.

Hiqildoqning pastki boylam bo'shlig'i barmoqsimon tog'ayning pastki chekkalarigacha yetadi. Hiqildoqning yuqoridagi teshigi oval shakliga ega bo'lib «hiqildoqqa kirish» nomini olgan, uning oldingi qismida hiqildoq qopqog'i joylashgan (7-rasm). Nafas olinganida hiqildoqqa kirish ochiladi, yutinish paytida hiqildoqqa kirish engashib hiqildoqqa kirishni yopadi. Ovoz hosil bo'lishda hiqildoqqa kirish torayadi, hiqildoq qopqog'i esa uni ustidan biroz berkitib turadi. Ashulachilik ovozi a'lo sifatlari paydo bo'lishi uchun bu holat muhim rol o'ynaydi. Qalqonsimon tog'ay tovush boylamining uzunligiga bog'liq bo'lib, erkaklarda ayollarnikiga nisbatan uzunroq, kuchli rivojlangan.

Bu hiqildoqning kattaligiga ta'sir qiladi – ayollar hiqildog'ining eng kattasi




taxminan erkaklardagi eng kichkina hiqildoq bilan teng. Hiqildoq til ostidagi harakatchan suyakka mahkamlagan va unga umurtqa oldi muskul pardasi bilan bog'langanligi sababli hiqildoq asta va faol harakat qilishi mumkin (8-rasm).

Yolg'on tovush boylamlari ashula aytishda qatnashmaydi, lekin ular tarkibida suyuqlik bilan ta'minlaydigan bezlar bo'lib, ular haqiqiy tovush boylamlarini namlab turadi. Haqiqiy tovush boylamlarining qirg'oqlari sadaf rangga ega. Tovush boylamlarining

ishida ikki guruh muskullari: ichki va tashqi cho'ziq muskullar tovush hosil bo'lishida ishtirok etadi. Mazkur guruhdagilarning har biri ma'lum vazifani

bajaradi. Ichki mushaklar ko'krak registrda tovush boylamlarining uzunligini, yo'g'onligini, kengligini o'zgartiradi, tovush boylamlarining oralig'ini kengaytiradi va toraytiradi.



8-rasm. Hiqildoqni ushlab turadigan tashqi mushaklar:

1 – bir tomoni bilan ostki jag'ga, boshqa tomoni bilan til ostidagi suyakka bog'langan mushaklar; 2 – yuqoridan til osti suyagiga va hiqildoqning qalqonsimon tog'ayga, pastidan esa ko'krak qafasiga bog'langan mushaklar; 3 – yordamchi nafas mushagi; 4 – yuqoridan bosh chanog'iga, pastidan esa til osti suyagiga bog'langan mushaklar.


Tinch nafas olinayotganda boylamlar orasida uchburchak shaklidagi teshik ochiladi – tovush teshigi orqali havo bemalol o'tadi. Ovoz hosil qilishda tovush boylamlari bir-biriga yaqinlashib tovush teshigini berkitadi. Hiqildoq ovqat tushib qolishdan himoya qilish uchun yutingan vaqtda tomoq uchburchakli kemirchak plastinka, ya'ni hiqildoq qopqog'i bilan berkitiladi.

Burunning tarkibi suyakli va kemirchakli skeletdan iborat. Burun bo'shlig'i shilimshiq pardalar bilan qoplangan, bir-biriga teng ikkita yarimlikdan iborat bo'lib, bu joy burun chig'anog'i deyiladi va ularning ostidan bir nechta burun bo'shlig'idagi chiqish joylar ochiladi: peshona, ikkita gaymor, panjarasimon bo'shliqlar.

Xalqum naysimon oraliq tushunilib, yuqorisi bosh miyaning tubi bilan chegaralanadi, pastisi esa hiqildoq va ovqat yo'liga o'tadi. Oldindan unga og'iz va burun bo'shlig'i o'tadi, natijada uchta alohida anatomik qism paydo bo'ladi: burun-xalqum bo'shlig'i, og'iz-xalqum bo'shlig'i va xalqumning o'zi.

Esnash yuqoridan tanglay pardalari bilan, pastdan esa ikki tomonlama tanglay do'g'achasi orqali tilgacha chegaralangan. Tanglay pardasi shilimshiq pardalar plastinka bilan qoplangan va orqaga davom etgan qattiq tanglay hisoblanadi. Kichkina tilcha yumshoq tanglay o'rtasida joylashgan, u o'zining shaxsiy mushaklariga ega.

Hiqildoq nafas yo‘liga – naycha halqali tomoq kemirchaklaridan tarkib topgan traxeyaga davom etgan (9-rasm). Traxeya ikkita yirik bronxga bo‘linadi, u esa hamma narsaning bo‘g‘izigacha maydalab ikkita o‘pka hosil qiladi. Ko‘krak bo‘shlig‘i qorin bo‘shlig‘idan diafragma bilan ajratilgan. Bu kuchli mushak orqasidan umurtqa pog‘anasigacha, oldindan esa oftob o‘ramasi bilan mustahkamlangan. Diafragma nafas olinishida qisqaradi va pastga tushadi, shunda ko‘krak qafasining hajmi ko‘payadi, nafas chiqarilayotganida esa ko‘tariladi. Ammo nafas olish va nafas chiqarishni ongli ravishda nazorat qilish mumkin bo‘lsa ham, diafragma harakatlari bizning ongimizga bo‘ysunmaydi.



9-rasm. O‘pka, bronxlar, hiqildoq va yuqori rezonatorlarning tuzilishi: 1 – o‘pka; 2 – bronx; 3 – bronxiola; 4 – alveolalar; 5 – til; 6 – shiqildoq; 7 – kekirdak; 8 – kichik tilcha; 9 – hiqildoq qopqog‘i

4.2. Artikulyatsiya va diksiy. Ovoz postanovkasi uslub va usullari. Ovoz hosil qilish jarayoni.

Nutq jarayonida talaffuz organlari: lab, jag‘, tilning turlicha harakatiga artikulyatsiya deyiladi.

Artikulyatsion mashqlar, asosan, talaffuz a‘zolarining faoliyatini faollashtirish, keyingi ish jarayoni bo‘lgan nutq tovushlarining aniq talaffuzini ta‘minlashni ko‘zda tutadi. Shuning uchun bu mashqlarga ehtiyoj har bir o‘quvchi va havaskor ijrochining zaruriyatiga aylanishi, ko‘p vaqt sarflanmasa ham, muntazam qaytarilib turilishi lozim.

Tovushlar va so‘zlarning talaffuz etilishiga esa diksiya deyiladi. Aniq va ravshan talaffuz yaxshi diksiya, yamlanish, noaniqlik kabi salbiy xususiyatli talaffuz esa yomon diksiya deb yuritiladi.

Artikulyatsion mashqlarni bajarishda hech qachon zo‘rma-zo‘rakilik, kuchanishga yo‘l qo‘ymaslik kerak, aksincha, mo‘tadillik, erkinlikni ta‘minlab,

mashqlarni eng oddiy, soddasidan murakkablari tomon muntazamlikda o'zlashtirish, nutq organlarini chiniqtirish, o'rgatish yo'li bilan borish kerak. Aks holda mashqlar zarar keltirishi ham mumkin.

Mashqlarni qo'llash davri, miqdori, uslubi o'quvchi va havaskor-ijrochilarning individual imkoniyatlariga bog'liq. Agar ularning nutqida tabiiy nuqsonlar bo'lmasa, mashqlardan yengilgina o'tib ketish va mashqlar faqatgina talaffuzni yanada takomillashtirish maqsadida qo'llanishi mumkin.

P undoshini y yoki l, s undoshini sh shaklida talaffuz etish yoki tish orasidan gapirish kabi nuqsonlar mavjud bo'lsa, ularni bartaraf etuvchi mashqlarni to'liq ijobiy natijaga erishguncha davom ettirish lozim. Bu mehnat hatto yillar bo'yi davom etishi ham mumkin.

Nutq organlarining mo'tadil va normal talaffuzi meyorini ta'minlovchi mashqlar asosan quyidagilardan iborat:

Lab mashqlari. *Yuqori lab mashqi.* Yuqori lab bir vaqtda ikki yonga va yuqoriga tortiladi, «tabassum» holati paydo bo'ladi. Xuddi shunday aktivlik bilan pastga tortiladi va yuqori tishlar usti yopiladi. Mashq bir necha marta qaytariladi va kun sayin lab faoliyati oshirila boradi.

Mashq bajarilishi paytida imkoniyat boricha yuz yo bo'yin a'zolaridan hech birining tirishib-tortishuviga yo'l qo'ymaslik, hammasi erkin holatda bo'lishini ta'minlash kerak.

Mashq paytida pastki lablar pastki tishlar qatorini yopib turadi, jag' erkin (tabiatda oddiy yurish chog'idagi kabi ikki tish oralig'i sal ochiq), boshqa organlar imkoni borichayuqori lab harakatidan xoli bo'lishi lozim.

Bu mashq asosan yuqori labning faoliyatini oshirishni nazarda tutib p, b, m kabi tovushlarning to'g'ri talaffuz etilishini ta'minlaydi.

Pastki lab mashqi. Yuqoridagi tartib to'la-to'kis va aynan pastki lab vositasi bilan bajariladi. Bunda jag'ning qimirlamasligiga alohida e'tibor beriladi.

Birlashtiruvchi mashq. 1 va 2 mashqlar yaxshi o'zlashtirilgach birlashtiriladi (ya'ni ikkalasi navbatma-navbat), birin-ketin bajariladi. Demak, bunda bir marta yuqori lab, keyin pastki lab, keyin yana yuqori lab va shu tartibda (qaytariladi). Umumiy manzara tishlar qatorini lablar vositasi bilan navbatma-navbat «artishni» eslatadi.

Umumiy mashq. Zikr etilgan mashqlar yaxshi takomillashtirilgach, lablar o'tovushini talaffuz etayotganidek hajmda ochiladi va oldinga cho'ziladi; keyin asta-sekin u tovushini talaffuz etarli holatgacha qisqartiriladi, shu holdan tishlar osha og'iz bo'shlig'i tomon qaytariladi; undan keyin ikkala lab tishlar qatorini «artgan» kabi ikki tomonga (bir vaqtda) tortiladi va yana oldinga cho'zilib, boshlang'ich o shaklini oladi. Umumiy manzara **i-e-a-o-o'-u-i** tovushlarini so'zsiz, faqat

artikulyatsiya vositasi bilan bajarayotganga o'xshab ketadi. Mashq avval asta-sekinlik bilan, keyinchalik esa tezroq, bir necha marta qaytariladi.

Bu mashqni har doim eslab turish maslahat beriladi, chunki bu barcha tovushlar talaffuzini takomillashtirishda muhim o'rin egallaydi.

Yuqori labni «tarash» mashqi. Yuqori lab imkoniyat boricha (ikki yonga tortilgan holda) tishlar osha ichkariga qayriladi; jag' bir oz oldinga harakat qilib, pastki tishlar qatori bilan yuqori lablarni «taray» boshlaydi.

Pastki lablarni «tarash» mashqi. Yuqori tishlar qatori harakat qobiliyatidan mahrum ekanligi tufaylipastki lab jag' tishlari qatori osha ichkariga qayriladi va tishlar siquvi oralig'idan chiqib «taraladi».

Ayniqsa 2- va 6-mashqlar **f-v** tovushlarini to'g'ri talaffuz etishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, bu tovushlarni qo'llashda, ayniqsa, o'zbek tilida juda ko'p o'rinsiz o'zgarish, reduksiya hodisasi ro'y beradi.

To'rtinchi va beshinchi mashqlar navbatma-navbat qaytariladi.

Lablarni cho'chhaytirish mashqi. Tishlar qatori bir-biriga zich yopishgan holda, lablar o'zidan uzoqda turgan bir narsani o'pmoqchi bo'lgandek oldinga cho'ziladi, keyin chuqur iljayish holatida ikki yonga tortiladi.

Mashq davomida tishlar ko'rinmasligi, lablar bir-biriga zich yopishgan holda turishi shart.

Lablarni aylantirish mashqi. 7-mashq holatidan lablar yuqoriga, pastga, chapga, o'ngga plyus (+) shaklida harakatlantiriladi. Mashqning takomillashgan ikkinchi bosqichida lablar avval bir tomonga, so'ngra qarama-qarshi tomonga doira shaklida aylantiriladi. Bunda ham albatta lablardan boshqa talaffuz organlarining mashqdan xoli turishini ta'minlash lozim.

B. Til mashqlari. Tilni chiarish va tortishmasi. Bu mashqda til «tarnovcha» etilgan holda (ya'ni tilning ikki chekkasi yuqoriga ko'tarilgan bo'lib, oralig'ida ariqcha - «tarnovcha» hosil bo'ladi) imkoniyat boricha oldinga cho'ziladi va yuqori milklarni, keyin tanglayni silab o'tib, tomoqqa tomon chuqur qayriladi. Bu mashqda asosan til ostidagi jag' bilan bog'lovchi pardaning faoliyati oshiriladi va r,l kabi tovushlarning to'g'ri talaffuz etilishiga imkoniyat yaratiladi.

Lablarni «yalash» mashqi. Tishlar oralig'i bir barmoq sig'arli darajada ochiq bo'lib, til uchi erkin turgan lablar doirasini avval bir tomon, so'ngra qarama-qarshi yo'nalishda «yalab» chiqadi. Mashqda tildan boshqa barcha talaffuz organlari osoyishta turishi lozim.

Yuzlarni turtish mashqi. Til uchi ichkaridan yuzlarni navbatma-navbat turtib bo'rttiradi.

Tilni aylantirish mashqi. Lablar yumuq holda, til uchi tishlarning atrofini avval bir tomonga, so'ngra qarama-qarshi yo'nalishda doira shaklida aylanib

chiqadi. Mashq ovqatlanib bo'lgach, tishni tozalash uchun qilingan urinishni eslatadi. O'quvchining o'zlashtirish va imkoniyatiga qarab mashqning sur'atini tezlashtirish va sekinlashtirish mumkin.

V. Jag' mashqlari. «Esnash» vaziyati mashqi. Til yassi va erkin bo'lib, uch tomondan pastki tishlar qatoriga tegib turadi, jag' bir oz pastga tomon tushirilib, ayni zamonda yengilgina nafas olinadi; kichik til bir oz yoyilib yuqoriga ko'tariladi va shirin «esnash» vaziyati paydo bo'ladi. Aksariyat mashqlardagi kabi bunda ham talaffuz organlarining to'la osoyishtaligini saqlash va asosiy diqqatni havoyo'lining muloyim kengayishini ta'minlashga qaratish kerak. Bu mashq unli tovushlarning to'g'ri talaffuz etilishini va tish orasidan gapirish nuqsonining oldini olishni ta'minlaydi.

Jag'ni oldinga harakat qildirish mashqi. Til oldingi mashqdagi kabi erkin va yassi holatda turib, jag' bir oz pastga tushiriladi va oldinga, orqaga qarab harakat qiladi. Zohiran, bo'rttirilgan i va i tovushlarini mashq qilish vaziyatini eslatadi.

Jag'ni ikki yonga harakat qildirish mashqi. Yuqoridagi mashq holatida jag' ikki yonga shoshilmay borib keladi. Keyin mashqni yengillashtirish va tezlashtirish mumkin.

«Kavsh qaytarish» mashqi. Avvalgi mashqlar holatidan jag' o'ngga, pastga, chap yondan yuqoriga ko'tarilib doira yasaydi va shu harakat teskari yo'nalishda ham qaytariladi.

Barcha jag' mashqlari aksariyat tovushlarning to'g'ri talaffuz etilishida ko'maklashuv bilan birga tish orasidan gapirish kabi ayrim kamchiliklarni yo'qotishda ham muhim ahamiyatga ega.

Artikulyatsiya va diksiya mashqlarini muntazam qaytarishdan tashqari birinchi bosqichda o'qiyotgan talabalarning soniga, ularning har biriga xos imkoniyatlariga qarab, tez aytish, maqol va topishmoqlardan kompozitsion lavhalar tuzishni o'rgatib borish kerak. Bu esa o'z navbatida talabaning nutqi ravonligiga, o'ylash-fikrlashga va muomala qilishga o'rgatadi.

4.3. Vokal san'atining o'ziga xos tomonlari.

Vokal san'atiga o'rgatish - bu nihoyatda uzoq, og'ir jarayondir, unda tizimlilik bo'lishi zarur.

Hozirgi qo'shiq aytishga o'rgatish maktablarida u ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalish bu mashqlar va vokalizmlar yordamida qo'shiq ovozi hosil qilish va ovozshunoslik malakalarini egallashdir. Ikkinchi yo'nalish-asarlarning badiiy mohiyatini u yoki bu darajada o'rganishni nazarda tutadi,

shuningdek talabani vokal adabiyotining boyligi bilan tanishtiradi. 1-yoʻnalish ishning 2-bosqichiga asoslanadi.

Yaxshi poydevorsiz yaxshi bino boʻlmaganidek yaxshi vokal maktabisiz yaxshi qoʻshiqchi ham boʻlmaydi, u qanchalik iqtidorli boʻlmasin bari bir yuksak niyatiga erisha olmaydi.

Ammo bu ikki yoʻnalishni uygʻunlashtirish boshlovchi qoʻshiqchi vokal malakalari va mashqlardagi tasavvurlarni oʻzlashtirishga ulgurmay qolishdek havf tugʻiladi, asar ustida murakkab ish boshlanganda esa talaba oʻzini yoʻqotib qoʻyadi. Baʼzan faqat mashqlar va vokalizmlar bilan kifoyalangan maʼqul, bu bilan talabaga egallangan malakalarini mustahkamlash imkonini beradi va shundan soʻng eng sodda asarlarga oʻtish mumkin.

Boshlovchi qoʻshiqchilar bilan faqat mashqlar va vokalizmlar ustida ishlash anchayin qiyin boʻladi, negaki ularda bu ish bosqichining ahamiyati va muhimligi haqida ham yetarlicha tasavvur boʻlmaydi. U darhol asarni qoʻshiq qilib aytishga intilib mashqlarda zerikib qoladi. Pedagogning vazifasi talabani qiziqtirish, bu ish maqsadini uning ongiga yetkazish, bizning musiqa asbobimiz boʻlgan ovoz aʼzosining muhimligi va zarurligini tushuntirish lozim boʻladi. Boshlovchi qoʻshiqchilarning shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olib repertuar tanlashga eʼtibor berish nihoyatda muhimdir.

Ovoz ustida ishlashda ovoz aʼzolari, umuman tanasining jismoniy holati va mashgʻulotlarining doimiyligi muhimdir. Talabani oʻz tana aʼzolarini “tinglashga” oʻrgatish, uni sogʻlomlashtirish uchun zarur boʻlgan tadbirlarni qoʻllashga urgatish koʻnikmasini hosil qilish zarur.

Ovoz aʼzolaridan kasbiy foydalanish gigiyenasi va madaniyati boʻyicha maʼlumotlar

Ovoz aʼzolari surunkali kasal boʻlgan kishilar qoʻshiqchi, pedagog, yurist singari “ovoz” kasblarini egallamagani maʼqul. Negaki aynan shu holat ularni yaxshi kasb egasi boʻlishlariga toʻsqinlik qiladi. Negaki ovoz aʼzolarini tez-tez kasal boʻlib turishi ularning, ayniqsa yosh pedagoglar va qoʻshiqchilar imkoniyatini cheklab qoʻyadi. Ammo ovozning kasbiy yaroqliligi nafas ovoz aʼzolarining yaxshi holatiga, balki yurak-qon tomir, asab, mushak, nafas tizimi, qorin, eshitish va koʻrish, xotira kabilarining holatiga ham bogʻliq boʻladi.

Baʼzan ovoz aʼzolari meyorda, ovozning oʻzida esa muammo boʻlishi mumkin. Bunda ovoz aʼzolarining vazifasini buzilishi sabablarini qidirish kerak boʻladi, sabab esa koʻp boʻlishi mumkin. Negaki yuqorida sanab oʻtilgan tizimlar kishilar oldida chiqish qilayotgan odam tanasi ishida ishtirok etadi. Shuning uchun ovoz bilan bogʻliq kasbga tayyorlovchi oʻquv yurtlariga talabalar qabul qilishda ularning tibbiy koʻrsatkichlariga jiddiy eʼtibor berish zarur boʻladi.

Ovozni meyorda rivojlanishi va undan foydalanishga to'sqinlik qiluvchi patologik o'zgarishlarga yo'l qo'ymaslik uchun foniator abituriyentlarning tomoq a'zolariga e'tibor berishi lozim bo'ladi.

Bodomsimon bez. Katta bodomsimon bezlar yumshoq tebratkichlarning ayrim qismlari harakatini qiyinlashtiradi, bu to'g'ri talaffuzga xalaqit beradi. Bemorlashgan bodomsimon bez tomoq, traxeyani tez-tez og'rib qolishiga olib keladi.

Adenoid o'simtalar. Dimog'dagi adenoid o'simtalar burunni doimiy bitib qolishiga olib keladi, shuningdek suyuqlik ajratib pastki nafas yo'llarini kasallanishiga olib keladi, ovoz esa ping'illab qoladi.

Tishlar. Kasal tishlar bodomsimon bezlarni ham kasallantiradi, halqum shilliq pardasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu ovozni buzilishiga olib keladi.

Eshitish a'zolari. Yaxshi eshitish, sog'lom ovoz a'zolari- bu ovoz bilan ish ko'ruvchi kasblarda eng muxim jihat hisoblanadi.

Ichki sekretiya bezlari. Ulardan chiqadigan garmonlar tana shakllanishi, o'sishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Yuqoridagilarning barchasi ayniqsa o'sayotgan yosh tana uchun muximdir. Biror bez ishi buzilsa ovoz a'zolarining anatomik rivojiga ta'sir qiladi, shuning uchun o'sib kelayotgan yoshlarni doimiy kuzatish zarur bo'ladi. Ko'pincha ovoz bilan bog'liq kasb egalari sog'lom, yaxshi ovozga ega bo'ladi, ammo ovoz gigiyenasiga rioya qilmay, u o'z ovozining eng yaxshi xislatlarini yo'qotadi va haqiqiy mahoratni egallay olmaydi.

Har bir ovoz bilan ish ko'ruvchi shaxs ovoz gigiyenasi bo'yicha eng oddiy bilimga ega bo'lishi kerak va kasb, kun tartibiga rioya qilishi zarur. Aynan shu narsa kasb madaniyatining jihatlaridan biridir, bunga oddiy tibbiy bilimlar ham kiradi.

Gigiyena qoidalariga rioya qilish va boshqalarni ham bu sohada madaniyatli bo'lishga o'rgatish lozim. Yuqoridagi ma'lumotlar ovoz hosil qilish va uning gigiyenasi sohasidagi nuqsonlarni bartaraf etish va uning anatomiyasi haqida ma'lumotlar berish uchun ovoz bilan bog'liq mutaxassislar tayyorlaydigan o'quv yurtlari dasturlariga kiritish zarur.

Gigiyenik talablar kasb mahorati darslarida va mehnat faoliyatida albatta e'tiborga olinishi zarur, shunda ovoz a'zolari yuzasidan tibbiy yordamga muhtojlik sezilmaydi.

Ish chog'ida tashqi va ichki ta'sir etuvchilar bo'ladi:

Ichki ta'sirlar:

1. mushaklar faoliyati;
2. asab tizimi faoliyati;
3. nafas a'zolari, yurak ishi;

4. eshitish, ko'rish a'zolari ishi;
5. xissiy ta'sirlar;

Tashqi ta'sirlar;

1. Ishchi vaziyat;
2. yorug'lik;
3. boshqa shovqinlar, tovushlar;
4. darsga kirgan begona shaxslar;
5. pedagog gaplari.

faqat qo'zg'atuvchilarning salbiy ta'sirini bartaraf etib, mashg'ulot yoki ish uchun maqbul sharoit yaratib biz har qanday ijodiy faoliyat uchun kutilgan natijani olishimiz mumkin. Nihoyat, kasb kasalligini oldini olishga yordam beruvchi gigiyenik qoida va usullari, so'ngra ko'p tarqalgan kasalliklar va oddiy tibbiy ma'lumotlar haqida so'z yuritish zarurati vujudga kelganligi sezilib qoldi.

Haqiqiy kasbiy ovoz hosil qilish uchun zaruriy sharoitlar

1. Ruhiy va ahloqiy sharoit. Sog'lom, meyordagi ijodiy ish bilan shug'ullanish uchun eng avvalo meyordagi osoyishta ruhiy muxit zarur bo'ladi, bu asabozlikning oldini oladi. Negaki asabozlik holatida eng avvalo ovozga putur yetadi. Muloqot madaniyati- bu sog'liqni asrashning bosh shartidir. O'qish va ish paytida majburiy sun'iy usullarni qo'llab bo'lmaydi, tajovuz va adovatga umuman yo'l qo'ymaslik kerak. Muloqot chog'ida tabiiylik va xayrihohlik zarur bo'ladi. Har bir kishiga uning xususiy jihatlarini hisobga olgan holda yondashish lozim.

2. Ustozlarning fiziologiya va gigiyena sohalarida yetarli bilimga egaligi. Vokal- musiqa sohasida yetarli mehnat qiladigan har bir shaxs har qanday ovozning tabiati va xususiyati, uning fiziologik imkoniyatlarini bilishga jiddiy e'tibor berishi kerak. Bu pedagoglar, dirijyorlar, konsermeysterlar, xormeysterlar va, ayniqsa, kompozitorlarga tegishli, negaki ko'pincha asarlar ovozning tabiiy imkoniyatlarini hisobga olmay yaratiladi.

3. Mashg'ulot va repetitsiyalardagi tizim. Bu nihoyatda muhim holatdir, negaki asab tizimi faoliyatining asosiy mexanizmlarining ishi aynan shu tizimga bog'liqdir. Tizim va mashg'ulot jismoniy yetuklikni ta'minlaydi va ko'nikmalarni hosil qiladi. Mashg'ulotlar tizimining mukammalligi ham ijodiy, ham jismoniy natijalar beradi, kasb kasalliklarini kamaytiradi, kasb mahoratini mukammallashtiradi. Notekis, yetarlicha bo'lmagan mashq ovoz a'zolarini charchashi, chidamsiz bo'lib qolishiga olib keladi.

Ovozdan samarasiz foydalanish ovoz hosil qilish a'zolarini kasallanishiga olib keladi. Talabalarni o'z tanasiga quloq solishiga, uning imkoniyatlarini bilishga o'rgatish lozim. Bu o'quv jarayonini jadallashtirishga, ovoz bilan bog'liq a'zolarini asrashga o'rgatadi. Maxsus o'quv yurtining dasturi to'laqonli kasb mahoratiga ega

bo'lgan mutaxassisni tayyorlashdek vazifaga yo'naltiradi. Buning uchun ishlab chiqilgan amaliy mashqlardan iborat doimiy ravishdagi mashg'ulotlar uchun tegishli miqdorda dars soatlari ajratish lozim bo'ladi.

4. Kasal bo'lganda nafaqat qo'shiq aytish, balki repetitsiyada bo'lish ham tavsiya etilmaydi. Kasallik paytida tanani va umuman ovoz a'zolarini zo'riqishdan asrash kerak. Aks holda ularni ishdan chiqarib qo'yish mumkin. Ovoz a'zolarida ro'y berayotgan o'zgarishlarni darhol o'rganish lozim.

5. Ovozni charchashdan asrash lozim. Agar ovoz a'zolariga ortiqcha yuk tushgan bo'lsa, ovoz chiqarmaslikka intilib, ularga dam bergan ma'qul. Bugungi kun ijodiy ishning keyingi kunlari uchun ham zarur ekanligini unutmaslik kerak.

Charchash ovozni yo'qotib qo'yguncha davom etishi mumkin. Ovoz a'zolariga ortiqcha yuk tushganda ovoz jarangdorligini yo'qotib, og'irlashib qoladi. Ovoz a'zolariga dam berish-eng yaxshi davo hisoblanadi. Yosh ovozlarni tarbiyalash va ulardan foydalanishga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur bo'ladi. Kasbiy faoliyatda slg'liqni saqlash meyori belgilanadi.

Pedagog, ma'ruzachi, ekskursiyachi kabilarga uzluksiz ravishda orada 15 min. tanaffus bilan bir kunda to'rt akademik soat ishlash meyor qilib belgilangan. Tana a'zolaridan to'g'ri foydalanish ularni kasallanishdan asraydi.

6. Ruhiy va jismoniy charchash zarari. Tanlovlarga shoshilinch tayyorlanish chog'ida ko'pincha kasbiy kasallik paydo bo'ladi. Bu ortiqcha jismoniy zo'riqish, asab tizimiga yuk tushganda ham ro'y beradi.

Kasb gigiyenasi ko'rsatadiki, ba'zi aqliy faoliyat turlarida ham ko'plab jismoniy kuch sarflanadi. Masalan, yuir soat fortepiano chalish, bir soat toqqa chiqqandek bo'lar ekan.

7. Tovushni hech qachon kuchaytirmang. Ovoz boricha qo'shiq aytib bironvi hayratga solish shart emas.

8. Qiyin asarlar va yuqori notalarda qayta-qayta qo'shiq aytish yaramaydi. Bu foyda keltirmaydi, faqat ovozni charchatib xirqiratib qo'yadi. O'ziga xos bo'lmagan ovozda qo'shiq aytish ovoz hosil qilish tizimini buzilishiga olib keladi, zararli shartli refleksni hosil qiladi. Ortiqcha baland ovozda kuylash ovozni ko'proq qaritadi.

9. O'quv yurtlarida mashg'ulotlar jadvali. Jadvalda ovozli va ovoz kerak bo'lmaydigan mashg'ulotlarni o'zaro almashtirib joylashtirilishi zarur. Konsertlar, imtihonlar bo'lib o'tayotgan kunlarda talabaga o'zini jismoniy va ruhiy jixatdan o'nglab olishi uchun ba'zi darslarga qisman qatnashmasligiga ruxsat berish mumkin.

10. To'g'ri vokal ko'nikmalari yetarli bo'lmasa xorda ishlash nihoyatda zararli. Ko'pgina tajribali bo'lmagan vokalchilarni xorda ishtirok etishiga qarshi bo'lishadi.

11. Har qanday vokal ishidan avval xirgoyi ovoz kizdirish mashqi bo'ladi. Bu shunday e'tiborliki, xirgoyi nafaqat ovoz a'zolarini qizdiradi, balki butun tanani qo'shiq aytishga ruhan tayyorlaydi:

-xissiy sohani uyg'otadi;

-ijodiy fantaziyani qizdiradi;

-tovush hosil qilishdek murakkab jarayonni yo'lga qo'yadi (a'zolar mushaklari ishini muvofiqlashtiradi);

-doimiy mashg'ulotlarda ishlab chiqilgan shartli reflekslarni mustahkamlaydi;

-ijodiy e'tiborni jamlaydi. Bu murakkab jarayonlarni egallash kasbiy faoliyatdagi turli qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi, xususan qo'shiq aytish paytidagi xayajonni bosishga yordam beradi.

12. Xarakter sifatlar. Xar bir kasb kishisida intizom, iroda, muqim kayfiyat, e'tibor, o'ziga ishonch singari xislatlarni tarbiyalash lozim. Ular yordamida keyinchalik fojeaga aylanishi mumkin bo'lgan turli sabablarni bartaraf etishga yordam beradi. Yaxshi kasbiy tayyorgarlik, ijodiy jarayon haqida yaxshi tasavvur hosil bo'lgandan keyingina o'ziga va o'z kuchiga kasb jihatdan ishonch hosil qiladi.

13. Doimiy ovoz sifatini saqlash. Bu ham eng muxim talablardan biridir. Anchayin tajribali va iqtidorli qo'shiqchilar ham o'z ovozi jarangini tekshirib turishi kerak bo'ladi. Har bir qo'shiqchi o'z shartli refleksi, ovoz hosil bo'lishiga asoslanadigan qo'shiqchilik malakalarini tiklab, doimiy nazorat qilib borish foydalidir. Qo'shiqchi o'z ovozigacha o'rganib qoladi, o'zining ba'zi yo'qotishlarini sezmaydi. Buning uchun "begona quloq" eshitib baho bersa ma'qul bo'ladi.

Eng ma'quli bunday "eshitish" ishlari qo'shiqchiga avval dars bergan o'qituvchi bilan o'tkazilsa ma'qul bo'ladi. Bu avvalari yaxshi natija bergan qo'shiqchilik malakalarini tez tiklash imkonini beradi. Pedagogni faqat ta'lim boshida almashtirish tavsiya etiladi. U pedagogdan bunisiga o'tib yurish yaramaydi. Har qanday pedagogning talablari, metodlari, terminologiyasi bir-biridan farq qiladi, bu yosh qo'shiqchida ikkilanishlarni vujudga keltirish.

14. Chiqish qilayotganda o'z kuch va vaqtini jamlay bilishi lozim bo'ladiyu Ma'lumki, omma oldida chiqish qilish juda katta jismoniy va ruhiy kuchni talab qiladi. Har bir qo'shiqchi o'z imkoniyatlarini, tanasini bilishi, chiqish kuni ijod uchue o'z kuchi va tetikligini saqlab qola olishi lozim. Ortiqcha tashvishlarni boshqa kunga qoldirishni ham bilish kerak.

Chiqish oldidan uxlash mumkinmi ekanligini ham yaxshi bilish kerak bo'ladi. Negaki, uyqu ba'zilarga jismoniy va ijodiy faollikni bersa, ba'zilarni bo'shashtirib,

ovoziga ham ta'sir etadi. Har kim o'z chiqishi kuni o'ziga ma'qul sharoitni yaratishi lozim. Bu kunda ortiqcha jismoniy ish bilan shug'ullanish tavsiya etilmaydi.

Faollashtiruvchi va tinchlantiruvchi turli vositalarni iste'mol qilish qat'iyan man etiladi, ular tana faoliyatiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Hayot maromini bilish tavsiya etiladi. U ish yoki o'qish jadvaliga qarab ishlab chiqiladi. Bu sog'liq va uyquga putur yetkazmaslik, tanani charchaib qo'ymaslik uchun zarur bo'ladi.

Dam olishning vazifasi - charchoqni olish, ish qobiliyatini tiklashdan iborat. Inson o'z hayoti davomida mehnatni dam olish bilan almashtirib boradi. Mehnat faoliyati va dam olish yaxshi tashkil etilgan kishining yurak faoliyati yaxshi bo'ladi. Uyqu asab to'qimalari quvvatini tiklashi va asrashini yodda tutish zarur. Yoshi kattalar 7-8 soat uxlashlari lozim, u osoyishta va tinch bo'lishi kerak.

O'zining mehnat va hayot tarzini tashkil etish nafaqat insonning hayot sharoiti, balki uning ruhiy holati, irodasi, o'z hayotini asosiy vazifasini xal etishga qarata olishiga bog'liq.

16. Qo'shiqchi uchun ovqatlanish muammosi ham muhimdir. Shu o'rinda hamma uchun umumiy bo'lgan o'ta issiq, o'ta sovuq, o'ta achchiq taomni yoqtirish bilan bog'liq bo'lgan muammo bor, ular tomoq qismidagi shilliq pardalarga salbiy ta'sir etadi. Har qanday oziqqa har bir kishi o'z imkoniyati darajasida yondashishi lozim bo'ladi, negaki har bir kishining mijozlari turlicha bo'ladi. Eng muhimi ovqat qurilish materiallari ekanligini yodda tutish zarur, u ham tana uchun, ham ovoz uchun quvvat beradi. Negaki, ovoz ham ko'p kuch, yaxshi ovqatlanishni talab qiluvchi jismoniy jarayon hisoblanadi. Ovqatlanish tartibiga e'tibor bermaslik turli kasalliklarga olib kelishi sir emas.

Qo'shiq aytishdan avval yong'oq, pista, pechenye, o'simlik yog'i, shokolod, uzum yemagan ma'qul, negaki bu mahsulotlarning mayda bo'laklari shilliq pardalarda tutilib qolib ovoz a'zolarini aniq ishlashiga xalaqit beradi. Bu oziqlarning mayda bo'laklari tomoqni qichishi, yo'taltirishi mumkin, bu esa ishga xalaqit beradi.

Ovozga bog'liq faoliyat bilan shug'ullanuvchi insonning hayoti va kasb faoliyatiga bog'liq bo'lgan yuqoridagi zaruriy shart va talablarni o'zlashtirib olish va o'z faoliyatiga jiddiy e'tiborda bo'lish zarur. Ovozga ongli munosabatda bo'lingandagina uni bir umrga saqlab qolish mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari yana bir qator foydali tavsiyalarni berish mumkin:

Hech qachon qo'shiq aytib o'qish tashqariga chiqmang, ayniqsa bu sovuq kunlarda zararli. Sovuq paytida ko'chaga chiqishdan avval xona haroratidagi suvdan ichib olishni odat qiling. Bu halqum devorlarini sovutib turadi. Tez o'zgaruvchan harorattan saqlaning. Issiq ovqat yeb ichgandan keyin 15-30 minut xonada bo'lib, keyin tashqariga chiqing.

Sovuq havoda gaplashmang, tez-tez nafas olmaslik uchun tez yurmang va yugurmang. Sovuqotishdan o'zingizni asrang. Muzqaymoq yeyish, yelvizakda o'tirish, shamollash uchun eng oson imkoniyatdir.

Namgarchilik va sovuq paytida poyafzalingizga alohida e'tibor bering. Nam poyafzal darhol shamollatadi. Agar shamollash belgilari paydo bo'lsa oyog'ingizni issiq solib vanna qiling, spirt bilan ishqang, issiq paypoq kiying, issiq-issiq choy iching.

Har bir libos ob-havoga mos bo'lsin. Kiyim, poyafzaldan tashqari bosh kiyimi ham yengil va issiq bo'lishi lozim. Nomos bosh kiyimi tufayli nevrалgiya kasalligi kelib chiqishi ko'p kuzatilgan. O'ta og'ir va issiq bosh kiyim samaralirog'iga almashtirilsa nevrалgiya tezroq tuzaladi. Boshni ortiqcha isitib yuborish boshga qon oqimini kuchaytirib yuboradi, bosh og'rib qoladi, u sovuqqa chidamsiz bo'lib, kasallanishga moyil bo'lib qoladi.

Hayot va faoliyat davomida imkon qadar burun bilan nafas olish tavsiya etiladi. Bu nafas yo'lini chang va infeksiyadan asraydi, shuningdek halqum, bo'g'izni ma'danli suv bilan chayib urish foydali, u shilliq pardalarni yaxshi tozalaydi.

Repetitsiya qilinadigan xona o'ta quruq, changli, sovuq bo'lmasligi kerak (meyor +15 darajadan yuqoriroq bo'lsin).

Chekilgan xonada qo'shiq aytish yaramaydi. Qo'shiqchi ham chekmagani ma'qul. Alkogol va nikotin tana holatini yaxshilamaydi, asab tizimini ham ishdan chiqaradi.

To'q qoringa nutq so'zlash va qo'shiq aytish qiyin bo'ladi, negaki to'la oshqozonning mexanik ta'siridan tashqari, ovqat xazm qilish a'zolari qon oqib kelishini talab qiladi. Bu halqumning erkin mushaklar faoliyatini siqib qo'yadi. Ovqat iste'mol qilgandan so'ng kamida bir soatdan so'ng ovoz faoliyati bilan shug'ullanish mumkin.

Ayollar uchun maslahatlar. Tomoq va boshqa a'zolar og'rig'i paytida indamaslik va uni zo'riqtirmaslik. Bunga amal qilmaslik ovoz faoliyatini buzilishiga va boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi. Bunday paytda qon-tomir tarmoqlari nihoyatda nozik bo'lib qoladi va qon quyilishiga olib keladi.

O'ta noziklik va chiniqmaganlik tomoq og'rig'ini chaqiruvchi omillar hisoblanadi. Ovoz bilan ish ko'radigan kishilar ko'proq shamollashga moyil bo'ladi. Yuqori nafas yo'llari ko'proq shamollaydi. Tomoq og'rig'i sovuqotish, ish sharoiti, asabiylashish va ehtiyotsizlik oqibatida vujudga kelishi mumkin. Tomoq og'rig'ining dastlabki belgilaridanoq o'z-o'ziga birinchi yordam ko'rsatishni bilish lozim. San'at sohasida a'zolarini chiniqtirish bo'yicha bilimga ega bo'lish talab

qilinadi, bu kasallikni ancha kamaytirishga imkon beradi. Quyida aynan shu masala ko'rib chiqiladi.

Tanani chiniqtirish. Chiniqtirish masalasi hammaga tanish. Barcha kishilar chiniqish yaxshi narsa ekanligini yaxshi biladi, ayniqsa bu bizning sharoitimizda juda zarurdir. Ammo kishilar hayotidagi yetishmovchilik va tashvishlar, eng muhimi haqiqiy jismoniy, ovqatlanishi, o'z tanasiga e'tibor madaniyatining shakllanmaganligi kabilar chiniqishiga e'tibor berilmayotganligi sabablaridandir.

Chiniqish doimiy bo'lishi kerak. Agar tana a'zolari sovuqqa o'rgatib borilsa, keyinchalik shamollashga chidamli bo'lib boraveradi.

Sahna faoliyati juda murakkab. Sahnada chiqish qilayotgan kishi tanasiga undagi chiroqlar, yelvizak kabilardan juda katta asabiy-ruhiy va jismoniy, nafas-ovoz og'irligi tushadi. Shuni yodda tutish kerakki, qorin och paytida chiniqish yaramaydi va ovqatlangandan so'ng bir soat keyingina chiniqishga kirishish mumkin bo'ladi.

Keyinchalik havo vannasi, jismoniy tarbiya, sovuq suvda yuvinish, artinish, uqalash singari chiniqish turlarini muvofiqlashtirib yuborish mumkin.

Shamollab qolgan kishilarga uxlashga yotishdan avval doimiy ravishda oyoqni yuvish, sochiq bilan artish va qizarguncha uqalash tavsiya etiladi.

Dastlab yuvinishga kirishgan paytda suv harakati etni junjuktirmaydigan (taxminan +18 daraja) bo'lishi zarur, so'ngra suv haroratini asta-sekin tushirib boraverish mumkin. Bunday chiniqish faqat sog'lom holatdagina boshlash mumkin.

Tomoqni chayish va undan keyin uqalash uning faoliyatini mustahkamlashga imkon beruvchi profilaktik gigenik tadbirlardan hisoblanadi. Buni ovoz a'zolaridan ko'p foydalanadigan kishilarga tavsiya qilish mumkin. Bu usul a'zolari charchashini bartaraf etadi, ularga qon quyilishini kamaytiradi.

Tomoqni yurak tamonga qaratib silash eng sodda uqalash turi hisoblanadi. Uqalash yengil bosim bilan bajarilishi zarur. Tomoq charchog'ini olish, ovoz kuchini qaytarish uchut besh minutlik uqalash yetarli bo'ladi. Bo'g'izni chiniqtirish uchun har kuni burunga +18, +20 daraja iliqlikdagi suv tortib turish foyda beradi, suv asta-sekin sovutib boriladi.

Burun ertalab chayqalgani ma'qul, u yoglar chiniqishiga o'xshaydi. Burunning bir teshigi berkitiladi, boshqasi bilan kaftdagi suv tartiladi, suv shilliq bo'g'izni yuvib og'izga tushadi. So'ngra xuddi shu harakat burunning boshqa teshigi bilan bajariladi.

Suvni shoshmay tortish zarur, aks holda keskin og'riq sezish mumkin. Dastlab suv og'izga o'tmaydi, buning uchun ko'plab mashq qilish zarur bo'ladi.

Bunday protseduraning natijasi kishining aql bilan ishlashiga bog'liq. Burunga tortish uchun har qanday toza suvni yaravermaydi. Faqat natijaga

shoshilish yaramaydi, xatto suv og‘izga tushmagan chog‘da ham u shilliq pardani tozalaydi, uqalaydi, chiniqtiradi.

Yurak-qon tomir va nafas tizimini mustahkamlaydigan gimnastik mashqlari ham juda foyda.

Tana holatini mo‘tadillashtirishga qaratilgan sharqona davolash mashqlarining barcha turlari ham fayda beradi. Ko‘pchilik lo‘killab chopishni yoqtiradi. Eng muximi har bir inson o‘ziga ma’qul chiniqish turini topib olishi zarur.

Chiniqish har bir kishi uchun o‘ta xususiydir, sizning tanangiz holatini yaxshi biluvchi vrach bilan maslahatlashib olish ham foydadan holi emas. Ovoz a’zolari unchalik chidamli bo‘lmagan, nutq va qo‘shiq etayotganda tez charchaydiganlar uchun ovoz a’zolarini mustahkamlashga qaratilgan nafas mashqlari tavsiya etiladi.

Bu mashqlarni xatto jarrohlik amaliyotidan keyingi davrlarda ovoz a’zolarini qayta tiklashda davolash gimnastikasi sifatida foydalansa ham bo‘ladi, ular juda samaralidir. Albatta bu mashqlarni surunkali doimiy ravishda bajarish lozim. Mashqlar osoyishta va e’tibor bilan bajariladi, bunda e’tibor mashq paytida ishlayotgan mushaklarga qaratiladi. Mashqlarni bajarishdan avval xona shamollatiladi, so‘ngra stulga o‘tirib yelkadar tekislanadi, hech narsaga chalg‘imasdan mashqlarni bajarishga kirishiladi.

Nafas mashqlari

1. Burun orqali tez nafas olish va chiqarish (6 marta)
2. Tez burun bilan nafas olib, og‘izdan chiqarish (6 marta)

Bu ovoz a’zolarini o‘zisha hos “uqalash” bo‘ladi.

3. Og‘iz bilan nafas olib, burundan chiqarish (6 marta)
4. Panja bilan berkitib, teshigidan nafas olib, boshqasidan chiqarish (6+6 marta)

5. Burundan nafas olib lablar orasidan chiqarish. Nafas chiqarilganda havo lablar orasidan turtib chiqariladi. Bu mashq lablar mushagini va nafas jadalligini ta’minlaydi.

6. Lunjlar shar singari ishshiriladi. Havo “lablarni cho‘chchaytirib” keskin chiqariladi. Bu mashq chakkaklar mushaklarini va lab mushaklarini faollashtiradi va artikulyatsiyaga katta yordam beradi.

7. Ovozsiz “e” tovushini talaffuz qiling. Bu tovushning yuzaroq va yuqori tishlar ildizida talaffuz qiling (esnagandek). Mashq qattiq va yumshoq tanglaylar mushaklarini faollashtiradi.

8. Boshni o‘ng va chapga yelkaga qo‘llar qarishligini yengib egiladi. Kaftlar chakkaklarga qo‘yiladi va harakat qiyinlashtiriladi. Nafas erkin.

9. Lablar orasida havo simiraladi. Havo o‘pka to‘lgunga qadar nasos bilan simirilgandek olinadi, so‘ngra lablar orasidan butun havo qaytarib chiqariladi. Bosh

aylanishidan ko‘rqmaslik kerak. Dastlab mashq 15 sekund bajariladi, so‘ngra mashq davomiyligi uzaytirilaveriladi: 15, 30,60 sekund va hakozi.

10. Qulay vaziyatda “xirgoyi” qiling (30 sekund). Lablardagi tebranishni xis qilish uchun tishlarga yaqinlashtirilib xirgoyi qiling. Lablar siqiladi, tishlar esa ochiq bo‘ladi. “Xirgoyidan” avval og‘iz ochiladi, so‘ngra faqat lablar yumiladi, chuqur nafas olib xirgoyi qilinadi.

11.Xirgoyidan keyin bo‘sh tomoq orqali tovush cho‘zib talaffuz qilinadi. Lablar va tishlarga yaqinlashtiriladi. Tovush chuqurlashtirilmaydi:

M _____	Z _____
N _____	V _____

12. Ikkinchi bo‘g‘izga urg‘u qo‘yib xuddi shunday tovush cho‘ziladi. Ikkinchi bo‘g‘in aniqroq talaffuz qilinadi.

ma – ma’,	na – na’,	va – va’
ma – mo’,	na – no’,	va – vo’
ma – mu’,	na – nu’,	va – vu’
ma – me’,	na – ne’,	va – ve’
ma – mi’,	na – ni’,	va – vi’

Erkin va qulay talaffuz qilishga intiling. Har bir juftlikdan avval nafas oling.

13.O‘tiring va bir paytda keskin nafas olib, “ox, ax” deng. Shoshilmang, asta ayting. Osoyishta nafas oling. O‘tirganda nafasni chiqaring, turganda nafas oling.

14. Yuzingizni yengil uqalang. Panjalar bilan yuqori tishlar ildizini va yanoqlarni bosib chiqing. Burunni pastdan yuqoriga va yon tomonlarga qarab uqalalb chiqing. Uqalashdan keyin esnoq bo‘lsa, u yaxshi. Tomoq to‘qimalari kislorod bilan yaxshi ta‘minlanayotgan bo‘lsa, u sog‘lomdir, mushaklar faolligi esa kislorod yetkazish berishga xizmat qiladi.

4.4. Uslublar, yangi milliy musiqa maktablarining paydo bo‘lishi, kasb sifatida shakllanishi, sozanda va dirijyor kasbiga nisbatan qo‘yiladigan talablar.

Vokal san‘ati o‘zining betakror ifodasi, boy imkoniyatlari, psixologik – hissiy ta’siri bilan hozirgi kunda ham insonlar qalbidan chuqur o‘rin egallamoqda. Xonandalik san‘ati faqatgina tarixiy ildizga emas, balki o‘ziga xos chizgilar, nutq madaniyati, badiiy adabiyoti, ijrochilik an‘analari, hamda kuylashga bo‘lgan ishtiyoq va uni qabul qila olish kabi xususiyatlarga ega.

Kuylash – inson ichki his-tuyg‘ularini to‘liq ochib, namoyon etib beradigan yagona ifoda vositasidir. Ko‘rinib turibdiki, har bir davrning, har bir millatning o‘ziga xos kuylash (vokal) maktabi va an‘analari mavjud.

Bugungi kunga kelib vokal san‘ati rivojlanib, badiiy ijro darajasini shakllanib ulguriganiga qaramay, hozirda ham klassik *bel canto* ana‘analariga tayangan holda yuksalib kelmoqda.

Zamonaviy opera ijrochisi – faqatgina aktyor – xonanda emas, balki professional darajadagi inson ichki tuyg‘ularini namoyon etib bera oladigan, muallif va postanovkachilar fikrlariga tayanib qolmasdan o‘zining dunyoqarashi, madaniyati bilan o‘z faoliyatini yorqin ko‘rsatib bera oladigan ijodkor hamdir.

Xonandalik san‘ati tarixini o‘rganish jarayonida bu sohani naqadar keng qamrovli va chuqur ildizga ega ekanligi yaqqol namoyon bo‘ldi.

Bu ishni to‘liq o‘rganib, yoritib berish uchun kelajakda yana ham ko‘proq izlanishlar va tadqiqotlar olib borilishi lozim.

1. Musiqa ta‘limi va san‘atida ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarida ilmiy-nazariy ishlarni tashkil etilishi.

Vokal san‘atida stilistik yo‘nalishlar ko‘p asrlar mobaynida, yer yuzining turli qit‘alarida bosqichma-bosqich shakllangan. Xususan, Osiè mamlakatlarida xalq qo‘shiqchiligi, Yevropada cherkov vokal aytimlari, Afrika, Avstraliya, Amerika mamlakatlarida kuylash san‘ati o‘zgacha o‘ziga xoslik bilan rivoj topgan.

O‘zbekiston misolida kuylash san‘ati tarixini kuzatadigan bo‘lsak, kasbiy musiqa sifatida ilk shakllanish davri - Kushon podsholigi davri musiqaga oid ashèviy manbalarida o‘z aksini topgan. Kasbiy musiqa namunalarini yaratishda xalq musiqasi muhim zamin va manba ekanligi olimlar tomonidan e‘tirof etilgan. Kasbiy musiqaning og‘zaki uslubda yashash an‘anasi va rivoj topishi barchaga ma‘lum.

O‘n ikki maqom va Shashmaqom. Maqomlarning qadimiy tarixi o‘zaro farqli ikki yirik davrga ajralgan. Birinchi davr - mazmunini maqomlarning makon-zamon nuqtai nazaridan dastlabki kuy-ohang qatlamlari tashkil etgan. Maqomlarning ikkinchi muhim davri - maqom tizimlarining shakllanish jaraèni bo‘lganligidir. Ayni paytda ularning kasbiy musiqa qatlamining ma‘lum bosqichi, shuningdek, rivojlangan musiqa ilmi, falsafa, matematika fanlari hamda shahar (saroy) madaniy muhiti kabi omillar bilan shartlanganligi ham asoslidir. Alloma Abu Nasr Forobiyning bu boradagi buyuk xizmatlari uning musiqaga oid risolalarida o‘z aksini topgan. O‘n ikki maqom tizimi Urmaviy va Sheroziylarning musiqa ilmiga oid asarlarida èritilgan. Marog‘iy, Jomiy, Husayniy, Kavkabiyy va Changiy kabi amaliètchi va nazariètchi olimlar ham ko‘p izlanishlar qilishgan. O‘n ikki maqom

majmuasiga mansub maqomlar, ovoza va sho‘balar bugungi kungacha saqlab kelinmoqda.

Shashmaqom turkumi - Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq jeb nomlangan bo‘limlardan iborat. Shashmaqom O‘n ikki maqom tizimining milliy (mahalliy) musiqiy makon shart-sharoitlarida rivojlantirilishi natijasida XVIII asr o‘rtalaida uzil-kesil shakllangan. Unda bastakorlik san‘ati an‘analari ilmiy jihatdan muayyan tizimga solinib, tasnif etilgan. Shashmaqom – olti mukammal parda va ularga mos kuy va ashulalar majmuasidir. Uning tarkibidagi maqomlarning har biri yirik shakldagi turkumli asarlardan iborat. Bu maqomlar og‘zaki an‘ana tarzida, ya‘ni ustozdan shogirdga “og‘zaki uslub” vositasida o‘tib, bizning davrga qadar yetib kelgan. Ular Mushkilot (cholg‘u) va Nasr (ashula) bo‘limlaridan iborat.

Nasr bo‘limi. Shashmaqomning ashula bo‘limlari murakkab shakldagi sho‘balardan tarkib topgan. Ashula bo‘limlarida tuzilishi jihatidan bir- biridan ajralib turuvchi ikki xil sho‘balar guruhining mavjud. Bulardan birinchisiga - Saraxbor, Talqin, Nasr kabi sho‘balar va Ufar qismi kiradi. Sho‘balarning murakkab shakliy tuzilmalari mavjud. Namudlar ularning sho‘ba avjlarida keladi. Shashmaqomning II guruh sho‘balari o‘ziga xosdir. Ularning Shashmaqom turkumida nisbatan kech shakllanganligi va ularda nazirago‘ylik an‘anasining o‘ziga xos aks etgan. Savt va Mo‘g‘ulcha nomli sho‘balarning yetakchiligi hamda har birining Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufar nomli shoxobchalaridan iborat. Ushbu shoxobchalarning yuzaga kelishida asosiy sho‘balarning kuy-ohanglari saqlanib, ularda doira usullarining o‘zgarib boradi.

Maqom ijrochiligi an‘analari. Maqom cholg‘u va ashula yo‘llarining tinglovchiga to‘g‘ri yetib borishida ijrochilik san‘atining ahamiyati katta, albatta. Sozanda va hofiz maxsus malakaga ega bo‘lishi, buning uchun “ustoz- shogird” maktabida tahsil ko‘rgan bo‘lishi lozim. Maqomlarni ijro etishda ikki cholg‘u – tanbur va doyraning o‘rni muhimdir. Maqomlarni turli tarkibdan iborat ansambl shakllarida ijro etish an‘anasi mavjud. Maqomlarning turkum shaklida ijro etilishi azaldan shakllangan.

Xorazm maqomlari. Xorazm maqomlari Shashmaqom shaklidir. Shashmaqom Xorazm sharoitiga moslanib, katta o‘zgarishlarga uchragan. Xorazmlik mashhur bastakorlar - Nièzjon Xo‘ja, Feruz. Komil Xorazmiy, Muhammadrasul Mirzo va boshqalar maqomlarga yangi cholg‘u qismlari bastalaganlar. XIX asrda Xorazm maqomlarining Komil Xorazmiy ixtiro qilgan «Tanbur chizig‘i» vositasida èzib olingan. XX asrning 50- va 80- yillarida Matnièz Yusupov tomonidan besh chiziqli nota èzuvlariga olinib, nashr ettirilgan.

Xorazm maqomlarining “aytim yo‘llari”. Xorazm maqomlarining ashula bo‘limi «aytim yo‘li» deyiladi. Ashula bo‘limining tuzilishi, tarkibi o‘ziga xos.

Shashmaqom turkumi bilan o'xshash va farqli jihatlari ham bor. Xorazm maqomlarining mashhur ijrochilari. Xorazm maqomlarining bizga ma'lum bo'lgan mahoratli ijrochilari bir necha avloddan iboratligi. XIX asr boshlarida Komil Xorazmiy, XIX asr ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Komil Xorazmiyning shogirdlari faoliyati.

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari. Bu turdagi maqomlar Buxoro va Xorazm maqomlaridan farqli o'laroq yaxlit bir turkumni tashkil etmay, balki alohida-alohida cholg'u va ashula yo'llaridan iboratdir. Xususan, Baet, Dugoh Husayn, Chorgoh, Gulèr-Shahnoz, Segoh va Nasrullovi kabilar tashkil topgan. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari tarkibida bir qisimli namunalardan, besh-yetti qismgacha bo'lgan turkum asarlarning mavjudligini extirof etish mumkin.

Farg'ona-Toshkent maqom ashula yo'llari. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarida "Farg'ona -Toshkent musiqa uslubi"ga xos bo'lgan - yalla, ashula, va katta ashula janrlarining xususiyatlari namoèn bo'ladi. Ashula yo'llari mumtoz she'riyat asosida "o'qilishi" tadqiqot qilingan, ularni ijro etganlar taniqli ijrochilarning nomlari mashhur . Yovvoyi maqom. Farg'ona- Toshkent maqom yo'llarini katta ashula yo'liga moslab aytish amaliyeti mavjud. Yovvoyi maqom iborasi "usulsiz maqom" o'rnida ham ishlatiladi.

An'anaviylini zamonaviylashuvchi hamda uning omallashuvidagi salbiy xolatlar.

Vokal san'atida stilistik yo'nalishlar akademik ijrochilik yo'lida ham shakllangan. G'arbiy Yevropa, Fransiya, Nemis, Rus, O'zbekiston vokal san'ati o'z tarixiga ega.

G'arbiy Yevropa vokal san'ati tarixi. G'arbiy Yevropa vokal san'atining tarixi Italiyalik milliy vokal maktabi. Ilk opera mualliflari. XVI-XVIII asrlarda Italiyadagi florensiyalik, neapoletan, venetsian opera va vokal maktablari. XV-XX asrlarda italyan vokal pedagogikasi. A.Skarlatti - Bel canto asoschisi. J.Verdining ijodi-milliy opera maktabining cho'qqisi. Buyuk xonandalar: V.Arkili, J.Rubini, J.Pasta, A.Patti, F.Tamanyo, M.Kallas, R.Tebaldi, Mario del Monako va boshqalar.

Fransiya vokal san'ati tarixi. Fransuz milliy vokal maktabining tuzilishi va rivojlanishi. J.Lyulli lirik tragediyalarning yaratuvchisi. Operada rechitativ o'rni. X.Glyukning opera reformasi. Uning qo'shiqchilarga talablari. Katta fransuz operasining shakllanishi asoslari. F.Ober, D.Meyerber-yangi janr yaratuvchilari. Fransuz vokal pedagogikasi. Fransuz opera ijrochilari: A.Nurri, J.Dyupre, M.Malibran, P.Viardo.

Nemis milliy vokal maktabi. Nemis opera yaratilishi va uning rivojlanishi. G.Shyuts - birinchi nemis opera bastakori. Gamburg operasi, Realistik opera dramaturgiya yaratilishida V.Motsart ijodining ashamiyati. K.M.Veber ijodida

nemis milliy operasining tasdiqlanishi. Nemis vokal pedagogikasining asoschisi; pedagogika rivojlanishi. Nemis buyuk opera xonandalari: A.Lange, I. Xofer, I.Shikoneder, A.Godlib.

Rus vokal san'ati tarixi. Rus operasining yaratilishi va rivojlanishi. Milliy opera teatri yaratilishining muhim asoslari. M.Glinka-kompozitor, pedagog, ijrochi, rus opera va vokal maktablarining ilk asoschisi. Glinka operalarini sahnaga qo'yilishi va rus opera qo'shiqchilarini o'sishida ularning ahamiyati.O.Petrov, A.Vorobèva- Petrova, M.Stepanova, S.Gulak-Artemovskiy-Glinka operalarining ilk ijrochilari. Kamer-vokal janrida Dargomijskiy ijodining ahamiyati. P.Chaykovskiy va Moguchaya kuchka bastakorlarining opera va vokal ijodi. S.Mamontov rejissèrnovator va uning opera teatrining roli. Peterburg va Moskvada konservatoriyalar ochilishi. Birinchi ustozlar: G.Nissen-Soloman, I.Pryanishnikov, A.Dodonov, U.Mazetti. Rus vokal pedagogikasining rivojlanishi. Buyuk rus opera xonandalari: N.Figner, F.Shalyapin, L.Sobinov, A.Nejdanova, V.Barsova, I.Arkipova, YE.Obrazsova, T.Milashkina, V.Atlantov va boshqalar.

O'zbekiston vokal san'ati tarixi. O'zbek operasi tashkil etishining asoslari. O'zbek opera va vokal san'atining rivojlanishi. Milliy vokal ma'daniyati. Shoshmaqom-milliy professional san'ati èdgorligi. M.Qori- Yoqubov va Tamara Xonim ijodi. M.Ashrafiy va S.Vasilenkoning ilk

«Bo'ron» o'zbek operasi. K.Zokirov, X.Nasirova, M.Mullajanov, M.Qori-Yoqubov shu operaning birinchi ijrochilari. A.Navoiy nomidagi davlat teatri qurilishi (1947). Rus va o'zbek bastakorlari operalarining o'zbek tilida sahnaga qo'yilishi. O'zbek opear ijrochilarining vokal mahorati tiklanishida ularning ahamiyati. O'zbek operasi taraqqiètida va uning propagandasida S.Yudakovning Maysaraning ishi spektaklining ahamiyati. M.Ashrafiy-atoqli bastakor, dirijèr,jamoa arbobi. O'zbek opera san'atida uning ijodining ahamiyati. "Dilorom" operasi. S.Qobulova, S.Yarashev, K.Zokirov- shu operaning ilk ijrochilari. Samarqandda (1964-1991) opera teatrining mavjudligi. O'zbek operasi rivojlanishida teatrning ahamiyati. Mustaqillik davri mobaynida M.Burxonovning Alisher Navoiy, A.Ikromovning Buyuk Temur, M.Bafoyevning Al-Farg'oniy va boshqa operalarning yaratilishi.

Vokal san'atida stilistik yo'nalishlar estrada-jaz ijrochilik yo'lida ham shakllangan. "Jaz" va "estrada" atamasiga doir tushunchalar hozirgi davrda barcha ma'lum. G'arbiy, Markaziy, Janubiy Afrika xalqlari musiqa madaniyati, Afrika xabashlari mehnat va marosim musiqasi, XVI- XVIII asrlar Shimoliy va Janubiy Amerika musiqa madaniyati, XIX asr AQSH arxaik (qadimiy) ijodièti asosida jaz uslubi shakllandi.

Jaz musiqasining folklor asoslari. Jaz musiqasining folklor asoslangan. Mumtoz (klassik) jaz musiqasi rivojining asosiy tamoyillari va uslublari mavjud. Yangi Orlean jaz uslubi, Chikago jaz uslubi. Sving jaz uslubi endilikda hammaga ma'lum.

Jaz namoyandalari. Mumtoz (klassik) jaz musiqasining ham taniqli namoyandalari yetishib chiqdi. Zamonaviy (modern) jaz musiqasi uslub va yo'nalishlari ham shakllandi. Modern jaz musiqasi taniqli namoyandalari nomlari endilikda musiqa tarixi sahifalaridan munosib o'rin egalladi.

O'zbek an'anaviy ashula ijrochiligi. O'zbek an'anaviy ashula ijrochiligida uch xil usul mavjud. Binnigi, gulligi, ishkami atamalarining ma'nolari va ta'riflari shu xil kuylash usullarini belgilaydi. Binnigi va gulligi usulida aytadigan ijrochilar, ishkami uslubida ijro etadigan ashulachilar nomlari elu yurtga tanish. Ishkamning xanaqoyi gumbazli turi va uning ta'riflari tadqiqotlar obyekti bo'lgan.

Mashhur xonandalarning qisqacha ijodiy faoliyati. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan Ota Jalol Nosir o'g'li 1845-1928 yillarda ijodiy faoliyat olib borgan. Unga Ustozi Kulliy deb nom berilgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1852-1936 yillarda yashab ijod qilib, xonanda, sozanda, bastakor sifatida mashhur bo'lgan. U xonandalikni asosan dutor jo'rligida amalga oshirgan. Mulla To'ychi Toshmuhamedov 1868-1943 yillarda yashab, Farg'ona-Toshkent yo'llarining mashhur ijrochisi hisoblangan. Qurbonniyoz Avazmatov 1868-1961 yillarda, Abdulla Fayzullayev 1869-1944 yillarda, Levi Boboxonov 1873-1926 yillarda o'z ijodiy faoliyatini olib borganlar va san'atimiz rivojiga beqiyos xizmat qilganlar.

Yangi davr maqom ijrochiligi an'analari. Bugungi kunda O'zbekistonda maqomotning uch turi – Buxoro maqomlari, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llariga doir ijrochilik an'analari madaniy merosimizdan birday o'rin egallagan. Y.Rajabiy va F.Sodiqovlarning badiiy an'analari ijodiy davom ettirilayapti. Xorazm maqomlariga xos ko'hna badiiy an'alar Xorazm viloyatining Hojixon Boltayev nomidagi maqom ansambli tomonidan qayta tiklanmoqda. Shuningdek, Farg'ona-Toshkent maqom ijro yo'llariga doir an'alar ansambllar faoliyatida davom ettirilmoqda. Maqom ijrochilarining Respublika tanlovlari no'eb musiqiy madaniy merosimiz keyingi avlodlarga o'tib borishiga katta turtki bo'lmoqda.

Jazning jahon madaniyatidagi o'rni. Jaz - jahon musiqa madaniyati kesimida alohida o'ringa ega katta ahamiyat kasb etmoqda. Rossiyada jaz musiqasining shakllanish bosqichlari kuzatildi va XX asr ikkinchi yarmida estrada – jaz musiqasi yuksaklarga ko'tarildi.

O‘zbekistonda jaz musiqasi. Jaz O‘zbekiston musiqasi madaniyati kesimida ham bugungi kunda o‘z muxlislariga ega. O‘zbek kompozitorlari ijodida simfojaz uslubi paydo bo‘lganligini musiqashunls-olimlar keyingi davrlarda e’tirof etishmoqda. XX asr ikkinchi yarmida jaz va ommaviy musiqasi ijobiy va ayrim hollarda salbiy ta’sir kuchi sifatida ham tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. “Ommaviy madaniyat”ning bir ko‘rinishi sifatida yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayotgan ta’siri OAVlarida tez-tez e’tirof etilmoqda.

Jaz va Rokning ijtimoiy hayotga ta’siri. XX asr AQSH ijtimoiy – qo‘shiq folklorida siyosiy qo‘shiq janri sifatida shakllanib, XX asr ikkinchi yarmida yoshlar harakati va ijtimoiy-norozilik qo‘shiqlari yaratilishiga turtki bo‘ldi. XX asr musiqasi madaniyatida estrada musiqasi, Rok yo‘nalishining shakllanishi va rivoji asosan professional kompozitorlar ijodida namoyon bo‘lmoqda. Rok musiqasi uslub va yo‘nalishlarining tavsifi ensiklopediyalar sahifasidan ham o‘rin olgan.

O‘zbek musiqasi madaniyatida ommaviy janrlar. Kompozitorlarimizning ommaviy janrlarda yarataётgan asarlari “ommaviy madaniyat” namunalariga qarshi qo‘yilib, yoshlarni kelakka, porloq haётga ishonch ruhida tarbiyalamoqda. XX asr boshlarida, aniqrog‘i 1920-1930 yillarda o‘zbek musiqasi madaniyatining bir yo‘nilishi sifatida o‘zbek qo‘shiqchilik san’ati tez sur’atlarda rivojlandi. 1920-1940 yillar o‘zbek qo‘shiqchilik san’ati, 1940-1950 yillar o‘zbek qo‘shiqchilik san’ati yangi- yangi ijod namunalarini bilan alohida-alohida xalqimiz qulog‘iga singdi. Bunda mashhur Estrada-simfonik orkestrining faoliyati katta e’tirofga sazovordir. Botir Zokirov o‘zbek estrada musiqasi maktabi asoschisi sifatida tan olindi. O‘zbek qo‘shiqchilik san’atida simfojazga asoslangan professional asarlar yaratildi. 1960-1980 yillar estrada xonandalari ijodi yangicha ijro uslublariga qarab burildi. Bunda aranjirovka san’atining ta’siri katta bo‘ldi. Estrada qo‘shiqi o‘zbek kompozitorlari ijodidan munosib shrin oldi. 1980 yillarda “Yalla” kabi vokal-cholg‘u ansambllari paydo bo‘ldi. 1990-2016 yillarda o‘zbek estrada musiqasi o‘zbek estrada musiqasi shou-biznes tizimida ham o‘z shrniga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonda akademik vokal ijrochiligi. O‘zbekistonda akademik xonandalik ta’limi shakllandi, vokal pedagogikasining rivojlanishi dunèga mashhur bo‘lganini katta sahnalarga chiqayotgan yosh avlod vakillari mahoratida ko‘rinib turibdi, albatta. O‘zbekistonning buyuk opera xonandalari: M.Qori-Yoqubov, X.Nosirova, N.Axmedova, S.Qobulova, S.Yarashev, A.Azimov, N.Xoshimov, Q.Muhitdinovlar san’at maktablarini bugungi kunda M.Razzoqova, N.Sultonov, A.Rajabov, R.Usmonov kabilar davom ettirmoqdalar.

4.5. Vokalist-katta bilim va tajribaga ega ijodkor, tashkilotchi va boshqaruvchi sifatida.

Yoshlarimizga musiqa san'ati olami va uning jozibasi, go'zalligining bo'ytarovatini anglatish, musiqa sirlaridan bahramand etish davrimizning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada Toshkent davlat pedagogika universiteti «Musiqiy ta'lim» kafedrasida mazkur soha bo'yicha ko'plab ixtisoslik fanlaridan talabalarga samarali bilim, ko'nikma va malakalar berib borilmoqda.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, avvalo, musiqa nazariyasi, cholg'u ijrochiligi va albatta xonandalik (vokal ijrochiligi) bo'yicha bilim, malakalarni puxta o'zlashtirganliklari bilan baholanadi. Musiqa o'qituvchisi qayerda ish olib bormasin, u avvalo, yaxshi musiqa targ'ibotchisi, sozanda, xonanda bo'lishi talab etiladi. Dunyoning rivojlangan davlatlari hamjamiyatidagi etalon, ya'ni qolip sifatida tan olingan xonandalik (vokal) ijrochiligi qonun-qoidalarini milliy ko'shiqchilik san'atimiz an'alarini e'tiborga olgan xolda bekamu-ko'st o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Xonandalik faoliyatida talabalarimiz o'zbek xalq qo'shiq va mumtoz ashulalari, bastakorlar ijodi, kompozitorlar asarlari, jahon xalqlari qo'shiqchiligi namunalari, opera asarlarini kuylash malakalarini shakllantirib borishlari talab etiladi.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirish talabalar uchun murakkab jarayondek tuyuladi. Ammo talabalar kelajakda o'qituvchi sifatida samarali faoliyat yuritishi uchun ovoz haqida kerakli ilmiy-nazariy ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim. Faqat shundagina ular amaliyotda paydo bo'lgan muammolarga bemalol ilmiynazariy yechimlar topishlari mumkin bo'ladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi kuylash malakalarini shakllantirish uchun bu malakalarning nazariy asoslari – vokal musiqa pedagogikasining asosiy tamoyil va uslublari, ovoz hosil bo'lishining psixologik, fiziologik va akustik asoslari, ashulachilik malakalari shakllanishining asosiy yo'llari kabi jarayonlar haqida nazariy-amaliy bilimlarga ega bo'lishlari va zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan yaqindan tanishib olishlari talab etiladi.

Ta'lim jarayonida umumdidaktik va maxsus musiqa pedagogikasining asosiy tamoyillari va ularning mazmun-mohiyati talabalarga singdiriladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Ta'limda tadrijiylik va muntazamlik. O'qitishda soddadan-murakkabga, talabalar ijro diapazonini kengaytirishda, mashqlarni murakkablashtirishda, repertuar tanlashda, lirik asarlardan dramatik asarlarga o'tishda tadrijiylik zarur. Mashg'ulotlarda ovozning sifati, toblanishi, tebranishi, jarangdorligi nazarda tutiladi. Ovozning zo'riqishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

2. Musiqiy-badiiy va vokal texnik rivojlanish tamoyillari. Vokal-texnik ko'nikmalarni shakllantirish o'qituvchining asosiy vazifasidir, chunki ovozini boshqara olmaydigan talaba asar aktyorlik sifatlarini tarbiyalash muammolari birinchi o'ringa o'tadi.

3. Har bir talabaga alohida yondashuv tamoyili. Har bir talabaning ijrochilik darajasi o'ziga xos bo'ladi. Uning ovoz kuchi, tembri, diapazoni, shaxsiy xarakteri va jismoniy tuzilishiga ahamiyat berish kerak. Shu sababli mashg'ulotlarni yuqoridagilarni e'tiborga

olgan holda o'tkazish zarur.

4. O'z-o'zini muntazam ravishda mukammallashtirish tamoyili.

Talabaning mustaqil ravishda ishlashi nihoyatda muhim. U ijodiy jarayonlarda izlanishi, yangilikka intilishi, muntazam fidokorona mehnat qilishi bilan birga mahorat cho'qqisiga ko'tarilishi mumkin. Ta'limning

so'nggi jarayonlarida talabaning mustaqil tayyorlanishiga katta ahamiyat beriladi. Xonandalik malakalari vokal pedagogikasida quyidagi uslublarda shakllantiriladi.

A) Cholg'uli uslub.

Kuylash jarayoni yoki ovoz sozlash mashqlari cholg'u asboblari jo'rligida olib boriladi. Bunda fortepiano, skripka va boshqa asboblarni nazarda tutiladi.

B) Amaliyotga asoslangan (empirik) uslub.

Ushbu uslub qadimgi italyan maktabida keng tarqalgan. XVI-XVIII asrlarda vokal o'qituvchilari mahoratli xonanda bo'lishlari shart edi. Ularning asosiy shiori «Men kuylaganimdek kuyla» bo'lgan.

V) Konsentrik uslub.

Bu uslub asoschisi buyuk rus kompozitori Mixail Glinka hisoblanib, uning aytishicha, ovozni qulay va chiroyli kuylanadigan notalardan boshlab diapazonni kengaytirish ustida ish olib boriladi.

G) Primar (qulay) ton uslubi. Bu uslubning asoschisi nemis pedagogi F.Shmittning fikricha, primar (qulay) ton diapazonning o'rta qismida joylashgan. To'g'ri shakllantirilgan ovoz diapazonning kengayishiga olib keladi.

Biz o'z tajribalarimizdan kelib chiqib navbatdagi uslublarni joriy qildik.

Bu uslub orqali talabalar kuylanishi noqulay va murakkab bo'lgan jumla va matnlarni «Rananna, rananna», «Lyallallya» orqali tez va qulay kuylab ketadilar.

2. Tanish ohanglar uslubi (uslub muallifi D.Qodirov). Talaba mashg'ulotlar chog'ida o'rganilayotgan asar g'oyasiga yaqin bo'lgan muqobil ijrosi

tanish bo'lgan asarlar ijrolaridan keng foydalanib boriladi. Sababi, bunday qo'shiqlarni talabalar baralla, avj pardalaridagi murakkabliklarga qaramay, ishtiyoq bilan kuylaydilar, o'qituvchi doimo talabalar bilan ishlashda ularning vokal-texnik ko'nikmalarini tarbiyalashda ularning reflektorlik mohiyatini e'tiborga olishi lozim. Bunda quyidagi asosiy xususiyatlarni ko'rish kerak:

Qo'zg'alish. Talaba kuylashdan oldin uni ichki eshitish qobiliyati yordamida tasavvur qilganda bosh miya po'stlog'ida fonatsiya funksiyalarini boshqaradigan asab hujayralari guruhlarini qo'zg'aladi.

Tormozlanish. Asab hujayralari faoliyatining o'zgarishi, sustlashishi jarayonidagi tashqi va ichki holatlar, ijrochilik sezgilarining o'ziga xos xususiyatlari, bilish jarayoni, eshitish, idrok, kuzatish, diqqat, xotira, fikrlash, tasavvur, hissiyot, iroda kabi ruhiy holatlarni boshqarish faoliyatlarini shakllantirish ustida ish olib boradi.

Tormozlanish jarayoni asab hujayralari faoliyatining o'zgarishi, pasayishi bo'lib, ular ish faoliyatining tiklash jarayonini amalga oshiradi. Rus olimi I.P.Pavlov tormozlanishning tashqi va ichki holatlarini ajratgan. Ashulachilikni o'rganish amaliyotida tashqi tormozlanishga duch kelish vaziyatlari uchraydi. Ma'lumki, imtihon, akademik konsert yoki boshqa sahna chiqishlarida talabalar ko'pincha darsda olgan malakalarini to'liq namoyon eta olmaydilar. Tashqi tormozlanishning mexanizmi quyidagicha: paydo bo'lgan qo'zg'aluvchi (komissiya, auditoriya) markaziy asab tizimining ma'lum bir hududlarini qo'zg'atadi, bu esa o'z navbatida o'zaro induksiya qonuniyatlariga ko'ra talabaga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ashula ijro etish faoliyati – ashulachilik (keyingi o'rinlarda ashulachilik) murakkab ruhiy-fiziologik jarayondir. Vokal-texnik va ijrochilik ko'nikmalarini ongli ravishda o'zlashtirish xonandaning ruhiyatida katta rol o'ynaydi va bilim olishda ko'p narsani belgilaydi. Odatda insonning ichki dunyosi uch toifaga bo'linadi: bilish, his qilish va iroda. Bilish jarayoni bir narsani sezishdan va bizning ongimizda alohida xususiyatli hodisalarni hamda narsalarni tasavvur etadigan oddiy ruhiy jarayonlardan boshlanadi.

Sezgi a'zolari axborotni qabul qilib oladi, saralaydi, jamlaydi va miyaga yetkazib beradi. Sezgi a'zolari tashqi olamning kishi ongiga kirib keladigan yagona yo'lidir. Biron ibora yoki notani olganda ovoz apparatining turli qismlarida (og'iz, ko'krak, halqumda va xokazo) qanday sezgilar paydo bo'lganini tahlil qilib, ularni eslab qolib, kerak bo'lsa qaytarib olishni o'rganish kerak. Shunday qilib ko'nikmalar ishlab chiqiladi. Ovoz apparati ishlayotganiga baho berish va ushbu ishni boshqarish yo'li faqat bitta – sezgilarini tahlil qilishdir. Albatta, sezgilar rivojlanmaganda ovoz apparati harakatlari sust bo'ladi.

Sezgi turlarining eng muhim jihatlaridan biri – eshitish. Sezgining rivojlanishi bilan birga eshitish qobiliyati o‘zib boradi. Ovoz apparati faqat eshitish orqali qabul qilingan hodisalarnigina uzatishi mumkin. Ashulachilik apparati bilan quloq yaxlit tizimdir. Ovoz apparati eshitish orqali nimani qabul etsa, aynan o‘shani ifodalaydi.

Bolalikdan eshitmaydigan kishi ovoz apparati sog‘lom bo‘lsa ham gapira olmaydi. Qayerda bolalarda vokal tasavvurlar to‘g‘ri shakllangan bo‘lsa, u yerda yaxshi xonandalik ovozi ko‘proq yetishib boradi. Nima uchun Italiyadan ko‘pdan-ko‘p ajoyib opera xonandolari chiqadi? Chunki u yerda bolalikdan boshlab vokal musiqasiga qiziqish katta va uning rivojlanishiga katta ahamiyat beriladi. Demak, yosh xonandalar ovozlari to‘g‘ri yangrash haqida tasavvurga ega bo‘lishlari uchun ular mashhur opera xonandalarining yozuvlarini eshitishlari zarur. Shu bilan birga yomon ijroni eshitishdan ham foyda bor. Eski italyan maktabi mashhur o‘qituvchisi P.Tozi boshqalarning xatolarini o‘rganish - «bu arzon turadigan, lekin ko‘p narsani o‘rgatadigan katta maktabdir», degan. Ashulachilikda «vokal eshitish» tushunchasi mavjud.

Bu degani – ovoz yangrashini nafaqat eshita bilish, balki ovoz apparatida sodir bo‘layotganlarni his qilib, ularni tasavvurkilish va amalga oshirishdir. Vokal ko‘nikmalari rivojlangani sari xonandada vokal eshitish qobiliyati ham asta-sekin rivojlana boshlaydi. Ashulachida vokal eshitish qobiliyati rivojlanmasa, u hech qachon yaxshi xonanda, ayniqsa yaxshi o‘qituvchi bo‘la olmaydi. Vokal eshitish qobiliyati – murakkab musiqiy sezgi, u vibratsiyali, mushakli, eshitish, ko‘rish va boshqa hissiyotlarning o‘zaro ta‘siriga asoslanadi. Rus olimi V.P.Morozov quyidagi tajribani o‘tkazgan. Xonandalardan katta gurux tuzib, ularning har birining qulog‘iga quloqchin taqib, u orqali shovqin yuboradi va har bir xonandadan bironta asarni aytib berishni iltimos qiladi. Tajriba natijasida xonandalar ikkita guruhga bo‘lindilar.

Birinchi guruhdagilar ohangni bemalol, adashmasdan kuylab berishdi. Boshqalari esa o‘zini yo‘qotib, kuyni aytib bera olmadilar. Shunga ko‘ra Morozov mushakli sezgilarga asoslanganlarni «mushaklilar» turi deb nomladi, ikkinchi guruhdagi eshitish sezgisiga tayangan xonandalarni esa «eshitish» turi deb atadi. «Mushakli» turga kiruvchi xonandalar har qanday akustik holatlarda ikkilanmay qo‘shiq ayta oladilar, chunki ular ijro vaqtida faqat eshitish qobiliyati orqaligina emas, balki mushak to‘qimalari orqali sezish bilan ovoz apparati harakatini boshqaradilar. Shunday qilib, eshitish va mushak to‘qimalari orqali sezish qobiliyati rivojlangan xonandalarni a’lo toifali xonanda deb hisoblaymiz. Ovoz apparati ishini boshqarishda eshitish va mushak sezgilaridan tashqari vibratsiyali va ko‘rish sezgilari ham yordam beradi. Ashula aytish paytida ko‘krak va boshning yuz qismida rezonatsiya paydo bo‘lishi har bir xonandaga ma’lum. Ko‘krakda paydo

bo'layotgan rezonatsiyani qo'lni ko'krakka qo'yib sezish mumkin. Ovoz bosh rezonator, «maska»ga tushganida boshning yuz qismida tebranish paydo bo'ladi, shu paytda ovozni boshqarish harakatlari anchagina yengillashadi. Mashg'ulotlar davomida, ayniqsa dastlabki darslarda ko'zgu yordamida o'z harakatlarini kuzatishning foydasi katta. Ko'zguga qaraganda og'izning ochilishi, lablar, til, jag', yumshoq tanglay harakatlari oydin ko'rinadi. Ularning hammasi vokal-texnik ko'nikmalar shakllanishiga katta yordam beradi. Turli ko'rinisdagi mashg'ulotlar jarayonida inson faoliyatida kasbiy zehn va murakkab sezgilar rivojlanadi.

Vokal ijrochiligida bunday murakkab sezgilar quyidagicha:

1. Tovush sezgisi.
2. Tayanch sezgisi.

Tovush sezgisidan foydalangan holda xonanda tovushni tish oldi yoki orqaga yuborishi, uni yig'ib yoki yoyib, qisib yoki kengaytirib olishi mumkin.

Tayanch sezgisi – murakkab sezgi. U eshitish, nafas mushaklari harakati, nafas tayanchi, vibratsiyali sezgilardan iborat.

Xonanda muvaffaqiyatli ijod qilishi uchun unda yaxshi xotira rivojlangan bo'lishi shart.

Xotira – ma'lumotlarni esga olish, esda saqlash, esga tushirish bilan bog'liq psixik jarayondir. Ba'zilarining xotirasi a'lo darajali fenomenal ravishda bo'lishi mumkin. V.A.Motsart yoshligidan asarni bir marotaba eshitib, uni chalish va notaga tushira olish xususiyatiga ega bo'lgan. Ba'zilarida esa xotira juda sust rivojlangan bo'ladi, asarni yodlash uchun uni ko'p marotaba takrorlashlari kerak. Xotira kishilarda rivojlantiriladigan xususiyat. Yodlab olishning asosiy yo'li – takrorlash. Ammo faqat takrorlash bilan maqsadga erisha olmaslik ham mumkin. Shuning uchun takrorlash bilan birga «yodlab olish» maqsadini oldiga qo'yish zarur. Hech qanday faoliyat turi fikrlashsiz o'tmaydi. Ba'zida dars boshlanishida bir-ikkita mashq berganidan so'ng o'qituvchi talabaga: «Bugun sen kuylamaganing ma'qul, ovoz apparating joyida emas, shifokorga borishing kerak» deb aytadi. O'qituvchi shogirdining ovoz apparatini ko'ra olmadi, lekin uning kuylashini tahlil qilib shu xulosaga keladi. Bunday bilish fikrlashga tegishli. Shaxs oldida birorta masala yoki muammoni yechish vazifasi turganida unda fikrlash boshlanadi.

Fikrlashda biz tahlil qilamiz, umumlashtiramiz, assotsiativ holda hodisalarni birbiriga solishtiramiz, ayrim hollardan umumiy qoida (induksiya) yoki umumiy hollardan ayrim qoidalarni (deduksiya) chiqaramiz, uning sabab va natijalarini aniqlaymiz. Yuqorida ko'rsatilgan misolda o'qituvchi xulosa chiqarishdan oldin bir necha masalani hal qildi. Eng avvalo, u talabanning ovoz sifatlari o'zgarganligini, yomonlashgani sababini aniqladi. Ovozi nima uchun chiqmadi? Kecha charchaganidanmi, shamollaganidanmi yoki texnikasi noto'g'ri bo'lganidanmi?

O‘ylab ko‘rib texnikasi to‘g‘ri deb xulosa chiqardi. Talabadan «Kecha ko‘p kuylamadingmi, charchamadingmi?» degan savoliga javob olib ovoz charchamaganligini aniqladi. Undan keyin talabaning holatini ko‘rib, ovoz yangrashini eshitib, o‘qituvchi uni shifokorga yuborishga qaror qildi.

Albatta, bunday vazifani yechish uchun tajriba va bilimlarga ega bo‘lishi zarur. O‘qituvchi talaba oldiga turli vazifalarni qo‘yib,

ularni yechish yo‘llarini ko‘rsatishi, ovoz xususiyatlari va sezgilarni bir-biriga solishtirishi, uni fikrlashga o‘rgatishi kerak. Ijrochilik faoliyati ijodiy tasavvur bilan chambarchas bog‘liqdir. Vokal musiqasida asarning matni obraz yaratishda yordam beradi. Talabada tasavvur qilishni talab qilib, uni rivojlantirish zarur. Ijodiy munosabatsiz ijro etishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Tasavvurni adabiyot, tasviriy san‘at, tarixni o‘rganish va his-tuyg‘ularni uyg‘otish bilan rivojlantirish mumkin.

Talabalarda vokal malakalarini yuzaga chiqarishda tovushning akustik tuzilishi, xonandalik formantalarini, yaxshi eshitish doirasini shakllantirish, tovush balandligi, tovush kuchi, tovush tembrini ijrolari ustida ishlash ham muhim omillardan biridir. Tovush balandligi – tebranma harakat chastotasini subyektiv ravishda qabul etish. Havoning davriy tebranishi qanchalik tez sodir bo‘lsa, tovush ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Tovushning balandlik sifati tug‘iladigan tovush apparatining yagona uslubi odam tovush boylamlari hisoblanadi. U tug‘ilgandan keyingi balandlikni organizmda o‘zgartira oladigan boshqa hech qanday mexanizm yo‘q.

Tembr ashulachilik ovozinig bir muncha murakkab sifati sanaladi. Tembr – tovush tarkibidagi obertonlarni subyektiv qabul etish. Tovush ohanglari boshqa musiqa tovushlari kabi murakkab tovush hisoblanib, birgina ma‘lum chastotali tebranish (amplituda)lardan emas, balki turli-tuman chastotali va amplitudalarni o‘z ichiga olgan bir qator oddiy tebranish obertonlaridan tashkil topgan. Mashg‘ulotlarda o‘qituvchi tomonidan talabalarda vokalizatsiya turlarini rivojlantirish, ovozlar klassifikatsiyasi, ovozda nuqsonlar va ularni yengish yo‘llari, ovoz gigiye nasi tarbiyasi ustida jiddiy uslubiy, amaliy, tashkiliy va tarbiyaviy jarayonlar ustida ish olib borilmog‘i lozim. Bu faoliyat mashaqqatli mehnat va fidoyilikni talab etib, o‘qituvchi va talabalar tomonidan pirovard natijada xonandalik malakalarini mukammal shakllantira olishlariga zamin bo‘ladi.

Talabalar bilan ishlash jarayonida uning imkoniyat va qobiliyatini (ijro mahorati) tushunib olish o‘qituvchining birinchi darajali vazifalaridan hisoblanadi. Mashg‘ulotlarni o‘rta diapazonda, chetki notalarni qamrab olgan holda o‘tkazish kerak bo‘ladi.

O‘tkaziladigan darslar murakkab bo‘lmasligi lozim.

Bugungi kunga kelib tovushlar klassifikatsiyasi atroflicha o'rganib chiqilgan. Ko'plab talabalar ovoz tembrida tabiatan yoki avvalgi o'qish natijasida ko'plab kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Biz ko'p uchrab turadigan tabiiy tembrdan qochish holatiga to'xtalamiz. Bu, eng avvalo, vibrato buzilishi bilan bog'liq kamchiliklar bo'lib, ovozning o'ynab ketishi va tekis (shuttak) ovozdir. Shuttak sifatli, tekis ovozda vibrato mavjud emas. Uning sababi bitta - hiqildoqning zo'riqishi, siqiligi. Talabaniq diqqatini tabiiy jarangdorlikni izlashga qaratish kerak.

Zo'riqib kuylash – shunchaki qattiq aytish emas, balki tovush apparatini ortiqcha faollik bilan ishlatishdir. Jadal kuylash natijasida asta-sekin tembr o'chirilib, vibrato buzilib, tovush qattiq tebrana boshlaydi. Uni tuzatish juda qiyin kechadi. Repertuarni o'zgartirish eng yaxshi vosita hisoblanib, bu ijrochini bir muncha tinch yoki elastiklik va nafislikni talab etuvchi boshqa asarlarni ijro etishga o'tish bilan bog'liqdir. Burun tovushi ashula aytish paytida yumshoq tanglayning tushishi va tovushning burun-halqum bilan erkin munosabatda bo'lishiga bog'liq.

Ovozdaqi bo'g'iqlik, eng avvalo, ovoz boylamlarining nosog'lom holati bilan bog'liq.

Kuylashda ro'y beradigan ko'pgina kamchilik nutqdagi nuqsonlar bilan bog'liq. Bunday hollarda logopedga murojaat etish lozim, negaki noto'g'ri talaffuz etish xonandaga badiiy asarlarni yuqori darajada ijro etish imkonini bermaydi.

Talaba har kuni ashula aytishga tayyorbo'lishi kerak. Buning uchun u ma'lum gigiyenik qoidalarga rioya qilishi lozim. Tovush apparatini toliqishdan asray bilishi, ko'p gapirmaslik, ortiqcha kuylamaslik, yuqori notalarni suiste'mol qilmaslik kerak. Mashg'ulotlarni shunday taqsimlash lozimki, to'xtamasdan ashula aytish bir soatdan oshmasligi shart.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarda kuylash malakalarini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, avvalo «Ustozshogird» an'anasida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ruhiy-hissiy ijodiy muloqot va xolatni vujudga keltirish uzoq vaqt talab etiladigan mashaqqatli mehnat maydonidir.

4.6. Zamonaviy dirijyorlik san'ati maktablari.

Dirijyorlik san'ati eng yosh ijro turi bo'lishiga qaramay, uning ildizlari, bizning eramizdan avvalgi XV – X asrlarga borib taqaladi. O'sha davr jamoasini to'planishini tashkil etishda tayoq, qo'l, kaft harakati bilan urib usullar chiqarish, yo'l boshchilar chaqirig'i bilan o'rin almashgan. Bu harakatlarda, dirijyorlikning ilk belgilarini kuzatish mumkin. Insonga xos bo'lgan his-hayajon ruhiy holatlarni o'sha davrda, usullar asosida harakatlanib, raqsga tushish bilan tasvirlangan. Bu harakatlarni qo'ldagi tayoq yoki yog'ochda urib boshqarganlar. Natijada guruhni

tezlik va usul yordamida boshqarishga sabab bo'lingan. Shu boshqaruv faoliyatini, dirijyorlikning ilk ko'rinishi deb tushuntiriladi. Bunday ijrochilarni boshqarishda, urma shovqinlik tovush chiqarish uslubidan foydalanilgan. Boshqaruvchi raqs harakati jarayonini nazoratga olgan.

Dirijyorlik taraqqiyotining keyingi bosqichi, qadimiy Gretsiya, Rim, yegipet bilan bog'liq. Qadimgi Gretsiya sahnasida asosiy ishtirokchilardan biri xor edi. Xor boshqaruvchisi korifey dirijyor vazifasini bajarardi.

U sahnadan turib, o'lchovning kuchli hissalarini, konturi bilan urib ko'rsatardi. Bu davrda, musiqa asosiy o'ringa chiqadi. Raqs, harakat hukmronligi qo'shiq, kuy bilan o'rin almashadi.

Sekin asta, urma shovqinli boshqaruv, qo'l harakat imo-ishorasi bilan o'rin almashdi. Bunday rahbarlik "xeyronomiya" (grek. "xerg" – qo'l, "uotsos" - qonun) deb nom olgan. Bu qo'l imo-ishora harakatlari bo'lib, dirijyorlik ijro san'atiga asos soldi.

Keyronomiya qo'llar harakatiga erkinlik berdi. Urib boshchilik qilinganda, faqat pastga va yuqoriga bo'lgan harakat bilan cheklanilgan. Xeyronomiyada esa, ancha erkin (ichkari va tashqariga) harakatlanish imkoniyati yaratildi.

O'rta asrlarda dirijyorlik san'atining rivoji, cherkov hayoti bilan bog'liq bo'ldi. XVI asrga kelib, Fransiya, Italiya, Germaniyada battuta, cherkov xorining boshqargan dirijyorning, ramziy maqomi sifatida paydo bo'ldi. U, hozirgi dirijyorlik tayoqchasi obrazi edi. Battuta bilan dirijyorlik juda ko'p tanqidlarga uchradi. Ijro vaqtidagi shovqinli boshqaruv, musiqa sadolanishiga katta xalaqit berardi.

Izlanishlar natijasida, dirijyorlik tarixida keyingi bosqich – General basga o'rin berildi. General basning paydo bo'lishi, ansambl boshqaruvini tubdan o'zgartirdi. Klavisinda o'tirgan general-bas, o'lchovni tezlikni belgilagan holda, bir xil ketma-ketlikda, garmonik akkordlar bilan hissalarini aniqlashtirgan.

Shovqinli boshqaruvdan, shovqinsiz boshqaruvga o'tish dirijyorlik ijrosidagi yuqori ehtiyoj edi. XVI-XIII asrlarda general-bas orkestr boshqaruvida hukmronlik qildi. Klavisin yoki organchi partitura bilan faqat o'z partiyasini emas, balki, orkestrni o'z partiyasi bilan birgalikda boshqarishi kerak edi. Bunday boshqaruvda asosan ansamblni nazorat qilinib badiiy talqin haqida gap bo'lmagan.

Keyinchalik I.S.Bax ijod qilgan davrlarida, ikkitalab dirijyorlik ya'ni, klavisinchi xor va solistga, skripkachi esa, orkestrga boshchilik qila boshladi. Kamonni battuta o'rnida ishlatib, ba'zi opera rechitativlarida, bas yo'nalishini chalayotgan violonchel boshqarardi.

Bir guruhga boshi bilan, boshqasiga oyog'ida yer tepinib, qolganlariga barmoqlar ishorasi bilan ko'plab boshqaruv, ijro ansamblini uzilishiga olib keldi va

o'z vazifasini oqlamadi. Cholg'uda ijro bilan bandlik, ansambl boshqaruviga xalaqit bera boshladi.

Dirijyorlik ijro san'ati mustaqil san'at turi bo'lib, tasdiqlanguncha uzoq va murakkab tarixiy jarayonni bosib o'tdi. XVII asr Italiyada dirijyorlikning nazariy asosi, takt chizmasi paydo bo'la boshladi. Takt musiqada boshqaruvning asosiy tizimiga aylandi. Dirijyorlar ijodiy izlanib, o'lcham birligiga rioya qilgan holda, har bir hissani aniq ko'rsatishni boshladilar.

XVIII asr ikkinchi yarmiga kelib esa, konsertmeystr – jo'rnavoz orkestrni boshqardi. Cholg'uchilarga asarning badiiy tomonini tushuntirishga harakat qilayotgan skripkachining "dirijyorligi" ularning talabini ko'proq qondirdi. Shu yo'sinda ma'no va mazmunga ega ijro texnikasi harakatlari paydo bo'ldi. Battuta teridan qilingan naychaga, yoki qog'oz o'ramalariga almashtirib berildi.

XIX asrda ham, dirijyorlik san'ati hali tug'ilish davrini boshidan kechirdi. Konservatoriyalarda dirijyorlik mutaxassisligi yo'nalishi yo'qligi sababli, qobiliyatli va zeharli sozandalar dirijyorlik pultiga chiqishardi. Simfonik musiqani rivoji bilan birgalikda konsertmeystrlar o'rnini dirijyorga bo'shatdi. Dirijyorlik qiluvchi ijrodan ozod bo'ldi. Bu o'zgarishlar dirijyorlik san'ati rivoji yo'lidagi eng asosiy yutuqlardan biri edi.

yevropada K.M.Veber va I.Mozel simfonik orkestr ijrosi rivojiga katta hissa qo'shish bilan birgalikda, birinchilardan bo'lib, klassik dirijyorlik maktabini asoschilariga aylanishdi.

Keyinchalik Venada bo'lib o'tgan musiqiy festivalda I.Mozel (1812 y.) K.M.Veber (1817 y. Drezden), L.Shpor (1817 y. Frankfurt. Na Mayne) amaliyotda tayoqcha qo'lladilar. Yangilik juda tanqid va tahlillarga yuz tutdi. Shunga qaramay, maqsadga muvofiqligi sababli tayoqcha dirijyorning asosiy belgisiga aylangan.

XVIII asrda kompozitorlar o'z asarlariga dirijyorlik qilgan bo'lsalar, keyinchalik gastrollarda boshqa kompozitor asarlariga murojaat qilayotganlarini ko'p uchratish mumkin bo'ldi.

Yildan yilga cholg'ularda ijro imkoniyati rivojlanadi. Orkestr tarkibi kengaydi. Musiqada faqat takt urish bilan chegaralanmay, balki, ifoda vositalarini, harakatlari orqali tushuntirish yo'llari izlandi. Dirijyorning orkestr bilan uzviy aloqasi talab etildi. Izlanishlar natijasi, dirijyorlarning orkestrga qarab yuzma-yuz turib muloqot qilishiga olib keldi. Birinchi bo'lib orkestr bilan R.Vagner, G.Berlio va F.Mendelsonlar to'liq ijodiy muloqotni boshlab berishdi. Dirijyorlik ijro san'atida katta burilish yuz berdi. Bu burilish orkestr va dirijyor aloqasida katta imkoniyatlar yaratdi. Asarda xarakter, shtrix, fraza yo'nalishini qo'l harakatlari orqali tasvirlash juda qulay bo'ldi. Chambarchas muloqotga erishildi. Izlanishlar natijasida, hozirgi dirijyorlik holatiga asos solindi.

Tarixni yaxshi bilish bajarilayotgan, rejalashtirilayotgan ishlarimizga to'g'ri yo'nalish ko'rsatadi.

Xulosa qilib, dirijyorlik san'ati rivojini ma'lum bosqichlarga bo'lamiz:

1. Usulni (qo'l, oyoq, tayoq bilan) urib shovqinli boshqarish.
2. Xeyronomiya – kuyda balandlik va cho'zim yo'nalishni (qo'l, barmoq, bosh bilan) boshqarish.
3. Battuta bilan boshqaruv.
4. Cholg'uda chalib boshqarish (general bas)
5. Orkestrga yuzlangan mustaqil boshqaruv.

Oxirgi boshqaruv, dirijyorlik ijrochiligi tarqqiyotining cho'qqisi bo'ldi.

Dirijyorlik kasbi, hozirgacha kam o'rganilgan hisoblanadi. Musiqa ijrochiligida mavhum san'at yo'nalishidir. Shu sababli, hozirda ham, juda ko'p nazariy va amaliy bahs munozaralarga to'qnash kelamiz. Dirijyorlik universal kasb bo'lib, yuqori musiqiy madaniyat, xotira, irodali, pedpogika uslubiyotlari bilan tanish, o'z fikrini boshqalarga tushuntira oladigan, orkestr tarkibidagi har bir cholg'u imkoniyati va xususiyatlari bilan yaxshi tanish, qo'shiqchilik, raqs san'atidan xabardor tashkilotchi va rahbardir.

Dirijyor o'zining badiiy fikrlashlarini cholg'uda emas, balki boshqa ijrochilar ijrosi yordamida aks ettiradi. Uning vazifasi asarni yodlab, o'rganib, turli xil musiqiy qobiliyatga, bilimga, xarakterga ega bo'lgan shaxslarni, o'z tushunchasiga bo'y singdirib, guruh ijrosini bir oqimda yo'naltirishdir.

Orkestr dirijyorligi ijrosining rivojlanishi yevropada keskin tus oldi. Bunday ijodiy talqin dirijyorligini o'sish jarayonining tug'ilishiga nemis kompozitori Vagnerning maktabi va Berliozning yorqin dirijyorlik konsert uslublari katta turtki bo'ldi. Natijada bir qator dirijyorlar: Germaniyada-G.Rixter, F.Motl, A.Nikish, G.Maler, Angliyada-G.Vud, D.Barbirolli, Fransiyada-P.Monte, SH.Myunsh, Italiyada-A.Toskanini, V.Ferrero va boshqalar yetishib chiqdilar. Mana shu davrga taniqli nemis tadqiqotchisi G.Shyuneman aniq baho beradi. "Dirijyorlik san'ati, talqin san'ati tarixiga aylandi. Endilikda faqat ijro belgilari bilangina cheklanib qolmay, balki, musiqada jumla yo'nalishi, ijro uslublariii, badiiy mazmunni tushuntirishga qo'l urildi."

yevropa dirijyorlik maktabidan o'rnak olgan holda, rus kompozitor va dirijyorlari ijod eta boshladilar.

Rossiya dirijyorlik maktabi asosan XVIII asr ikkinchi yarmigacha xor bilan bog'liq bo'lgan. Tarixining ildizlari XVI-XVII asrlarga borib taqaladi. Xorlarda ham o'z boshliqlari bo'lib, tovushlarni tushishini boshqargan. Keyinchalik XVIII asrga kelib, shox saroylarida birinchi opera guruhlari, keyinchalik cholg'u ansambllar tarkibida mahalliy ijrochilarni uchratish mumkin bo'ldi. Saroy opera

guruhini boshqarganlaridan biri iste'dodli kompozitor ye.Fomin bo'ldi. U Moskva va Peterburgdagi shaxsiy opera guruhlarini chiqishlar qildi. Uning safdoshi, rus dirijyorligi san'ati ijrochiligiga asos solgan A.Pashkevich edi. Keyinchalik Peterburgda, saroy shaxsiy bal orkestrini boshqardi. U bilan bir qatorda Degteryov, yervovlarning xizmatlari katta bo'ldi.

K.A.Kavos ijodiga ham, tarixda baho salmoqli berilgan. Qirq yildan ortiqroq Peterburg imperator opera teatrida kapelmeyster bo'lib ishlagan. Glinkaning "Ivan Susanin" operasi sahna yuzini ko'rish, uning mehnati bilan bog'liq.

Shu yo'sinda, rus dirijyorlik san'atining poydevoriga g'isht qo'yildi. Avval Peterburg konservatoriyasida Anton va Nikolay Rubinshteynlar, M.Balakirev nafaqat rus kompozitorlari asarlari balki, Wagner, Shuman, List ijodlariga murojaat etdilar. yevropa klassik musiqasi bilan tanishuv, ommaning ma'naviy saviyasini ko'tarishda xizmat qildi. Rossiya va yevropa gastrollarida katta olqishlarga sazovor bo'lishib, dirijyorlik san'atini shakllaganini namoyon etishdi.

Moskva konservatoriyasida dirijyorlik sinflari ochildi. E.F.Nappravnik, S.V.Raxmaninov va P.I.Chaykovskiylar uni birinchi bitiruvchilari bo'lishdi. 1917 yil oxiriga kelib, N.S.Golovanov, N.Ponosov, L.M.Ginzburg, A.M.Padovskiy, A.V.Gauk va boshqalar dirijyorlik ijrosi fanidan saboq berishgan.

Nazorat savollari

1. Yakkaxon xonanda uchun mo'ljallangan kamer musiqiy-she'riy asar qaysi?
2. O'zbek operasi san'ati darg'alari kimlar?
3. Meyordagi tovush balandligidan chekinish yoki noaniq kuylash qanday nomlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Y.Rajabiy. «O'zbek xalq musiqasi I, II, III, IV, V». – T., 1958.
2. Turli mualliflar. Nota adabiylari. 1956-2008.
3. Razzoqova M.Q. Akademik xonandalik asoslariga kirish. – Toshkent: 2014, Sharq. – B. 200.
4. D.Amanullayeva. «Estrada xonandaligi». Magistrlar uchun darslik (qo'lyozma). – T., 2014.
5. D.Amanullayeva. Vokalizlar (qo'lèzma). – T., 2014.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot: Zamonaviy metroritmik modellar. Yakka, ansambl va xor ko‘rinishdagi vokal ijrochiligi. Tovush gigiyenasi asoslari. Ovoz yozish studiyalarining ishlash tamoyillari (2 soat).

Ishdan maqsad: Vokal haqida umumiy tushuncha berish. Vokal faoliyatini rejalashtirish bo‘yicha mashqlar orqali mustahkamlash. Vokal ijochilik faoliyatini tashkil qilish usullari o‘rganish. Ijodkorlikni yuzaga chiqarishdagi to‘siqlar, ijodkorlikni rag‘batlantirish va rivojlantirish. *Maxsus xona, proyektor, stiker, vatman, flomaster.*

Masalaning qo‘yilishi: Ijodiy jarayonni quyidagi qadamlar ketma-ketligida taqdim eting:

1. Muammo bayonoti (vazifalar)
2. Tayyorlash (topshiriqni o‘rganish, to‘plash, tasniflash va tahlil qilish, prognozlash)
3. Ehtiyojlarni topish, inkubatsion (mantiqiy va birlamchi axborot ishlash)
4. Yangi fikr, sintez, muammolarni yechish
5. Tasdiqlash va baholash (natijani tushunish va tahlil qilish)
6. Taqdimot (natijalarni auditoriyaga eng yaxshi tarzda taqdim etish).

Ishni bajarish uchun namuna: Pianino vokalist quroli

1. Vokal san‘ati kelajakning belgisi va zamonaviy dunyodagi eng tez rivojlanayotgan biznes ekanligini anglagan holda, ikki kompaniya ushbu sohada raqobatga kirishishga qaror qilishdi. Firma A - bu Amerikaning eng yirik korporatsiyalaridan biri bo‘lib, san‘at sohasida yetakchi mavqega ega. Ushbu sohaga yuz millionlab dollar mablag‘ sarflaydi, uni bozorni tadqiq qilish, eng yaxshi texnik mutaxassislar va san‘atkorlarni jalb qilish va eng yaxshi jihozlangan asboblarni yasash uchun mablag‘ sarflaydi. Pianinolarini ishlab chiqishni boshlashdan oldin, ular tadqiqotga bir tiyin sarflamaydilar. Qo‘shiq aytishga jismonan va ruhan tayyorgarlik.

2. Nafas.
3. Vokal “niqobi” va asosiy rezonator.
4. “Tovush xujumi” nima?
5. Ko‘krak rezonatori – tovushning quyi tayanchi.
6. Vokal esnog‘i va halqum holati.

Avvalgi boblarda (nafas, sahna vazifalari, anatomiya, artikulyatsiya) biz ishlayotgan butun a'zoning "faol erkinligi va abadiyligi, nafas jarayonlari, ovoz va artikulyatsiya a'zolari haqida gapirgan edik. Shuning uchun endi ovoz hosil bo'lish holatlarini vokal "niqob" idan boshlaymiz. "

Vokal atamalari lug'atida bu haqda quyidagicha izoh beriladi: "Niqob" –ital. m'aschera [m'askera] maska bu qo'shiqchi ovozini burun va unga tutash bo'shliqlarda, ya'ni odatda maskaralarda yopiladigan yuzning yuqori qismida tebranish bilan bog'liq.

Buni "mushaklarda tushunish", "niqob," "vokal esnoq" ni xis qilish va qo'shiq aytish jarayonida ro'y berayotgan jarayonlar haqida tasavvur hosil qilish uchun oddiy mashqlarni bajaramiz.

1. Og'iz ochiq, shu holatda saqlash, og'iz, til, tomoq tabiiyligi, erkinligini xis qilish. "Ichki nazar" bilan barcha a'zolarga qarash. Lablarni asta yaqinlashtirib, yuqori lab va tishlarda yengil tebranish chiqarish. Agar tebranish bo'lmasa halqum siqilgan, uni ozod qilish zarur. Yaxshi nafas olib tovush chiqarishingizni yuqori tishlarga yo'naltiring. Qayerda tebranish sezilsa, aynan o'sha yer "niqob", vaziyat hisoblanadi. Shu yerdan tovushni oldinga qarab cho'zing. Biror narsaning gudok chalishini eslang.

2. Oldingizda yoqimli gul, uni xidlang. Gulning yoqimli bo'yini xis qiling. Xid qayerga, qaysi a'zoga yetib borayotganligini xis qilish va eslab qolish zarur. "Ichki yangi xajmni vujudga kelayotganligini" eslab qoling.

Bu "vokal esnog'i", "yuqori qo'shiq gumbazi", yuqori qo'shiq vaziyati haqidagi tasavvurni tushunib, eslab qolishga harakat qiling. Bunday holat tovush boshlanishi oldidagi lahzadagi nafas bilan bir paytda vujudga kelishi zarur. Nafas - pastki tayanch, tanglay-yuqori tayanch, ana shu yoqqa tovush, nafas yuboriladi.

3. Oldingizda hozir tishlashingiz lozim bo'lgan juda chiroyli olma. Uni tishlash oldidan yuqori jag' va tanglay olmadan kattaroq bo'lak tishlash maqsadida ko'tarilayotganini xis qiling. Bu xisni, erkin, tabiiy harakatni toping. Yuqoriga ko'tarilgan tanglay - qo'shiq gumbazidir.

4. Og'zingizda qaynoq ovqat, u tanglayni kuydirayapti, siz uni sovutishga intilasiz. Bu harakatni eslab qoling.

5. Issiqdan tili osilib qolgan itni eslang. U ham tanglayini sovutish uchun tez-tez nafas oladi. Sizning ham tanglayingiz, vokal gumbazi naqadar baland ekanligini tasavvur qila olasiz.

6. Sovkatgandek tishingizni shaqqitlating. Old tishlarga, jag'ning erkinligiga e'tibor bering. Bu mashq ilgari jag'lar erkinligi haqidagi qismda tavsiya etilgan edi. Endi old yuqori tishlar, tanglay yoki "gumbaz" ni tasavvur qiling. So'ngra yana tishlarni taqillatib xislaringizga quloq soling.

7. Lablar birlashgan. Og‘iz erkin. Ichki tuyog‘u bilan tilni, tishlarni xis qiling. Halqum erkin, ko‘za og‘zidek keng. Xuddi shu holatda tanglayga “E” ni talaffuz qiling. Bunda halqum osoyishta, kengligicha turadi. Harakatdagi bo‘shliqlarni, ko‘tarilayotgan tanglay, keng halqumni xis qiling.

8. Og‘iz, halqum erkin. “Esnash” ni xohlaysiz, lekin jamoa ichida bo‘lganingiz uchun yopiq og‘iz bilan esnang.

Tasavvuringiz bunday esnashga yordam berishi kerak. E’tiboringiz yuqoriga-tanglayga qaratiladi. Esnaganda yuqori qubba ko‘tariladi, halqum bo‘shab, pastga tushadi. Bunday esnash ko‘zdan yosh chiqadigan qadar bajariladi.

Yumshoq tanglay faolligiga e’tibor bering.

Bu mashqlardan birortasi sizga esnash, gumbazning vokal xissini, nafas olish bilan ularning qurilmasini topishga yordam beradi, so‘ngra “nafas bilan hujum” va ajoyib tovush hosil bo‘ladi (havo tovushga aylanadi).

Tana va organlarimiz bunday murakkab mayda mushaklar harakatini darhol idrok eta olmaydi, shuning uchun yordam, e’tibor, sabr, tafakkur va sodda mashqlar zarur bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Vokal san’at sohasi faoliyati deganda nimani tushunasiz?
2. Faoliyatni rejalashtirish haqida nimalarni bilasiz?
3. Sohani to‘g‘ri tashkil etish yo‘llarini aytib bering.

2-amaliy mashg'ulot: Vokal sanat pedagogikasi muammolari.
Xonandaning ijro mahoratiga qo'yiladigan asosiy talablar
(2 soat).

Ishdan maqsad: Musiqiy – lug'aviy so'zlar haqida umumiy tushuncha berish. Zamonaviy metroritmik modellar faoliyatini rejalashtirish bo'yicha mashqlar orqali mustahkamlash. Vokal ijodchilik faoliyatini tashkil qilish usullari o'rganish. Ijodkorlikni yuzaga chiqarishdagi to'siqlar, ijodkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish. *Maxsus xona, pianino, vokal asboblari.*

Masalaning qo'yilishi: Ijodiy jarayonni quyidagi qadamlar ketma-ketligida taqdim eting:

1. Muammo bayonoti (vazifalar)
2. Tayyorlash (topshiriqni o'rganish, to'plash, tasniflash va tahlil qilish, prognozlash)
3. Ehtiyojlarni topish, inkubatsion (mantiqiy va birlamchi axborot ishlash)
4. Yangi fikr, sintez, muammolarni yechish
5. Tasdiqlash va baholash (natijani tushunish va tahlil qilish)
6. Taqdimot (natijalarni auditoriyaga eng yaxshi tarzda taqdim etish).

Ishni bajarish uchun namuna: “Niqobda qo'shiq aytish” tushunchasi

Bu tushuncha yuqori titragichlardan to'la foydalanib qo'shiq aytishni nazarda tutadi, ular tovushning yuqori tayanchi hisoblanadi, nafas esa tovushning pastki tayanchidir.

Bizning sodda mashqlarimiz bu bo'shliqlarni, ularga qanday qilib yetib borishni xis qilishga yordam beradi.

Ovozni yo'lga qo'yishning mohiyati tovushni “niqobga” yuborish va u yerda yuqori tishlarga tayab turishdan iboratdir. “Niqobdagi” tovush shunday yorqin ifodalanishi kerakki, u yuqori tishlar ildiziga urayotganligi bilinib tursin. Tayanch nuqtasi tanglayga tayanib borgani sayin ovoz to'mtoqlashib boraveradi.

Bu xujum nuqtasini yuqori tishlar ildiziga qaratib siljitish uchun oddiy topshiriq- mashqlarni bajarish lozim bo'ladi.

Og'zingizni oching, unga ko'rsatkich barmog'ingizni chuqur tiqing. Qo'l kafti pastga qaragan. Barmoq tanglayga tayangan. Nafas oling va asta bir oqimga aylangan nafasni chiqaring.

Tanglayga yopishgan ko'rsatkich barmog'i chiqayotgan havo issiqligini sezadi. Panjadagi eng issiq joy - bu chiqarilayotgan nafasning “hujum nuqtasidir, qo'shiq aytayotganda aynan shu joyga tovush to'lqinlari oqimi kelib uriladi.

Bu nuqta asta yuqori tishlar ildiziga kelib yetishiga harakat qilish kerak. Shundan keyin bu xislarni tovush bilan tekshirib ko'rish zarur. O'z ovozingizni izlang, o'z xislaringizni yodda saqlang.

Ta'kidlash lozimki, uchlama asab tolalari va ovoz mushaklari o'rtasida reflektor aloqa bor. Bu ovozning to'g'ri oqimi yuz asab tolalarini, tanglayni qo'zg'aydi, bu ovoz mushaklari tonusini oshiradi, tovushning aniq, tiniqligini ta'minlaydi. "Niqobni" xis qilish uchun quyidagi mashqlar tavsiya etiladi: "m", "n", "v" tovushlarni qulay tonda kuylang, lab, yuqori tishlarda titrashni, keng halqumni his qiling. Agar til tomiri tarang, ko'tarilgan bo'lsa bunday xis bo'lmaydi.

Dastlab bu mashq og'izni ochib, so'ngra yopib "g'o'ldirash" amalga oshiriladi.

Bu mashqlar halqum ovozidan qutqaradi, shuning uchun "g'o'ldirash" deyiladi.

Tovushni to'g'ri yo'lga qo'yishda ma, mi, mo, mu singari bo'g'inlarni g'o'ldirash foydali, "m" tovushi niqobda to'planadi. Tomoqda hech qanday taranglik bo'lmasligi kerak. Ish talaffuzi qulay bo'lgan unli tovushdan boshlanadi.

Ko'pchilik boshlovchi qo'shiqchilar halqum siqiligidan qutulolmaydi, yelkalarini ko'tarib oladi. "g'o'ldirash" mashqlari ana shu nuqsonlarni mustahkamlab qo'ymasligiga e'tibor berish zarur. "G'o'ldirash" usulidan ham meyorida foydalangan ma'qul, aks holda u yumshoq tanglayni yetarli ko'tarilmasligiga va bu ming'irlashga olib keladi.

"Niqob", bosh tebratkichlari, ya'ni havo, tovush oqimi yuboriladigan joy haqida gapirilgan edi. Tovush "xujumi" - bu tovush boshlanishidagi nafas asosidir. Nafas ingichka oqim bilan yuqori tishlar tomiriga yuboriladi. Fiziologlar ta'kidlashicha, tovush xujumi - bu usul va tezlikdir, bunda nafas ovozni paydo bo'lishi paytida katta ta'sir ko'rsatadi.

Boshlovchilarga quyidagi mashqlar yordam beradi:

1. Yuqori tishlar ildiziga a, a, a, a, yoki u, u, u, u "o'tkir" talaffuz qilinadi. Ular qulay notada gapiriladi. Bu tovushni ninadek sanchilayotganlik xissi paydo bo'lishi lozim.

2. "Yuqori gumbaz" ga, tishlarga da, da, da yoki du, du, du sanchiladi. Bu gumbazni xis qilish uchun "gul xidi", "issiq ovqat" ni yodga tushiriladi (bu mashqlar ilgari uchragan edi). Og'iz chiroyli xajmli bo'lib qoladi. Tovush yuqori vaziyatdan tushib ketmasligiga e'tibor beriladi. Halqum keng va past bo'ladi.

3. Kakku ovoziga o'xshating. "Ku-ku" ni yuqori notada, qo'shiq qilib ayting. Xis qilish avvalgi mashqlardagidek.

4. Bu xislarni qo'shiqda sinab ko'ring, dastlab o'zingizga qulay bo'lgan unlida bir notada boshlang.

5. Tersiyada kuylang. Birinchi nota legatoda, ikkinchisi stakattoda bo'lsin, lekin ajralib qolmasin. Dastlab har bir tersiyadan keyin nafas oling.

Vokal- pedagogik amaliyotda qattiq va yumshoq hujumdan foydalaniladi. Bu o'quvchining shaxsiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Agar tovush yuborish sust bo'lsa, unda bir necha vaqt ovoz a'zolarini faollashtirish uchun qattiq hujumdan foydalanish maqsadga muvofiq. Aksincha, agar tovush qattiq yuborilayotgan bo'lsa, yumshoq hujumdan foydalangan ma'qul. Ammo bunda tovush yuborishda boshqa "yo'llar" paydo bo'lib qolmasligiga e'tibor berish zarur.

Biz "hujum", "sanchish" deb nomlagan nafasni bunday nafasni aniq yuborish asosiy tebratkichlar orqali bajariladi. Ovoz a'zolari tebratkichlarsiz jaranglayotgan kamertonga o'xshaydi. Kamerton juda past ovoz chiqaradi, lekin uni shisha bankaga o'xshash tebratkichga qo'yilsa kamerton chiqarayotgan tovush kuchayadi.

Ovoz bilan ham shunday ahvol ro'y beradi. Bunda ovoz a'zolari kamerton, bosh va ko'krak tebratkichlar vazifasini bajaradi. Faqat ularni "ishga tushira olish" kerak.

Ko'krak tebratkich- tovushning pastki tayanchi. Qo'shiq tovushi o'pkadan chiqayotgan havo ovoz tuynuklari orqali o'tish paytidagi tebranish bilan hosil bo'ladi. Tovush to'lqinlarini hosil qiluvchi bu tebranishlar bo'g'izdan tashqariga esnoq, og'iz, burun orqali chiqadi va bu yerda sayqallanadi.

Ammo qo'shiq tovushi halqumda xis qilinmasligi kerak, aks holda u bo'g'iz tovushi bo'lib qoladi. Qo'shiq tovushi ko'krakda hosil bo'lib, tanglayga tayanayotgandek xis qilsin.

Qo'shiq ovozini hosil bo'lishining boshqa holatlarini hisobga olmagan holda bosh yoki ko'krak tebranishlari kuchayirilganda ovoz buzilishi mumkinligiga, tovushning tabiiyligini yo'qolishiga olib keladi. Qo'shiqchi "faqat yuqorida kuylaydi" deyiladi buni.

Ortiqcha ko'krak tebranishiga tayanish ovozni og'irlashtirib qo'yadi, registr o'tish joylarini, ovozni yuqoriga harakatini qiyinlashtiradi. Ovoz o'zining yig'inchoqligi, harakatchanligini yo'qotadi.

Qo'shiq aytish chog'ida tovush tayanchini ko'krakdan izlash kerak, bir paytda qorin mushaklar "niqob" sohasiga tomon lahzalik qo'llashi zarur bo'ladi.

Ko'krak qafasining va nafas chiqarish jarayonining mushak faolligi kuchini ko'krak osti tebratkichi deb noto'g'ri tushunadilar. Mushaklar emas, balki traxeya, bronxlarga siqilgan havo ko'krak tebratkichi hisoblanadi.

Shuning uchun qo'shiq aytayotganda ko'krak tebratkichi xajmi o'zgarib ketmasligi uchun nafas olishda ko'krak qafasi xajmini tashlab yubormaslik kerak. Ko'krak qafasi va qorin mushak ortiqcha taranglikka olib kelish ko'krak tebranishiga xalaqit beribgina qolmay, havoni nafas a'zolariga meyorda

taqsimlanishini qiyinlashtiradi. Tebratkichlar tovushni kuchaytiradi, uning sifatli jaranglashiga yo'l ochadi. Shuning uchun o'qitilayotganda niqobda qo'shiq aytish tavsiya etiladi, ya'ni bosh tebratkichlari, nafas tayanchi, ko'krak tebratkichlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Yaxshi tayanch bo'lsa qo'shiqchi tebratkichlar ishini ancha faollashtira oladi, bu kuchli tebranishda o'z aksini topadi, tayanchsiz esa tebratkichlar faolligini yo'qotadi.

Ko'rinadiki qo'shiq tebratkichlari faolligi darajasi - bu qo'shiqchining muxim vokal- texnik ko'rsatkichi bo'lib qoladi.

Qo'shiqchilikdagi ovozda tebratkich imkoniyatlaridan boshqa hech qanday sir yo'q. Tebratkich yo'q bo'lsa, qo'shiqchi ham yo'q bo'ladi, tebratkich ovozning yorqinligi, charchoq bilmasligi va hamisha navqironligini ta'minlaydi.

Tarixda nihoyatda kuchli ovozlar ma'lum bo'lgan. Ular qudratli yo'naltirilgan ovozi bilan xatto oynani sindirib yuborganlar. Shu ma'noda shovqin kuchi detsibel bilan o'lchanadi. Otboy bolg'asi 100 detsibel shovqin bilan ishlaydi. Yaxshi yo'lga qo'yilgan ovoz qudrati 110 detsibelni tashkil etadi. Shuning uchun operadagi konsertmeyster ishini zararliligi bo'yicha temirchilik sexidagi ishga o'xshatish mumkin.

Eng avvalo ko'krak tebratkichlari havo bilan to'latilgan (traxeya, bronx, o'pka) tovushga quvvat baxsh etadi.

Bosh tebratkichlari ovozga tembr va tovushga bo'yoq beradi.

Halqum ko'proq tovushning balandligini ta'minlaydi.

Ko'pincha "tebratkichlarni ishga tushirish" tushunchasi ishlatiladi. Albatta, tebratkichlarni shunchaki "o'chirib, yondirib" bo'lmaydi. Ammo inson o'z oldiga ishida aniq maqsad qo'ysa, qo'shiq jarayoni haqida aniq tasavvur hosil qilsa, o'z maqsad va vazifalarini yaxshi anglasa, bunday "o'chirib-yondirish" bizning "ichki kompyuterimiz" orqali o'z-o'zidan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, yaxshi yo'lga qo'yilgan ovoz yuqori tayanch (tanglay, niqob, pozitsiya) va pastki tayanchga (diafragma, ko'krak) ega ekanligi haqida tasavvurimiz hosil bo'ladi. Ularning orasidagi havo oqimi esa tarang tortilgan torga o'xshaydi. Qo'shiq jarayonida qo'shiqchi bu hissiyotlarni saqlab qolishi tinglovchida "yo'lga qo'yilgan ovoz" haqidagi tasavvurini hosil qiladi. Ovozning texnik takomili va qo'shiq aytayotganning musiqaviyligi ijrodagi tasavvurni boyitadi.

3-amaliy mashg'ulot: Ovoz hosil qilish jarayonining anatomik va gigiyenik talablari. Artikulyatsiya va diksiy. Ovoz postanovkasi uslub va usullari. Ovoz xosil qilish jarayoni (2 soat).

Ishdan maqsad: Artikulyatsiya a'zolari, diksiya haqida umumiy tushuncha berish. Artikulyatsiya a'zolari, diksiya faoliyatini rejalashtirish bo'yicha mashqlar orqali mustahkamlash. Artikulyatsiya a'zolari, diksiya faoliyatini tashkil qilish usullari o'rganish. Ijodkorlikni yuzaga chiqarishdagi to'siqlar, ijodkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish. *Maxsus xona, pianino, vokal asboblari.*

Masalaning qo'yilishi: Ijodiy jarayonni quyidagi qadamlar ketma-ketligida taqdim eting:

1. Muammo bayonoti (vazifalar)
2. Tayyorlash (topshiriqni o'rganish, to'plash, tasniflash va tahlil qilish, prognozlash)
3. Ehtiyojlarni topish, inkubatsion (mantiqiy va birlamchi axborot ishlash)
4. Yangi fikr, sintez, muammolarni yechish
5. Tasdiqlash va baholash (natijani tushunish va tahlil qilish)
6. Taqdimot (natijalarni auditoriyaga eng yaxshi tarzda taqdim etish).

Ishni bajarish uchun namuna: Vokal esnog'i

Yuqori vaziyat, erkin keng halqum, tovushning faol xujumida yumshoq tanglay ko'tarilgan bo'lishi lozim yoki yoyilgan yelkan ko'rinishini olishi kerak.

Ba'zan panja bilan kichik tilga teginib, yumshoq tanglay va kichik til ko'tarilayotganini sezish mumkin. Vokal adabiyotida "qo'shiq esnog'i", "vokal esnog'i", "yarim esnoq" deb nomlanadi, bunda halqum, yumshoq tanglay faollashadi, jag'lar yaqinlashadi, til bo'shaydi, halqum tushadi.

Tomoqni ochishda oyna oldida mashq qilish foyda beradi va tanglayni xuddi tomoqni vrachga ko'rsatayotgandek qilib ko'rishga intilish kerak.

Qo'shiq tovushni to'g'ri hosil qilinganda yumshoq tanglay dimog'ni halqumdan to'la ajratib qo'yadi. Esnoq nafas olinganda tayyorgarlik holatiga kiradi va qo'shiq tovushini hosil qilishga ta'sir ko'rsatadi. Unda halqum bo'shlig'i kengayadi, uning tebranish qobiliyati kengayadi. Bu holatda baland ko'tarilgan yumshoq tanglay qo'shiq tovushini to'g'ri shakllantirishi sharoit yaratadi. Esnoqda halqum osilgan til osti suyak va til tomiri tushadi. Shuning uchun esnoq halqumni o'z-o'zidan tushib ketishi usuli hisoblanadi. Asablar aloqasi orqali esnoqdagi yumshoq tanglay tarangligi diafragmaning zaruriy tonusini hosil qiladi, ovoz

a'zolari tarangligiga ham ta'sir etadi, bu aralash registirni tashkil etish uchun muximdir.

Vokal amaliyotida yarim esnoq haqida gapiriladi, negaki qo'shiq esnog'i odatiydagidan kichikroq bo'ladi. Ta'limning boshidanoq nafas olish "og'iz-halqumni yarim esnoqqa moslash" bilan o'zaro muvofiqlashuviga e'tibor berish zarur.

Agar qattiq tanglayga yuqoridan tayanch bo'lmasa, tovush qisqa, siyqa, keskin bo'lib qoladi. Bunday tovushdan xalq qo'shiqlarida foydalaniladi. Agar tovush yumshoq tanglaydan chiqsa ming'illab, rangsiz holatda chiqadi.

Tovushni burunga yo'naltirib bo'lmaydi, burundan u ming'irlab chiqadi. Agar boshlovchi qo'shiqchida burun tovushi bo'lsa, u aytayotganda burnini berkitishga majbur qilinadi, shu bilan u o'z kamchiligini tushunadi.

Nafas chiqarayotganda buning ta'siri bo'lmaydi, negaki qo'shiq aytayotganda nafas doim burundan chiqariladi.

4-amaliy mashg'ulot: Vokal texnikasi asosalari: vokal nutqi, talaffuz ahamiyatlari. Ijro repertuarini tanlashda professional yondashuv (2 soat).

Ishdan maqsad: Yakka, ansambl va xor ko'rinishdagi vokal ijrochiligi haqida umumiy tushuncha berish. Tovush gigiyenasi asoslari faoliyatini rejalashtirish bo'yicha mashqlar orqali mustahkamlash. Yakka, ansambl va xor ko'rinishdagi vokal ijrochilig faoliyatini tashkil qilish usullari o'rganish. Tovush gigiyenasi asoslarini yuzaga chiqarishdagi to'siqlar, ijodkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish. *Maxsus xona, pianino, vokal asboblari.*

Masalaning qo'yilishi: Ijodiy jarayonni quyidagi qadamlar ketma-ketligida taqdim eting:

1. Muammo bayonoti (vazifalar)
2. Tayyorlash (topshiriqni o'rganish, to'plash, tasniflash va tahlil qilish, prognozlash)
3. Ehtiyojlarni topish, inkubatsion (mantiqiy va birlamchi axborot ishlash)
4. Yangi fikr, sintez, muammolarni yechish
5. Tasdiqlash va baholash (natijani tushunish va tahlil qilish)
6. Taqdimot (natijalarni auditoriyaga eng yaxshi tarzda taqdim etish).

Ishni bajarish uchun namuna: Qo'shiq aytayotganda halqum

Halqumning qo'shiq holati past ham, yuqori ham bo'lmasligi kerak, u har bir qo'shiqchi uchun o'ziga xosdir va ovoz a'zolarinig tuzilishiga bog'liq. Qo'shiqchi

dastlab oson talaffuz qilinuvchi tovushlardan boshlashi kerak, aynan shu tovushlar halqumning o'rtacha vaziyatini belgilab beradi.

Ovozning qulay va chiroyli jarangida halqum holatiga e'tibor bering. Qo'shiq aytayotganda halqum o'z holatini deyarli o'zgartirmaydi. Ovozi yaxshi yo'lga qo'yilgan qo'shiqchilarda halqumning mustahkamligi kuzatiladi. Agar halqum harakatchan bo'lsa tovush yaxshi sifatga ega bo'lmaydi.

Halqumning nutq yoki tabiiy holati qo'shiqda to'g'ri kelmaydi. Uning bu holatida tovush siyqa bo'ladi. Qo'shiq aytishdan avval halqum past holatga o'tadi.

Halqumning bunday holati to'g'ri texnika va to'g'ri tonning mezoni bo'lib qoladi.

Halqumning past holatida tebratgich va bo'g'iz bo'shlig'i kengayadi, u bilan ovoz kuchi va xajmi ham ortadi.

Agar halqum baland bo'lsa, til va og'iz tubi ham ko'tarilgan bo'ladi, agar past bo'lsa til va og'iz tubi bo'shlig'i tushgan bo'ladi, bu tilni yassi turishini yengillatadi. Ammo halqumni majburan harakatsiz holatda tutish zararli va mumkin emas, u ovozni buzadi.

Albatta, qo'shiq aytishni o'rganayotgan ovoz a'zolari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak, ammo amaliy mashg'ulotlarda asosiy e'tibor eshitishga va mushak xislariga, bo'layotgan jarayonlarning tabiiyligi va faolligiga qaratiladi. Musiqiy va jismoniy mashqlar orqali natijalarga erishish mumkin, tana va ovoz a'zolarini zo'riqishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Bunday ishda oyna bebaho yordamchi bo'ladi va bu jarayonda e'tibor, sabr, ishonch kabi xislatlar tarbiyalanadi.

5-amaliy mashg'ulot: Asarlar ustida ishlashda pedagogik mahorat. Vokal janrlari va ularning ijro yo'li (2 soat)

Ishdan maqsad: Ijro repertuarini tanlashda professional yondoshuv. Asarlar ustida ishlashda pedagogik mahorat haqida umumiy tushuncha berish. Ijro repertuarini tanlashda professional yondoshuv faoliyatini rejalashtirish bo'yicha mashqlar orqali mustahkamlash. Asarlar ustida ishlashda pedagogik mahorat faoliyatini tashkil qilish usullari o'rganish. Ijro repertuarini tanlashda professional yondoshuv, ijodkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish. *Maxsus xona, pianino, vokal asboblari.*

Masalaning qo'yilishi: Ijodiy jarayonni quyidagi qadamlar ketma-ketligida taqdim eting:

1. Muammo bayonoti (vazifalar)

2. Tayyorlash (topshiriqni o'rganish, to'plash, tasniflash va tahlil qilish, prognozlash)
3. Ehtiyojlarni topish, inkubatsion (mantiqiy va birlamchi axborot ishlash)
4. Yangi fikr, sintez, muammolarni yechish
5. Tasdiqlash va baholash (natijani tushunish va tahlil qilish)
6. Taqdimot (natijalarni auditoriyaga eng yaxshi tarzda taqdim etish).

Ishni bajarish uchun namuna: Ovoz pardalari haqida bir necha so'z

Aynan bir mexanizm harakati bilan hosil qilinayotgan ketma-ket va bir xildagi tovushlar qatori parda deb yuritiladi.

Ko'krak va baland ovozda singari ovoz hosil qilishning ikki xil usuli mavjud. Ko'krak usulida ovoz tuynuklari to'la berkiladi, ovoz paychalarigina to'la titraydi, halqum nisbatan pastda joylashadi. Akustik tomondan tovushlar nihoyatda boy bo'ladi. Baland ovozda ovoz tuynuklari qisman berkiladi, paychalarning faqat cheti titraydi. Akustik jihatdan tovushlar boy bo'lmaydi. Operadagi baland ovoz pardasi bundan mustasno.

Ko'krak pardasi ko'krak, mikst, yuqori singari turlarga bo'linadi. Eraklarda ko'krak, yuqori turlari bo'ladi. Ayollarda yuqoridagi har uchala tur mavjud. Mikst-bu ko'krak jarangidan yuqori va baland ovozga asta o'tishdir, ya'ni oraliq tur deyish mumkin.

Mikstda ham ko'krak, ham yuqori tebratkichlar ishlaydi. Uning ustida ishlashda tinglash orqali nazorat qilish va xis qilishda qulaylikni izlash zarur bo'ladi. Qo'shiqchi keskin notalardan saqlanishi kerak, yaxshi nazorat qilinadigan nafas bilan ovozni yo'lga solishi kerak. Aks holda unli tovushlarni sezilarli o'zgarishiga olib keladi, shuning uchun "ochiq" va "yopiq" terminlari qo'llanadi.

Yopiq tovush- bu yuqori va pastki tebratkichlardan keng ma'noda qo'llash tembri bo'yicha an'anaviy dumaloqlangan hamda tayanch xissi saqlangan tovushdir.

Agar halqum yetarli kengaysa, bo'g'iz esa uning meyoridagi holatidan pasaysa yopiq tovushlar oson talaffuz qilinadi. Tovushlar avvaldan yuqori yoki past notalarda tekislanadi. Ta'limning dastlabki davrlarida tovushlarni noto'g'ri shakllanishi natijasida ochiq tembrdan ortiqcha foydalanish ko'pgina ovozlarni tez yo'qolishiga olib keladi. Ayniqsa erkaklarning baland ovozi uchun tembrda qo'shiq aytish ayniqsa zararlidir. Ochiq tovushdan ortiqcha foydalangan ayol qo'shiqchilar ham tovush va ovozning tez siyqalanishiga uchraydi, ovoz a'zolariga putur yetkazadi.

Bunday nuqsonlardan qutulish uchun bir qator vazifalarni bajarish lozim:

1. Ovoz tembri o'rtacha tovushda boshlanadi. Uning bo'yog'i ravon, yopiq, yoqimli bo'lishi lozim.

2. O'rta darajadagi o'tkinchi tovushlarning to'g'riligi, tekisligiga e'tibor berish, o'z ovozini bukilishi, o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik- bunga yuqori va ko'krak jarangini uyg'unlashtirish bilan erishiladi.

3. Tovush bo'yog'i yorqin va jarangdor bo'lishi. Rangsiz ovoz tovushni bo'g'iq va siyqa qilib qo'yadi. To'g'ri tovushda halqum past, til qoshimon, yumshoq tanglay baland bo'lishi lozim.

6-amaliy mashg'ulot: Xonandalik maktablarini yaratishda musiqiy ta'lim uzviyligi. Jaz, pop, opera va milliy xonandalik janrlaridagi vokal ijrochiligi (2 soat).

Ishdan maqsad: Mazkur mavzuni o'zlashtirishdan oldin vokal san'atida Xalqaro xonandalar tanlovlari va festivallar o'rni belgilab olinadi. Tajribali xonandalarning qanday uslublarda ijodiy jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishi, ta'sir kuchini o'tkazuvchi uslublar va samarali faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan bilim-tajribalar bo'yicha tinglovchilar mustaqil ravishda (turli xonandalarning tajribalari asosida) ma'lumotlar to'playdilar va tashkil etiladigan amaliy mashg'ulot davrida xonandalikning mahalliy uslublar xususida o'z qarashlarini bayon etadilar.

Masalaning qo'yilishi: Eng samarali va ilg'or deb topilgan ta'sir vositalarining yanada chuqurroq o'zlashtirilishi uchun baxs-munozaralar tashkil etiladi. Mashg'ulot yakunida jamoga ta'sir vositalarining eng namunali deb topilganlari umumlashtirilib, ta'lim tizimiga tatbiq etish masalalari muhokama etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna: Ovoz pardalari haqida bir necha so'z

Aynan bir mexanizm harakati bilan hosil qilinayotgan ketma-ket va bir xildagi tovushlar qatori parda deb yuritiladi.

Ko'krak va baland ovozda singari ovoz hosil qilishning ikki xil usuli mavjud. Ko'krak usulida ovoz tuynuklari to'la berkiladi, ovoz paychalarigina to'la titraydi, halqum nisbatan pastda joylashadi. Akustik tomondan tovushlar nihoyatda boy bo'ladi. Baland ovozda ovoz tuynuklari qisman berkiladi, paychalarning faqat cheti titraydi. Akustik jihatdan tovushlar boy bo'lmaydi. Operadagi baland ovoz pardasi bundan mustasno.

Ko'krak pardasi ko'krak, mikst, yuqori singari turlarga bo'linadi. Erkaklarda ko'krak, yuqori turlari bo'ladi. Ayollarda yuqoridagi har uchala tur mavjud. Mikst-bu ko'krak jarangidan yuqori va baland ovozga asta o'tishdir, ya'ni oraliq tur deyish mumkin.

Mikstda ham ko'krak, ham yuqori tebratkichlar ishlaydi. Uning ustida ishlashda tinglash orqali nazorat qilish va xis qilishda qulaylikni izlash zarur bo'ladi. Qo'shiqchi keskin notalardan saqlanishi kerak, yaxshi nazorat qilinadigan nafas bilan ovozni yo'lga solishi kerak. Aks holda unli tovushlarni sezilarli o'zgarishiga olib keladi, shuning uchun "ochiq" va "yopiq" terminlari qo'llanadi.

Yopiq tovush- bu yuqori va pastki tebratkichlardan keng ma'noda qo'llash tembri bo'yicha an'anaviy dumaloqlangan hamda tayanch xissi saqlangan tovushdir.

Agar halqum yetarli kengaysa, bo'g'iz esa uning meyoridagi holatidan pasaysa yopiq tovushlar oson talaffuz qilinadi. Tovushlar avvaldan yuqori yoki past notalarda tekislanadi. Ta'limning dastlabki davrlarida tovushlarni noto'g'ri shakllanishi natijasida ochiq tembrdan ortiqcha foydalanish ko'pgina ovozlarni tez yo'qolishiga olib keladi. Ayniqsa erkaklarning baland ovozi uchun tembrda qo'shiq aytish ayniqsa zararlidir. Ochiq tovushdan ortiqcha foydalangan ayol qo'shiqchilar ham tovush va ovozning tez siyqalanishiga uchraydi, ovoz a'zolariga putur yetkazadi.

Bunday nuqsonlardan qutulish uchun bir qator vazifalarni bajarish lozim:

1. Ovoz tembri o'rtacha tovushda boshlanadi. Uning bo'yog'i ravon, yopiq, yoqimli bo'lishi lozim.
2. O'rta darajadagi o'tkinchi tovushlarning to'g'riligi, tekisligiga e'tibor berish, o'z ovozini bukilishi, o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik- bunga yuqori va ko'krak jarangini uyg'unlashtirish bilan erishiladi.
3. Tovush bo'yog'i yorqin va jarangdor bo'lishi. Rangsiz ovoz tovushni bo'g'iq va siyqa qilib qo'yadi. To'g'ri tovushda halqum past, til qoshsimon, yumshoq tanglay baland bo'lishi lozim.

V. KEYSLAR BANKI

V. KEYSLAR BANKI

“Keys-stadi” texnologiyasi (ingliz tilida “case” – to‘plam, chemodan (chamadon), “study” – muammoli vaziyat) – vaziyatli tahlil èki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish demakdir. Ushbu texnologiya talabalarda aniq, real èki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

U talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi

1. Keys: O‘zbekiston kompozitorlari ijodida shakl va uslub muammosi. Zamonaviy dirijèrlik san’ati maktablari.

Ishdan maqsad – Ta’lim tizimida musiqiy yo‘nalishida asarlar yaratgan va yarataётgan O‘zbekiston kompozitorlari ijodida shakl va uslub muammosi; zamonaviy dirijèrlik san’ati maktablari; kompozitor va folklor; Yevropa mamlakatlarida dirijèrlar tayèrlash tizimi; Sharq va G‘arb musiqasining integratsiyasi; Rossiya va Amerikada professional dirijèrlar tayèrlash tizimi va ularning mazmunini o‘rgatish borasida ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish. Tinglangan audio èki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlariga bo‘lingan holda ularga har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollarga javob tayèrlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

1. Ishni bajarish uchun namuna

O‘qituvchi tinglovchilarni 2- (3 èki 4) guruhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayèrlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma’lumot beradi. (darslik, ma’ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e’lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e’lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e’tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi.

Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Guruhda ishlash qoidalari
Har kim o‘z o‘rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.
Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas’uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.
Har kim zarur bo‘lgan holda èrdam so‘rashi lozim.
Har kim undan èrdam so‘ralganda albatta èrdam berishi kerak.
Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart. Har kim aniq tushunishi kerakki:
- boshqalarga o‘rgatib o‘zimiz o‘rganamiz.
- kemaga tushganning joni bir: è birga qutilamiz èki birga cho‘kamiz.
Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.
Individual o‘qish – 2 minut.
2. Muhokama qilish –3 minut.
3. Presentatsiya (takdimot) varag‘ini tayèrlash – 5 minut.
4. Presentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.
5. Guruhlar boshqa guruhlarini presentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

2. 1-ilova

Birinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
“Zamonaviy musiqa” atamasi nimani anglatadi?		
O‘zbekistonda musiqiy avangardizm rivojlanish bosqichlari haqida gapirib bering.		
Dirijèrlik san’ati maktablari haqida nimani bilasiz?		

Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Kompozitor va folklorning o‘zaro bog‘liq tomonlari nimada?		
Zamonaviy musiqa yaratgan o‘zbek kompozitorlari haqida so‘zlab bering.		
Dirijèrning vazifasi nimalardan iborat?		

Guruhni baholash jadvali.

Guruh - lar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchligi	Guruh a'zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

1. **Keys: Zamonaviy xonandalik maktablari.**

Ishdan maqsad – Ta’lim tizimida xorijiy davlatlarda vokal maktablar; vokal ijrochilik san’atida artistik mahorat va sahna madaniyatini o’rgatish borasida ilg’or mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish. Tinglangan audio èki tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko’nikmalariga ega bo’lish.

Masalaning qo’yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlariga bo’lingan holda ularga har bir vazifa bo’yicha berilgan savollarga javob tayèrlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

3. **Ishni bajarish uchun namuna**

O’qituvchi tinglovchilarni 2- (3 èki 4) guruhga bo’ladi. Mavzu bo’yicha tayèrlangan topshiriqlarni tarqatadi. O’quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo’shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma’lumot beradi. (darslik, ma’ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e’lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e’lon qiladi.

O’qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg’ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to’g’ri xulosalar chiqarishiga e’tibor qaratadi.

Mavzu bo’yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi tinglovchilar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Birinci guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Vokal maktablar deganda nimani tushunasiz?		
Italyan vokal xonandalaridan kimlarni bilasiz?		
Maqom ijrochiligi haqida fikr bildiring.		

Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh

Zamonaviy xonandalik maktablari haqida qanday firklar bildira olasiz?		
O'zbekiston vokal maktablarining èrqin vakillari kimlar?		
Zamonaviy estrada-jaz xonandaligi haqida firklaringiz.		

1- ilova

Guruhni baholash jadvali.

Guruh - lar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a'zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

VI. GLOSSARIY

VI. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Sozandalik	Ma‘lum bir sozni (rubob, tanbur, doyra, nay va x.k) mukammal egallagan, ham jo‘rnovoz, solist va jamoaviy ijrolarda qatnashib, mumtoz san‘atni targ‘ibotchisidir.	This is player of Uzbek national instruments like rubob, tanbur, doyra, nay and ets. He can play with solists, he solo player and play with other instruments.
An‘anaviy ijrochilik	Milliy musiqalarimizni asosini o‘rganuvchi soha	Traditional performing arts learning basic of nationale music of Uzbekistan.
Vohaga mansub janrlar	Katta ashula Farg‘ona-Toshkent vohasi, Mavrigiy va Buxorcha Samarqand-Buxorovohasi, Suvoriylar Xorazm vohasi. Bundan tashqari dostonchilik, jirovchilik, halfachilik, yallachilik, laparchilik va boshqalar.	Janrs from Fergana-Tashkent Katta ashula (Big song), from Samarkand and Bukhara Mavrigi and Bukhorcha, from Khorezm Suvoriy and also janrs like doston (play epos), jirov (play epos an another stile), khalfa (womans epos players), yalla (melodies for the dans), lapar (sing a song in competition) and ets.
Uch voha maqomi	Bular Xorazm maqomlari, Shashmaqom va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridir.	That is Khorezm’s makom, Shashmakom and Fergana-Tashken’s makom ways.
Ustoz-shogird tizimi	Ustoz shogird tizimi an‘anaviy ijrochilik sohasida eng sermahsul dars berish uslubi.	From teacher to student systems effect way for learning traditionale performing arts.
Mukammal ijro	Barcha jihatlari to‘liq, chiroyli, behato ijro mukammal hisoblanadi.	All parameters is full and beutefull plays is the original perform.
Nomukammal ijro	Kamchiliklari mavjud bo‘lgan ijro nomukammal ijro deyiladi.	Perfom with the mistakes we call unoriginal perform.
Ijrochilik maktablari	Ma‘lum bir ustoz ijrochi tomonidan yaratilgan ijro maktabi deyiladi. Hozirgi kunda bunday maktablarning juda ko‘p namunalari mavjud.	Performing schools belded from one of masters. Now in our contry many of performing schools

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli [Farmoni](#).
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli [Farmoni](#).

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

14. san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF–6000-son Farmoni.

SH. Maxsus adabiyotlar

16. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

17. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An‘anaviy va noan‘anaviy ta‘lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

18. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

19. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta‘lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

20. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

21. Islamova R. Estradniy vokalniy ansambl. Uchebniy posobiye. T., “Akademiya”. 2018. – 140 str.

22. Umarov D. Estrada yakka xonandaligi. O‘quv qo‘llanma. – T.; “Akademiya”. 2018.

23. Umurov N.K. Notniye redaktori Sibelius-4, Sibelius-6 (vozmojnosti i sravnitelniy analiz versiy programmi Sibelius. –T.: “Musiqqa”. 2015.

24. Umuriv N.Q. Sibelius 4, Sibelius 6 nota muharrirlarida ishlash masalalari. – T.: “Musiqqa”. 2016.

25. Razzakova M. Akademik xonandalik ijrochiligi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Musiqqa”. 2018.

26. Nazaykinskiy YE. Janr i stil v muzike – M, 2018.

27. Kogoutek S. Texnika kompozitsii v muzike XX veka M., 2015.

28. Uzbekskaaya muzika na stike stoletiy (XX-XXI vv.), problemi (kollektivnaya monografiya). T.; “Musiqqa”. 2018.

29. Rahimov SH. Musiqa san'atiga o'rgatish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.: "Musiqa". 2009. – 224 b.

30. Soy S. Rabota s konsertmeystrom (v klasse solnogo peniya) Uchebniye posobiye. T.: "Musiqa". 2018. – 130 str.

31. Xamidova M.A., Xasanov R. Ijrochilik san'ati tarixi. O'quv qo'llanma. T.: "Musiqa". 2018. – 124 b.

IV. Internet saytlar

32. <http://edu.uz>
33. <http://lex.uz>
34. <http://bimm.uz>
35. <http://ziyonet.uz>
36. <http://www.dsmi.uz>.
37. <http://www.kino-teatr.ru>
38. <http://www.artsait.ru>
39. <http://belcanto.ru/>
40. <http://music.edu.ru/catalog>
41. <http://artyx.ru/>